Amir Temur vafotidan so’ng, 1405-yil martda Shohrux rasmiy ravishda Temuriylar saltanati hukmdori sifatida Xuroson taxtiga o’tirdi va o’z nomidan xutba o’qitib, pul (tanga) zarb qildirdi. Shohrux hukmdorligining dastlabki yillarida Temuriylar saltanatida kuchli tarqoqlik yuzaga kelib, saltanatning turli qismlarida yakkahokimlik uchun kurash boshlanib ketdi. Movarounnahrda Samarqand taxtini Xalil Sulton egalladi, Ozarbayjon va Ajam Iroqini Qora Yusuf, Arab Iroqi hududini Sulton Ahmad o’z qo’liga kiritdi. Eronzaminda temuriy shahzodalar o’zaro nizolashardilar, Mozandaron, Balx, G’ur va boshqa viloyatlarda ham isyonlar yuzaga keldi. Shohrux saltanatda vujudga kelgan nizolar, isyonlar, yakkahokimlik uchun chiqishlarni teran qobiliyati, mahorati, tafakkuri, olib borgan siyosati tufayli birin-ketin bostirishga muvaffaq bo’ldi.

Shohrux o’z hukmdorligi chog’ida Temuriylar saltanatining hududiy kengligi, harbiy salohiyati, kuchli iqtisodiy mavqeini saqlashga intildi. Buning uchun Movarounnahr, Eronzamin, Ozarbayjonga yurishlar qilib g’alaba qozondi; 1429-yil

Shohrux Ozarbayjonda xavfli kuchga aylangan amir Iskandar ibn Qora Yusuf ustiga deyarli butun saltanati hududidan lashkar yig‘ib yurish qiladi. Salmos cho‘lida ikkala tomon o‘rtasida qattiq jang bo‘ladi; Shohrux o‘g‘illari Mirzo Boysung‘urni lashkarning juvang‘arini, Ibrohim Sultonni barang‘arini boshqarishga belgilaydi; Muhammad Jo‘giyni esa o‘ziga tegishli bo‘lgan g‘ul qismda qoldiradi. Shiddatli jangdan so‘ng Shohrux lashkari zafar quchadi. Shohrux Seyiston va Badaxshonga lashkar jo‘natib, u yerlardagi isyonlarga chek qo‘yadi. 1405-yildan 7 yil davomida Xorazmni zabt etib turgan Dashti Qipchoq amirlariga qarshi Shohrux katta lashkar jo‘natadi va g‘olib kelib, Xorazmni Temuriylar saltanati tarkibiga kiritadi hamda viloyatni boshqarishga sarkarda amir Shohmalikni belgilaydi. Shohrux ko‘pgina nizolarni sulh yo‘li bilan bartaraf qilgan va bunda taniqli davlat arboblari va shayxlar xizmatidan keng foydalangan. Umuman, Shohrux hukmronligi davrida sharqda Mo‘g‘ulistondan tortib g‘arbda Misr va Rum yerlarigacha, janubda Hindistonning markaziy qismidan boshlab shimoldan to Dashti Qipchoq chegaralarigacha bo‘lgan joylar Temuriylar saltanati tarkibiga kirgan.

Saltanatni suyurg‘ol tizimi bo‘yicha boshqargan; mamlakat hududini o‘g‘illari, nevaralari, qarindoshlari, xizmat ko‘rsatgan sadoqatli amirlariga suyurg‘ol qilib bergan. Tarixchi Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorix” asarida yozilishicha, Shohrux 1443- yil Misr podshosiga elchi yo‘llab Ka‘ba uyiga yopinchiq kiygazishni so‘raydi va rozilik oladi.[8:214] Shu asosda 1444-1445-yil ka‘bapo‘sh tayyorlatib, uni shayx Nuriddin Muhammad al-Murshidiy va mavlono Shamsiddin Muhammad Abhariy vositasida Makkaga jo‘natadi; ular ka‘bapo‘shni muqaddas Ka‘ba uyiga yopib qaytadilar. Shohrux podshohlik devonida kundalik ishlarni doim nazorat qilib borgan; qarorlar qabul qilishda kengash va maslahatga keng o‘rin ajratgan, ko‘pchilik fikrini inobatga olgan holda adolatli hukmlar chiqargan. Shuningdek, devonda diniy va dunyoviy masalalar yuzasidan yetuk allomalar ishtirokida suhbatlar, fiqh, tib, nujum, geografiya, tilshunoslik va boshqa fan sohalari bo‘yicha bahs-munozaralar tashkil qilgan, o‘zi ham ularda faol qatnashgan. Shohrux saltanati hududida bunyodkorlik faoliyati uchun katta imkoniyatlar yuzaga keldi. Shaharsozlik, hunarmandchilik, savdo, dehqonchilik, ilm-fan, madaniyat tez sur‘atlar bilan rivojlandi. Shohrux bunyodkorlik ishlariga, xususan, shaharlar obodonchiligi va sug‘orish tizimini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratib Hirot (1405-yil), Balx (1407-yil) shaharlarini tiklashga oliy farmon bergan. Chingizxon yurishi chog‘ida xarob qilingan (1220-yil) Marv shahrini qayta barpo etilib, unga Murg‘ob daryosidan ariq qazdirib suv keltirildi. Sug‘orish tizimi yaxshilandi, yangi yerlar o‘zlashtirildi, ekin maydonlari kengaydi. Shaharlarda hunarmandchilik va savdo rivojlandi, ko‘plab madaniy-ma‘naviy muassasalar - madrasalar, masjidlar, xonaqohlar qurildi. Shohrux ilm-fan rivojiga alohida e‘tibor berdi. Hirot, Samarqand, Buxoro, Mashhad, Sheroz va boshqa shaharlarda ilm-fan keng rivoj topdi. Movarounnahrda Mirzo Ulug‘bek rasadxona

barpo etib aniq fanlar rivojlandi; Naqshbandiya ta’limoti yozma meros tarzida shakllandi va shu yo‘nalishda bir qancha asarlar yozildi. Hirot va Sheroz shaharlarida tarixnavislikka katta e’tibor qaratildi. Amir Temur va temuriylar tarixiga oid bir qancha yirik asarlar yaratildi. Temuriylar saltanatida kitobat va miniatyura san’ati yuksaldi. Hirotida Mirzo Boysung‘ur va Sherozda Ibrohim Sulton bu sohalarning rivojiga katta hissa qo‘shdilar.

Shohrux Mirzo 20 yoshgacha otasi sohibqiron yonida bo‘lib, uning yurishlarida, jumladan, Falastin yurishida ham faol qatnashdi. 1397 yilda unga Xuroson, Seyiston va Mozandaron hokimligini topshiradi. Shu davrdan to 1405 yilgacha, ya’ni Amir Temur vafotigacha Xuroson hukmdori degan nom bilan kifoyalandi. Sohibqiron vafotidan keyin ota taxtini egallashga harakat qildi va Jahongir Mirzoning ikkinchi o‘g‘li Pirmuhammad bilan bitim tuzib, Halil Sultonga qarshi urishdi. Bu paytda Movarounnahr Mironshohning Xonzodadan tug‘ilgan o‘g‘li Halil Sultonning qo‘lida edi.[11:265]

1408 yilda Pirmuhammad halok bo‘ldi. Shohrux Mirzo yakka o‘zi turli tuman makru hiylalar ishlatib kurashni davom ettirdi. Va nihoyat, 1409 yilda Shohrux g‘alaba qozondi va Samarqand taxtini Halil Sultonning qo‘lidan olib, Movarounnahr boshqaruvini o‘zining to‘ng‘ich o‘g‘li 14 yoshli Mirzo Ulug‘bekka topshirdi. Shu yildan boshlab Temuriylar saltanati ikki qismga - biri markazi Samarqand bo‘lgan Movarounnahrni Mirzo Ulug‘bek, ikkinchisi markazi Hirot bo‘lgan Xurosonni Shohrux Mirzo boshqardi. Shohrux va Ulug‘bek Mirzolar davrida Temuriylar saltanati har tomonlama rivoj topdi. Xususan, ilm fanga katta e’tibor berildi. Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqandda obodonchilik ishlari olib borildi. Madrasa va masjidlar qurildi. Temuriylar davlatida astronomiya va matematika sohalarida erishilgan yutuqlar hammasi Ulug‘bek nomi bilan bog‘liqdir.

Shohrux Mirzo 40 yillik hukmronlik davrida Xurosonga tinchilikni o‘rnata oldi. Shohruxni davrida davlat gullab yashnadi. Jumladan, uning davrida Hirotida qurilgan eng katta yodgorliklardan biri malika Gavharshod begim madrasasi hisoblanadi. Shohrux Mirzo kitobga o‘ch kishi bo‘lib, Hirotida o‘zining boy shaxsiy kutubxonasi bo‘lgan.[6:14]

Shohrux hukmronligi davrida Temuriylar saltanatining xalqaro miqyosdagi nufuzi ortdi, davlatlar o‘rtasidagi elchilik munosabatlariga Shohrux juda katta e’tibor bergan. Uning huzuriga Xitoy, Hindiston, Misr, Shom, Rum, Yevropa, Dashti Qipchoq hukmdorlaridan elchilar kelgani va Shohrux ham o‘z elchilarini jo‘natgani haqida Temuriylar davri tarixiy manbalarida ma’lumotlar qayd etilgan va ikkita elchilik haqida mukammal kundalik ham yozilgan. 1419-1422-yillar Xitoyga borib kelgan safar xotirotlari, unda bevosita qatnashgan G‘iyosiddin Naqqoshning kundaligi hamda 1442-1444-yillar Janubiy Hindistonga borib qaytgan elchilarning safar tafsilotlari, uni boshqargan Abdurazzoq Samarqandiyning safarnomasida aks

etgan. Shohruxning elchilar vositasida yo‘llagan maktublarida savdo yo‘llari xavfsizligini ta‘minlash va xalqaro savdo-sotiqni rivojlantirish alohida ta‘kidlangan. Buyuk ipak yo‘li orqali savdo va elchilik karvonlari muntazam qatnab turgan. Shohrux o‘zining xalqaro siyosatida davlatlararo tinch-totuvlik va do‘stona munosabatlar ta‘minlanishini ustuvor yo‘nalish deb bilgan. Shohruxning davlatchilik siyosatida bunyodkorlik ishlariga katta e‘tibori natijasida ilm-fan va madaniyat rivojida o‘ziga xos uyg‘onish (renessans) bo‘ldi va bu XV asrning 2-yarmida Alisher Navoiy davrida Xurosonda ilm-fanning yuksak rivojlanishi uchun zamin yaratdi.

1407-1409 yillar mobaynida Movarounnahr bilan Xuroson o‘rtasida jiddiy bir to‘qnashuv yuz bermadi. Har ikki hukmdor ichki g‘avg‘o va isyonlarni tinchitish bilan ovvora bo‘ldilar. Har ikki hukmdor o‘z mamlakatida sodir bo‘layotgan g‘alayonlarda raqib tomonning tashabbusini ilg‘ab olardi. Bu yillar ayniqsa, Shohruxga qiyin bo‘ldi. U to‘rt yil mobaynida deyarli tinchimadi. Ulug‘bek ham jang-u jadaldan bo‘shamadi, necha marta hayoti xavf ostida qoldi. Sohibqironning suyuqli xotini Saroymulk xonim haqida yetib kelgan xabar Shohruxni, ayniqsa, Ulug‘bekni juda ranjiti. Kelgan xabarga ko‘ra, Xalil Sulton sevikli xotini Shodmulk og‘oning qistovi bilan keksa malikani majburan erga berib yuborganmish. Xalil Sultonning bu qilmishi, Shohrux Mirzoning fikricha, Movarounnahr hukmdori hokimiyatining tanazzulidan dalolat edi. Shohrux biror nobakor bu qaltis vaziyatdan foydalanishi mumkinligini o‘ylarkan, shitob bilan harakat qilishi lozimligini angladi va shunday qildi ham.[9:157]

Shohrux Mirzo bolaligidan bevosita otasi Amir Temur hamda temuriy malikalarning tarbiyasini oldi, saroy qonun-qoidalarini o‘rgandi, otasining pand-u o‘gitlaridan o‘ziga saboq chiqardi. Padari buzrukvori Sohibqiron Amir Temurga har tomonlama o‘xshashga intildi, uning faoliyatiga sinchkovlik bilan e‘tibor berib, siyosiy faoliyatini otasining hayotlik vaqtidayoq boshladi. Shohrux Mirzo rahmdil, adolatli hukmdor edi.

Shohrux o‘ttiz yoshlardagi saxiy va olijanob inson bo‘lib, ilm ahli va hunarmandlarni o‘z panohiga olgan, biroq kezi kelganda jasur jangchi va mohir sarkarda edi. Saltanat hududida ro‘y berayotgan voqea-hodisalar uni (Shohruxni-Y.Z.) sulolaning haqiqiy sardori sifatida ishtirok etishini tobora talab qilardi. O‘zining diniy qarashlari tufayli zo‘ravonlik va kuch ishlatishni inkor etuvchi so‘fiylar tariqatiga a‘zo bo‘lsa ham, u Pirmuhammadning qotilini qidirib qo‘lga olgan, amakivachchasi Pir Umarni azoblab o‘ldirgan temuriy shahzoda Iskandarni qatl ettirgan edi.

Shohrux-temuriylarning eng mashhur va olijanob bir shahzodasi bo‘lib, uning saroyi zamonasining fan va maorif o‘chog‘i edi. Xurosonning maorifga moyil Eron unsuri orasida u o‘zini nihoyatda baxtli hisoblardi. Shu bois Movarounnahrda hokimiyat masalasi va otasining vafotidan keyingi voqealar uning e‘tiborini qattiq

tortardi. Lekin sulola manfaati qattiq tahlikaga tushganligini ko‘rgandan keyin, urushni qanchalik sevmasa-da, o‘zini tutib tura olmadi. Qarindoshi Xalilning falokat xabarini eshitgach, darhol o‘zining lashkari bilan Xudoydodga qarshi harakat boshladi.

Shohrux Mirzoning hukmronlik davrida Xitoy, Hindiston, Misr, Usmoniylar imperiyasi bilan diplomatik aloqalar mustahkamlanadi. Shohrux 1419 yilda Amir Shodixo‘ja boshchiligida 500 nafar elchilik karvonini Xitoyga jo‘natadi. Abdurazzoq Samarqandiy o‘z asarida yozishicha, 1412 yildan 1430 yilga qadar, Xitoy bilan jami besh marotaba elchilik almashinuvi bo‘lgan ekan. Abdurazzoq Samarqandiy o‘zining “Matali sa‘dayin” asarida shunday yozgan: “Shu orada Xitoy viloyatidan, u mamlakatning Chin-u Mochin va boshqa yerlarning podshohi Doy-Ming xon tomonidan elchilar yetib keldi. Xoqoni Said (ya‘ni Shohrux Mirzo) “shahar va bozorlarga ziynat berilsin, har bir san‘at egasi o‘z hunarini to‘la zohir qilib, do‘konini bezatsin”, degan humoyin farmon berdi”. [1:177]

Shuningdek, Shohrux davrida Misr va Suriyada hukmronlik qilayotgan Mamluklar davlati, Old Osiyodagi Usmoniylar imperiyasi bilan ham o‘zaro do‘stona munosabatlar yo‘lga qo‘yilgan. Tarixchi Hofizi Abro‘ o‘zining “Zubdat at-tavorix” asarida Shohruxning Misr podshosiga elchi yuborib, 1444-1445 yillarda Shayx Nuriddin Murshidiy boshchiligida Makkaga Ka‘ba ustiga yoping‘ich – ka‘bapo‘sh jo‘natganligini qayd etgan. Temuriylar saltanatining tashqi siyosati va diplomatik aloqalari tarixiga Shohrux Mirzo faoliyati orqali nazar tashlar ekanmiz, bu masalada amalga oshirilgan eng diqqatga sazovoridan biri Hindiston bilan yo‘lga qo‘yilgan siyosiy munosabatlar ekaniga guvoh bo‘lamiz. Garchi Shohrux Mirzo davrida Temuriylar saltanati tashqi siyosatida Hindiston yuqorida zikr etilgan davlatlarchalik harbiy va strategik jihatdan katta ahamiyat kasb etmasa-da, biroq saltanatning iqtisodiy jihatdan barqarorlikka erishuvi va tobora yuksalib borishi uchun bu yerda ham ustunlik qozonish muhim ahamiyat kasb etar edi. Avvalo, Hindistonning uzoq asrlardan beri savdo uchun qulay mintaqa ekanligi barcha yirik davlatlarni o‘ziga jalb qilganidek, Temuriylarning ham diqqatini tortar edi. Garchi Amir Temur davrida mazkur mamlakatning Dehli va uning atrofini o‘z ichiga olgan markaziy qismlari saltanatga bo‘ysuntirilgan bo‘lsa ham, Sohibqironning o‘limi va shahzodalar orasidagi taxt talashuvlar natijasida Shimoliy Hindistondagi Temuriylar nufuzi susaygan, bu esa Shohrux Mirzoga mazkur yerlarga egalik qilishi uchun yana qaytadan harbiy safar boshlash zaruratini keltirib chiqarayotgan edi. [10:206]

Xulosa qilib aytganda, Shohrux davrida Samarqand va Hirot shahri dunyo ilmfanining markazlaridan bo‘lgan. Bunda albatta, Sohibqiron va uning farzand va nabiralarining o‘rni beqiyos bo‘lgan. Bu shaharlarda gumanitar, aniq, tabiiy, diniy, falsafiy turi fan sohalari yuksak rivojlangan. Bu shaharlar nafaqat ilm-fan balki, boshqa sohalarda ham peshqadam bo‘lgan. Yana xulosa qilamizki, Sohibqiron

yuksak aql-zakovat sohibi va tarix ilmining eng bilimdonlaridan biri bo‘lgan. Buni uning Ibn Haldun bilan olib borgan bahsi va Ibn Haldunning Sohibqironga bergan ta’rifidan bilib olishimiz mumkin. Hatto Amir Temur tarixni yozib borish uchun o‘zi bilan birga muarrixlarni ham olib yurgan.

**Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai Sa’dayn va Majmuai Bahrayn. – 2-jild 1-bo‘lim. Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – B. 632.
2. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai Sa’dayn va Majmuai Bahrayn. 2-jild 2-bo‘lim. Toshkent. 2008. 87-bet.
3. Abdurahmon Saxoviy. Az-zov’ al-laami’ li ahli qorn at-tasi’. – Bayrut: Dar al-jiyl, 1992.– 3- jild. – B. 344.
4. Abul Valid Ibn Shihna. Rovzul manozir fi ilmi availi va avaxiri. – Bayrut: Darul kutub ilmiyya, 1994. – B. 344.
5. Ali Ibn Dovud as-Sirofiy. Nuzhatun nufus va al-abdan fi tavarixi az-zaman. – Qohira: Matbaatu darul kutub, 1970. – 3-jild. –B. 576.
6. Ibn Xaldun. Tarixi ibn Xaldun. – Bayrut: Dar al-fikr, 2000. – 7-jild. – B.762.
7. Ibn Arabshoh. Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. – Toshkent: Fan, 2019. – B.762.
7. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Ашраф Ахмад, Ҳайдарбек Бобобеков. –Тошкент: Шарқ, 1997.
8. Низомиддин Шомий. Зафарнома. –Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996.
9. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). –Тошкент: “Меҳнат”, 1992.
10. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги. –Тошкент, 2010.
11. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. –Тошкент, 1995.

## QOZOG‘ISTONDA DAVLAT AXBOROT TIZIMLARING DAVLAT VA JAMOAT INSTITUTLARI BILAN MUNOSABATLARI

**Ro‘zimova Rayhon Hamidovna**

[rayhonrozimova3@gmail.com](mailto:rayhonrozimova3@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qozog‘istonda davlat axborot tizimlarining shakllanishi va ularning davlat boshqaruvi hamda jamoat institutlari bilan o‘zaro aloqalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Davlat axborot tizimlari orqali axborot almashinuvi samaradorligi, fuqarolar va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, axborot texnologiyalarining demokratik boshqaruv tizimiga integratsiyasi, raqamli xizmatlarning joriy etilishi, elektron hukumat infratuzilmasi, huquqiy me‘yorlar va institutsional muvofiqlashtirish mexanizmlari muhim o‘rin egallaydi. Mazkur tahlillar orqali Qozog‘istonda davlat va jamiyat o‘rtasidagi axborot asosli muloqotni takomillashtirishga qaratilgan strategik yondashuvlar yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** axborot, tizim, davlat, jamiyat, boshqaruv, raqamlashtirish, integratsiya, institutsiya, texnologiya, muloqot, shaffoflik, hamkorlik.

## ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ С ГОСУДАРСТВЕННЫМИ И ОБЩЕСТВЕННЫМИ ИНСТИТУТАМИ В КАЗАХСТАНЕ

**Аннотация:** В статье рассматриваются процессы формирования и развития государственных информационных систем в Казахстане, их значение для государственного управления и особенности взаимодействия с институтами гражданского общества. Анализируются эффективность информационного обмена, обеспечение прозрачности и открытости в отношениях между государством и гражданами, а также участие неправительственных организаций в цифровой трансформации. В центре внимания находятся интеграция информационных технологий в систему демократии, внедрение цифровых сервисов, развитие электронного правительства и институционально-правовые механизмы координации. Представленные подходы способствуют углубленному пониманию стратегий совершенствования информационного диалога между государством и обществом.

**Ключевые слова:** информация, система, государство, общество, управление, цифровизация, интеграция, институт, технология, диалог, прозрачность, сотрудничество.

## INTERACTION OF STATE INFORMATION SYSTEMS WITH GOVERNMENTAL AND PUBLIC INSTITUTIONS IN KAZAKHSTAN

**Annotation:** This article examines the formation and development of state information systems in Kazakhstan, focusing on their role in public administration and their interaction with civil society institutions. It analyzes the effectiveness of information exchange, mechanisms for ensuring transparency and openness, and the involvement of non-governmental organizations in digital transformation processes. The integration of information technologies into democratic governance, implementation of digital services, development of e-government infrastructure, legal frameworks, and institutional coordination mechanisms are key topics of discussion. These insights contribute to a deeper theoretical and practical understanding of strategies aimed at enhancing information-based dialogue between the state and society in Kazakhstan.

**Keywords:** information, system, state, society, governance, digitalization, integration, institution, technology, dialogue, transparency, cooperation.

**Kirish.** Qozog‘istonning siyosiy tizimi 1990-yillarning boshidan hozirgi kungacha o‘zgarib bordi va bu o‘zgarishlar OAVning holatiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Mustaqillikni qo‘lga kiritganidan keyin mamlakatdagi media tizimida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Qozog‘iston OAVlari, o‘z faoliyatida, erkin va mustaqil OAVlarning hukumatni nazorat qilish va tanqid qilishdagi rolini tan olgan libertariylarning ommaviy kommunikatsiya nazariyasini amalga oshirishga intilishdi. Biroq, Qozog‘iston media atrof-muhitida tushunchalar chalkashligi yuz berdi. OAVlarni hokimiyatning asboblari sifatida ishlatish, aslida hokimiyatning o‘zi bilan adashtirilgan edi. "OAVlar – to‘rtinchi hokimiyat" kontseptsiyasi ularni alohida siyosiy kuch sifatida ko‘rib chiqadi, bu kuchni uchta an’anaviy hokimiyat tarmoqlariga tenglashtiradi. OAVlar siyosiy boshqaruvning to‘liq ishtirokchilari sifatida tan olinib, o‘ziga xos funktsiyalarni bajaradi.

Yu. Balakina fikriga ko‘ra, Qozog‘istonning mass-mediasining shakllanish jarayoni tasodifiy yoki aniq oldindan belgilangan bo‘lmagan, balki maqsadli davlat axborot siyosati bilan belgilanib kelgan[1]. Muallif maqolasida ta’kidlaganidek, Qozog‘istonning zamonaviy media-siyosiy tizimi tarkibida muhim rolni mamlakat aholisini tezkor axborot bilan ta’minlash imkoniyatlariga ega bo‘lgan umumqozog‘istonlik OAVlar o‘ynaydi. Qozog‘iston jamiyatining farqlanishi va ko‘p millatli bo‘lishiga qaramay, media-siyosiy tizim o‘z maqsadiga samarali erishmoqda.

Tadqiqotchining ta’kidlashicha, bu jarayonda OAVlarning roli beqiyosdir. Qonli millatlararo ziddiyatlar, ko‘p millatli mamlakatlarda og‘ir oqibatlariga olib kelgan, bunday o‘rnak bo‘lishi mumkin[2].

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** OAVlar tobora ko'proq etnopolitik jarayonlarga ta'sir o'tkazish uchun siyosiy vositalar sifatida foydalanilmoqda. OAVlarning rivojlanishidagi mavjud muammolardan biri, shu jumladan, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning to'liq spektriga salbiy ta'sir o'tkazishidir. Hozirgi demokratiyaning nufuzli tashkiloti bo'lgan YEI (Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti) o'z faoliyatida OAVlarning etnik munosabatlar sohasidagi faoliyatini nazorat qilish zarurligini tasdiqladi. Bu ayniqsa, demokratiyaga intilayotgan ko'p millatli jamiyatlarda juda muhimdir. Mustaqil Qozog'iston bugungi kunda ana shunday jamiyatlardan biridir. OAVlarning etnik munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishining oldini olishga qaratilgan siyosat Qozog'iston Respublikasida davlat va jamoatchilik tomonidan YEI tamoyillari asosida qo'llab-quvvatlanadi.

Yu. Balakina kuzatishiga ko'ra, demokratiyaga o'tish sharoitida ko'p millatli jamiyatlarda aynan OAVlar etnik asosdagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga yordam beradigan imkoniyatlarga ega. "To'rtinchi hokimiyat" sifatida o'z o'rnini topayotgan OAVlar o'zining yangi maqomi va rolini, ayniqsa etnik munosabatlar sohasida, anglashadi. Biroq, OAVlarning bunday jarayonlardagi roli salbiy bo'lishi mumkin. Bu holat OAVlar o'zining roli, ta'siri va resurslarini jamiyatni birlashtirishga emas, balki uni bo'lishish va parchalanishiga yo'naltirganida yuz beradi. Zamonaviy etnik ziddiyatlar yetakchilari o'z manfaatlarini himoya qilishda OAVlardan faol foydalanmoqdalar.

Qozog'istondagi zamonaviy axborot jarayonlarida uchta asosiy tendensiya mavjud, deb ta'kidlaydi maqola muallifi:

— OAVlarning davlatdan mustaqil rivojlanishi, davlatning ommaviy axborot vositalariga to'g'ridan-to'g'ri aralashmasligi, "jamiyat – OAV" munosabatlarining shakllanishi;

— Axborot makonining qonuniylashtirilishi, OAV faoliyatining huquqiy asoslarining shakllanishi, barcha masalalarning faqat sud tartibida hal qilinishi;

— Ko'plab OAVlarning tijoratlashuvi, foyda olishga intilish va reklama bozorining shakllanishi.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Bugungi kunda, demokratiyaga va erkin so'zga intilayotgan dunyoda, OAVlar eng keng tarqalgan va ko'pincha yagona axborot manbai bo'lib qolmoqda. Shuningdek, ularning bugungi imkoniyatlari ularga maxsus maqom va ta'sir, shu jumladan, siyosiy jarayonlarga, etnopolitik jarayonlarga ta'sir o'tkazish imkonini beradi. OAVlarning ijobiy roli etnik ziddiyatlarning mohiyati va oqibatlarini keng aholi o'rtasida tarqatishda namoyon bo'ladi. OAVlar etnik ziddiyatlarga qarshi oldini olish funksiyasini bajarishi mumkin.

Qozog'iston mustaqillikka erishganidan keyin mamlakatda milliy madaniyat, an'analar, tarix va tilga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi. Ushbu jarayon nafaqat qozoq xalqi orasida, balki o'zbek etnosi va boshqa milliy ozchiliklar vakillari

orasida ham yaqqol kuzatildi. Bu davrda milliy o‘zlikni anglash va mustahkamlash harakati kuchayib, milliy birlik va o‘ziga xoslikni saqlab qolish ehtiyoji yanada dolzarb masalaga aylandi.

Tadqiqotchi Yu. Balakinaning ta’kidlashicha, mustaqillikning dastlabki yillarida, ayniqsa 1992-1994-yillar oralig‘ida, Qozog‘istonda turli milliy madaniy uyushmalar tashkil etildi. Bu uyushmalar milliy madaniyat va an’analarni rivojlantirish, o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash va etnik guruhlar o‘rtasidagi birdamlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida faoliyat yurita boshladi. Garchi ba’zi etnik asosda tuzilgan tashkilotlar 1991-yildan avval ham mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, mustaqillik e‘lon qilinganidan keyin milliy uyg‘onish yanada jadallashdi. Ayrim etnoslar o‘z milliy identifikatsiya darajasining yuqoriligi va mustaqil madaniy uyushmalar yaratishga tayyorligi bilan ajralib turdi.

Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, etnopolitika nafaqat davlat siyosatining muhim yo‘nalishi, balki siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlar va madaniy uyushmalarning ham faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. U millatlararo munosabatlarni tartibga solish, etnik guruhlarining manfaatlarini himoya qilish va milliy siyosatning strategik yo‘nalishlarini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, mustaqillikdan keyingi davrda Qozog‘istonda etnopolitik jarayonlar faollashib, milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish bo‘yicha yangi tashabbuslar ilgari surildi.

Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, ilgari bostirilgan milliy faxr tuyg‘usi, ma’lum bir etnik madaniyatga, tilga mansub bo‘lish hissi o‘zining avvalgi ko‘rinishidan ham kuchliroq milliy his-tuyg‘ularga o‘z aksini topdi. Milliy qayta tug‘ilish jarayoni yangi suveren davlatlar uchun ijobiy jarayon hisoblanadi. Ammo, Qozog‘istondagi etnopolitika jarayonlarining ijobiy baholanishiga qaramasdan, etnopolitik jarayonlarda salbiy misollar ham mavjud. Yugoslaviya, Rossiya, Pridnestrovye, Kosova, hozirda esa Ukraina kabi joylarda etnik ziddiyatlar – bu urushlar natijasida bir vaqtlar do‘st bo‘lgan etnoslar o‘rtasidagi qonli mojaro vaqti-vaqti bilan yuz beradigan qonli ziddiyatlarning faqat bir qismi.

Tadqiqotchi Yu. Balakinaning fikricha, etnik omil millatning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlashda muhim rol o‘ynashi mumkin. Biroq, bu omil faqat demokratik muhitda konstruktiv kuchga aylana oladi. Demokratiya va huquqiy davlat tamoyillariga asoslangan jamiyatda etnik guruhlarining erkin rivojlanishi, ularning madaniy va ijtimoiy faolligini oshirish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Ochiqlik, bag‘rikenglik va madaniyatlararo hamkorlik muhiti mavjud bo‘lgandagina etnik omil jamiyatdagi ijtimoiy birlashuvni mustahkamlash, millatlararo totuvlikni ta’minlash va turli etnik guruhlar o‘rtasida yaqin aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday sharoitda har bir millat o‘zining madaniy, tarixiy va ijodiy salohiyatini erkin namoyon eta oladi, bu esa umummilliy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, etnik omilni jamiyat taraqqiyoti va

barqarorligining muhim omiliga aylantirish uchun demokratik qadriyatlar asosida siyosat yuritish zarur[3].

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Qozog‘istonning milliy davlat sifatida shakllanishi uning tarixiy va etnik asoslarini inobatga oladi. Mamlakat hududida kazaklarning etnik markazi mavjud bo‘lishi uning milliy o‘ziga xosligini ta‘minlovchi omillardan biri hisoblanadi. Biroq, zamonaviy Qozog‘iston faqat bitta etnik guruh manfaatlariga emas, balki jamiyatning barcha qatlamlariga xizmat qiluvchi davlat sifatida rivojlanmoqda. Qozog‘istonni milliy davlat deb belgilash, davlatning kimligini shakllantirish va milliy birlikni mustahkamlash yo‘nalishida muhim strategik qadamlardan biri bo‘ldi.

Ushbu yo‘nalishda 2015-yil 28-dekabrda Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining qarori bilan “Qozog‘iston kimligini mustahkamlash va rivojlantirish Konsepsiyasi” tasdiqlandi. Agar 1996-yilda qabul qilingan konsepsiya davlat kimligini shakllantirish masalalariga qaratilgan bo‘lsa, 2015-yilgi hujjatda asosiy e‘tibor jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hamjamiyat sifatida rivojlanishiga qaratildi. Bu konsepsiya Qozog‘iston xalqining yagona millat sifatida shakllanishini, turli etnik, madaniy, til va diniy guruhlarining umumiy qadriyatlar asosida birlashishini ko‘zda tutadi. Shuningdek, har bir fuqaroning, etnik kelib chiqishidan qat‘i nazar, o‘z kelajagini Qozog‘iston bilan bog‘lashiga urg‘u beriladi. Umumiy tarix, hozirgi davrning o‘ziga xos muammolari va kelajak oldidagi mas‘uliyat jamiyatni yanada mustahkam birlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi S. Sadykovning fikriga ko‘ra, Qozog‘iston matbuoti zamonaviy jamiyatni birlashtirishda muhim vositalardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Mustaqillikka erishgan yangi davlatlarda ko‘p millatli aholining umumiy kimlik atrofida birlashishi muhim vazifa sifatida ko‘riladi. Kazak xalqining etnik guruhini asos sifatida ko‘rish bilan birga, millatning umumfuqarolik konsepsiyasi ham shakllantirilishi lozim.

Davlat siyosati ushbu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, chunki u kazak elitesini rus tilida so‘zlashuvchi elita bilan muloqotga undash orqali jamiyatda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan qarama-qarshiliklarning oldini olishga intiladi. Maqsad – ijtimoiy va madaniy ziddiyatlarning keskinlashuviga yo‘l qo‘ymaslik, jamiyat barqarorligini ta‘minlashdir. Shu sababli, Qozog‘iston milliy kimligini shakllantirish jarayonida nafaqat etnik-madaniy konsepsiya, balki umumfuqarolik qadriyatlariga asoslangan model ham joriy qilinishi lozim. Jurnalistlar va ekspertlarning ta‘kidlashicha, davlat va jamiyat barqarorligini ta‘minlash uchun milliy fuqarolik kimligini mustahkamlash bilan birga, kazaklarning etnik-madaniy identifikatsiyasini ham qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Shu bois, Qozog‘istonning umumxalq g‘oyasi doirasida fuqarolik millati tamoyili kiritilishi zarur, chunki bu jamiyatdagi barcha fuqarolarni, ularning etnik kelib chiqishidan qat‘i nazar, o‘z mamlakatiga daxldorlik hissi bilan bog‘laydi[4].

Jurnalistlarning ta’kidlashicha, Qozog‘istonda yagona milliy identifikatsiya shakllanishi davlatni tashkil etuvchi asosiy etnik guruh – qozoqlar atrofida amalga oshmoqda. Bu jarayon mamlakatning etnik va fuqarolik konsepsiyalarini bir-biriga uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, qozoqlarning tarixiy va madaniy merosiga asoslangan holda yagona millat shakllantirishni maqsad qiladi.

Qozog‘iston mustaqillikka erishgach, milliy o‘zlik va identifikatsiya masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Davlat o‘zining milliy va fuqarolik konsepsiyalarini uyg‘unlashtirishga intilayotgan bir paytda, asosiy e’tibor jamiyatdagi barcha millatlar uchun umumiy bo‘lgan qadriyatlarni shakllantirishga qaratildi. Shu sababli, shakllanayotgan yagona xalqning xarakteri, avvalo, qozoqlarning etnik va tarixiy ildizlariga tayanadi. Bunday jarayon faqat qozoqlarning emas, balki mamlakatda yashovchi barcha millatlar manfaatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Bu borada OAV muhim rol o‘ynamoqda. Qozog‘iston matbuotida muntazam chop etilayotgan materiallar turli etnik guruhlariga o‘z milliy identifikatsiyasini saqlab qolish imkonini beribgina qolmay, ularning o‘zini yagona Qozog‘iston xalqining ajralmas qismi sifatida his qilishiga ham turtki beradi. Jurnalistlarning fikriga ko‘ra, milliy g‘oya konsepsiyasini shakllantirish va uni mamlakatda yashovchi barcha millatlar uchun umumiy qadriyatga aylantirish jamiyat barqarorligi va rivojlanishining muhim shartidir.

Davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat etnik xilma-xillikni fuqarolik millati doirasida uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu kelajakda Qozog‘istonning ijtimoiy-siyosiy birligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu ma’noda, fuqarolik millati konsepsiyasi nafaqat qozog‘istonliklarning umumiy kelajagini belgilovchi omil, balki mamlakatning demokratik rivojlanishiga xizmat qiluvchi strategik yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Bu jarayonda jamiyatdagi barcha milliy guruhlarining faolligi va ularning davlat tomonidan tan olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, davlat barqarorligi va rivojlanishi fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy birdamlikni ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois, jurnalistlar Qozog‘istonning milliy g‘oyasini shakllantirishda fuqarolik millati tamoyillarini hisobga olish zarurligini ta’kidlashadi. Bu yondashuv mamlakatda yashovchi barcha fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish bilan birga, ularning o‘z taqdirini Qozog‘iston bilan bog‘lashga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Qozog‘iston milliy identifikatsiya shakllanishi jarayonida fuqarolik va milliy o‘zlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga intilmoqda. Bu yo‘lda davlat siyosati, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy institutlarning o‘zaro hamkorligi muhim rol o‘ynaydi. OAV orqali olib borilayotgan targ‘ibot ishlari esa

nafaqat ijtimoiy konsolidatsiyaga, balki jamiyatning madaniy va etnik xilma-xilligini yanada boyitishga xizmat qilmoqda [5].

Qozog‘istonlik olimlarning ta’kidlashicha, «Qozog‘iston jamiyati» va «Qozog‘iston xalqi» tushunchalari bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ular vaqt, miqyos va ijtimoiy kontekst nuqtayi nazaridan bir-biridan farq qiladi. Bu farqlilik ularning identik tushunchalar emasligini anglatadi.

Qozog‘iston jamiyati tushunchasi XX asrda Qozog‘iston Rossiya bilan birlashgandan so‘ng shakllandi va asosan ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy tuzilma sifatida qaraladi. Bu tushuncha qisman millatlararo munosabatlardan ajralib turib, asosan ijtimoiy qatlamlar, iqtisodiy tizim va siyosiy institutlarning rivojlanishiga asoslangan.

Boshqa tomondan, Qozog‘iston xalqi tushunchasi esa deformatsiyaga uchragan sotsialistik davrda shakllana boshlagan bo‘lib, u davlatning milliy siyosatini amalga oshirish va jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu tushuncha, turli millatlarga mansub aholining yagona etnopolitik birlikka integratsiyalashuvini ifodalaydi.

Bu ikki tushunchani bir-biriga tenglashtirishga urinishlar tahlil jarayonining murakkablashishiga hamda noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Shunga qaramay, ularni mutlaqo alohida ko‘rish ham to‘g‘ri emas, chunki Qozog‘iston jamiyati Qozog‘iston xalqining shakllanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Suveren Qozog‘iston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, millatlararo tinchlik va barqarorlikni saqlash sharoitida etnopolitik jarayonlar faol rivojlanmoqda. Davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat turli millat vakillarining bir etnopolitik birlikka qo‘shilishiga zamin yaratmoqda. Shu bois, Qozog‘iston jamiyati va Qozog‘iston xalqining shakllanishi o‘zaro bog‘liq jarayon bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi va mamlakatning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi [6].

E.M. Esbolova o‘z maqolasida Qozog‘iston Respublikasining birinchi Prezidenti N.A. Nazarboyev tomonidan ilgari surilgan va amalga oshirilgan millatlararo va etniklararo kelishuv modeliga e‘tibor qaratadi. Ushbu model mustaqil Qozog‘istonning rivojlanish jarayonida o‘zining samaradorligini namoyon etib, mamlakatni modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynagan.

Mazkur modelning asosiy maqsadi – milliy barqarorlik va jamiyatda o‘zaro ishonch muhitini shakllantirish orqali turli etnik guruhlar o‘rtasida hamjihatlikni mustahkamlashdir. Qozog‘iston singari ko‘p millatli davlatda bu model ijtimoiy birlashuvni ta‘minlash vositasi sifatida xizmat qilib, davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Tahlillarga ko‘ra, mazkur kelishuv modeli bir necha asosiy omillarga tayanadi: Huquqiy asos – Qozog‘iston Konstitutsiyasida barcha millat vakillarining teng huquqliligi kafolatlangan. Institutsional yondashuv – 1995-yilda tashkil etilgan

Qozog‘iston Xalqi Assambleyasi millatlararo dialog va hamkorlik platformasiga aylandi. Til siyosati – Davlat tili sifatida qozoq tilining rivojlanishi bilan birga, boshqa tillarning saqlanishi va rivojlanishiga ham e‘tibor qaratilgan. Ijtimoiy integratsiya – Ta‘lim, madaniyat va axborot vositalari orqali ko‘pmillatli jamiyatning uyg‘un rivojlanishi rag‘batlantirilgan.

Bu modelning samaradorligi Qozog‘istonning milliy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish yo‘lida erishgan natijalarida ham namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli, ushbu yondashuv nafaqat Qozog‘iston ichkarisida, balki xalqaro miqyosda ham e‘tirof etilmoqda [7]. Qozog‘istonda yashayotgan turli etnik madaniy hamjamiyatlar yagona davlat-siyosiy va madaniy-tarixiy birligini tashkil etadi. Bu esa mamlakatning barqarorligini ta‘minlab, iqtisodiy taraqqiyot va xalq farovonligining o‘shishiga asos yaratadi. Tashqi siyosatda ko‘p vektorli va evroosiyo integratsiyasi yo‘li tanlandi. 2010 yilda Astana shahrida OBSE sammitining o‘tkazilishi, 2011 yilda Islom Hamkorlik Tashkilotida raislik qilishi, dunyo va an‘anaviy dinlar rahbarlarining Qozog‘istonda yig‘ilishlari, mintaqaviy integratsion birlashmalarni tashabbus etish — bularning barchasi Qozog‘istonning muloqot va hamkorlikka bo‘lgan sadoqatini namoyon etadi.

N.A. Nazarboyev tashabbusi bilan tashkil etilgan Qozog‘iston Xalqi Assambleyasi (QXA) mamlakatda millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlovchi muhim institutlardan biriga aylandi. Ushbu tizim barcha millat vakillarining manfaatlarini himoya qilish, milliy birdamlikni mustahkamlash va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Qozog‘istonning millatlararo munosabatlarni tartibga solish siyosati barcha fuqarolarning tengligini kafolatlash tamoyiliga asoslanadi. Mamlakatda diniy erkinlik, tillarning rivojlanishi va jamoat tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid huquqiy me‘yorlar ishlab chiqilgan. 1995-yilda qabul qilingan Konstitutsiya barcha fuqarolar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlaydigan asosiy hujjat hisoblanadi.

Til siyosati Qozog‘istonda ijtimoiy barqarorlik va milliy birdamlikni shakllantirishning muhim omillaridan biridir. 1997-yilda qabul qilingan qonunga binoan, qozoq tili davlat tili sifatida belgilandi, lekin rus tilining rasmiy idoralarda ham foydalanilishi qonuniy mustahkamlandi. Shu bilan birga, mamlakatda turli millat vakillarining tillari va madaniyatlarini rivojlantirishga e‘tibor qaratilgan. Hozirgi kunda 15 tilda gazeta va jurnallar chop etiladi, 11 tilda teleko‘rsatuvlar efirga uzatiladi, bu esa turli etnik guruhlarining o‘z madaniyatini saqlab qolishiga xizmat qiladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida milliy siyosat etnik yondashuvga tayanar edi, biroq vaqt o‘tishi bilan fuqarolik birlik tamoyili asosiy yo‘nalishga aylandi. 1995-yilgi Konstitutsiya millatidan qat’i nazar, barcha fuqarolarning yagona jamiyat

sifatida shakllanishiga yo'l ochdi. Shu asosda, Qozog'iston ko'p millatli bo'lishiga qaramay, yagona fuqarolik millatini shakllantirish yo'lidan bordi. Ushbu model barcha millatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va zamonaviy Qozog'iston jamiyatini bir butun xalq sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda [8].

Til masalasi jamiyat va OAV e'tiborining markazida turadi. Qozog'iston uchun, uning o'ziga xos etnik tarkibi bilan, til nafaqat alohida ahamiyatga ega, balki milliy suverenitet va davlatlilikni mustahkamlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli, til Asosiy qonun va Xalq Assambleyasining Milliy birlashuv doktrinasida strategiyasida ustuvor o'rinda turadi.

S.N. Mamitova Asambleya xalqining Qozog'istondagi davlat dasturlarini amalga oshirishdagi rolini, shuningdek, millatlararo munosabatlar modelini takomillashtirishda ilmiy va ekspert jamoatchiligini jalb qilishni va yuqori o'quv yurtlarida ANK kafedralarini tashkil etishni ko'rsatadi [9].

Qozog'istonning ko'pmillatli tarkibi mamlakatning ijtimoiy va madaniy yangilanish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Asrlar davomida turli etnik guruhlar o'rtasida barqaror hamkorlik, o'zaro hurmat va bag'rikenglik tamoyillariga asoslangan boy tajriba shakllandi. Bu tajriba mustaqillik yillarida yuzaga kelgan muammolarni yengishda muhim rol o'ynadi.

Sovet Ittifoqi parchalangach, avvalgi kommunistik qadriyatlar tizimi inqirozga uchradi, natijada jamiyatning ayrim qatlamlari o'z tarixiy merosini anglashda qiyinchiliklarga duch keldi. Biroq, Qozog'istonda avvaldan shakllangan millatlararo totuvlik va madaniy xilma-xillikni qadrlash an'analari ushbu o'tish davrini yumshatishga xizmat qildi.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyatga integratsiyalash jarayoni jadallashgan holda davom etmoqda. Ayniqsa, yosh avlod zamonaviy texnologiyalar va global madaniy tendensiyalar ta'sirida rivojlanayotgan bo'lsa-da, ba'zan ular milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik bilan qarash holatlari ham kuzatilmoqda. Ushbu jarayonda G'arbning ommaviy madaniyati ba'zi yoshlarning milliy merosga nisbatan befarqlashishiga olib kelmoqda.

Shu sababli Qozog'istonda "Ruhani yangilanish" (Ruhani Jang'iru) davlat dasturi amalga oshirilmoqda. U milliy o'zlikni saqlash, madaniy va ma'naviy merosni rivojlantirish, shuningdek, jamiyatning yangilanishi va taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan muhim tashabbuslardan biri hisoblanadi [10].

Qozog'iston Xalq Assambleyasi (QXA) milliy o'ziga xoslikni saqlash, ma'naviyatni tiklash va jamiyatni birlashtirishda muhim rol o'ynaydi. U turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etib, Qozog'iston xalqining boy tarixiy merosini o'rganish va targ'ib qilishga xizmat qiladi.

2009-yildan boshlab, QXA tarkibida ilmiy-ekspert guruhlari faoliyat yurita boshladi. Ushbu guruhlar millatlararo munosabatlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, jamoatchilik fikrini monitoring qilish hamda davlatning etnopolitikasi samaradorligini oshirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Bu borada oliy ta'lim muassasalari asosiy ilmiy markaz sifatida xizmat qiladi va ularning qoshida QXA kafedralari tashkil etiladi. Tadqiqot natijalari esa ta'lim va tarbiya jarayoniga integratsiya qilinmoqda.

Shu bilan birga, millatlararo munosabatlar sohasida hali to'liq hal etilmagan muammolar mavjud. Maqola muallifi ta'kidlaganidek, QXA deputatlari, ilmiy ekspertlar hamda etnokultural va yoshlar tashkilotlarining salohiyati hanuz to'liq ishga solinmagan. Bu borada mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish jamiyatni yanada uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi. V. Ovchinnikov Qozog'istonda etnokonfessiyaviy kelishuv modelining yaratilishi va uning faoliyatining tendensiyalarini va xususiyatlarini o'rganadi. Maxsus modelni ishlab chiqish, post-Sovet davrida aholining etnik va diniy tarkibining o'zgarishi, davlatning ko'p millatli va ko'p konfessiyali xususiyati kabi omillar bilan bog'liq edi [11].

SSSRning parchalanishidan so'ng, Qozog'istonda, boshqa sobiq ittifoq respublikalari kabi, diniy e'tiqodlarga nisbatan fuqarolarning qiziqishi oshdi. Mustaqil davlat sifatida oldinga qo'yilgan vazifalar milliy va ruhiy birlikni mustahkamlash, islomning qayta tiklanishida "diniy siyosatning" oldini olish edi.

Mavjud qonunchilikdagi bo'shliqlar va davlat nazoratining yetarli darajada yo'qligi etnokonfessiyaviy muvozanatni saqlash jarayoniga qiyinchiliklar tug'dirdi. Xorijdan qo'llab-quvvatlanayotgan diniy tashkilotlarning faoliyati kuchaydi, missionerlik harakatlari faollashdi. Ayniqsa, yoshlar orasida turli diniy oqimlarning ta'siri sezilarli darajada oshdi. Bu holat jamiyat barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi sababli, diniy tashkilotlarning faoliyatini tartibga solish va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda [12].

Qozog'istonning etnokonfessiyaviy kelishuv modeli dunyoviy davlat tamoyillariga asoslanib, diniy tashkilotlar bilan doimiy hamkorlik qilish tizimini o'z ichiga oladi. Ushbu model jamiyat va siyosiy rivojlanishning muhim masalalarida davlat va diniy tuzilmalarning o'zaro aloqalarini muvozanatli yo'lga qo'yishga qaratilgan. Uning huquqiy asosi Konstitutsiya va tegishli normativ hujjatlar bilan mustahkamlangan bo'lib, barcha diniy birlashmalarga teng huquqlar berish va davlat hamda diniy tashkilotlar o'rtasida mustaqillikni ta'minlash asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi [13].

1993-yilda Konstitutsiyaga diniy adovatni targ'ib qiluvchi yoki shu tamoyillarga asoslangan tashkilotlar faoliyatini cheklovchi norma kiritildi va bu 1999-yilda yana tasdiqlandi. 1995-yilda millatlararo siyosatni muvofiqlashtirish maqsadida Prezident huzurida Qozog'iston Xalq Assambleyasi tashkil etildi (2007-yildan boshlab

Qozog‘iston Xalq Assambleyasi). 1996-yilda esa Prezident huzurida Diniy ishlarga mas’ul kengash faoliyat boshladi. Diniy tashkilotlar bilan hamkorlik va muvofiqlashtirish masalalari Axborot va ijtimoiy kelishuv vazirligi doirasida hal etila boshlandi. Shuningdek, davlat rasmiy ravishda musulmon diniy tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlashni kengaytirishga e’tibor qaratdi [14].

Rus pravoslav cherkoviga (RPC) Qozog‘istonda etnokonfessiyaviy kelishuv modelini yaratishda o‘ziga xos o‘rin ajratildi. 2012-yilga kelib, Qozog‘istonda 271 ta RPC diniy birlashmasi faoliyat yuritgan, shu jumladan respublikaning diniy birlashmasi – Mitropolichiy okrug va 9 ta eparxiya, 261 ta ibodatxona mavjud edi. 2000–2018-yillar davomida Qozog‘istonning Pravoslav cherkovi davlat bilan ishonchli hamkor sifatida o‘zini ko‘rsata boshladi [15].

2000–2010 yillarda Qozog‘istonda an’anaviy va yangi diniy tashkilotlarning o‘shishi kuzatildi, bu esa mamlakatda diniy sohani boshqarish mexanizmlarini yangilash zaruratini ko‘rsatdi. 2011 yilgi protest voqealari diniy faoliyatni tartibga solishning yangi huquqiy asosini yaratishni talab qildi. Davlatning diniy faoliyatni tartibga solishdagi roli kuchaygani sari yangi huquqiy bazalar shakllantirilib, diniy tashkilotlar qayta ro‘yxatdan o‘tkazildi. Natijada, tarixiy jihatdan Qozog‘iston hududidagi islomning xususiyatlarini inobatga olib, Sunniy islomni targ‘ib qiluvchi yagona islom tashkiloti tashkil etildi. Rasmiy islomni Qozog‘iston musulmonlari ruhoniylar boshqarmasi (DUMK) taqdim etadi. Shu vaqtdan boshlab, hukumat Qozog‘istondagi Rossiya pravoslav cherkovi tuzilmalarini "Qozog‘iston pravoslav cherkovi" deb atay boshladi [16].

Jamiyatning etnik tarkibi uning diniy tuzilmasini shakllantirgan. Fuqarolarning asosiy diniy o‘zini anglash turlari islom va nasroniylik bilan bog‘liq. An’anaviy ravishda eng ko‘p tarqalganlari xanafiy islom va pravoslav nasroniylikdir. Mamlakat fuqarolarining 81%i o‘zini imonli deb hisoblaydi, 19%i esa ateist yoki agnostik sifatida o‘zini tanitadi. 2011 yildan keyin qabul qilingan choralarga qaramay, 2015–2016 yillarda siyosiy va diniy sohalarida vaziyat kuchayib, boshqa davlatlar ichki diniy jarayonlarga aralashishni boshladi. 2016 yildagi "davlat to‘ntarishi"ga urinish va terrorizm xavfi oshgani sababli diniy qonunchilikni "qattiqlashtirish" choralari ko‘rildi. Davlatning pozitsiyasi ikki asosiy hujjatda aks etdi: 2013–2017 yillarda Qozog‘istonda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturi va 2017–2020 yillarga mo‘ljallangan Qozog‘iston Respublikasining diniy sohada davlat siyosati konsepsiyasi. 2016-yilda prezidentlik farmoni bilan Diniy ishlari va fuqarolik jamiyati vazirligi tashkil etildi [17].

Qozog‘istonning etnik-konfessional kelishuv modelini qurish jarayoni diniy sohada "qattiq" boshqaruvdan yanada moslashuvchan mexanizmlar va shakllarga o‘tishni o‘z ichiga oldi. Qozog‘iston rahbariyati davlat va jamiyat rivojini ta’minlash, yangi fuqarolik-milliy identifikatsiyani shakllantirish va asosan islomning

qadriyatlariga asoslanib, ekstremist kuchlarni yo‘q qilish, interetnik va interkonfessiyaviy kelishuvni buzuvchi kuchlarga qarshi kurashish vazifasini oldinda turadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko‘ra, Qozog‘istonda aholining taxminan 75%i o‘zini imonli deb hisoblaydi, 94,9% fuqarolar etnik vaziyatni ijobiy baholaydi va 94,5% o‘zini yagona Qozog‘iston xalqining bir qismi deb hisoblaydi. Davlatning etnik munosabatlar sohasidagi siyosati 95,7% fuqarolar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi, boshqa etnik guruhlariga nisbatan tolaranslik darajasi 83,7% ni tashkil qiladi. Bu tadqiqotchiga Qozog‘istonning etnik-konfessiyaviy davlat siyosatining ijobiy natijalari va uning muvaffaqiyatli amalga oshirilganligini xulosa qilish imkonini beradi[18].

- **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Ommaviy axborot vositalari (OAV) etnik munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. OAV resurslari barcha tomonlar, ya'ni rasmiy hokimiyat, turli siyosiy kuchlar uchun qiziqarli bo'lib, ular boshqa etnik guruhlar bilan hamkorlik qilish yoki ziddiyatlarni keltirib chiqarish niyatida bo'lishi mumkin. Hozirgi bosqichda OAV va siyosiy hokimiyat o'rtasidagi hamkorlik, interetnik muammolarni hal qilishda sezilarli darajada kengaydi. Bugungi kunda siyosiy muzokaralar, uchrashuvlar, bahslar orqali etnik munosabatlardagi kelishmovchiliklarni hal etish jarayonida OAVning resurs imkoniyatlaridan samarali foydalanilmoqda.

Polietnik jamiyatda tinchlik va kelishuvni saqlash alohida muhim ahamiyatga ega, ayniqsa bu post-sovet hududlaridagi yangi demokratik davlatlar uchun juda dolzarb. OAVning tinch interetnik munosabatlarni shakllantirishga ta'siri, demokratizatsiya jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi, bu esa ko‘plab post-sovet respublikalari, jumladan Qozog‘iston uchun ham dolzarbdir. OAV orqali polietnik jamiyatda tinch birgalikda yashashni qo‘llab-quvvatlash, yoki etnik nizolarni kelib chiqishiga asos yaratish mumkin, bu esa davlat asoslarini buzuvchi omil bo‘lishi mumkin.

Faqat OAV o‘zi emas, balki etno-siyosiy jarayonlar, rasmiy etno-siyosat ham OAVning mazmuniga ta'sir ko'rsatadi. Etnik jihatdan polarizatsiya qilingan jamiyatda adolatsiz etnik siyosat olib borilgan taqdirda, OAV bu qarama-qarshiliklarni o‘zida aks ettiradi. OAV bu muammolarni yanada chuqurlashtirishi yoki ularni samarali hal qilishga yordam berishi mumkin.

Davlat har doim muhim demokratiya qadriyatlarini, masalan, so‘z erkinligini ta'minlash va shu bilan birga etno-siyosiy jarayonlarni polietnik jamiyatlarda uyg‘unlashtirish vazifasini bajarish zaruriyatida bo‘ladi. Shu sababli, davlat OAV faoliyatidan chetda qolishi mumkin emas, bu jarayonni tartibga solish va nazorat qilish davlatning etnik kelishuvni saqlash va davlatning o‘zi hayotiyligini ta'minlash uchun zarur hisoblanadi.

Bugungi kunda OAV siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandi, shu jumladan etno-siyosat sohasida. OAV endi faqat ma'lumot berib qolmaydi, balki stereotiplar yaratish va odamlar ongini manipulyatsiya qilish imkoniyatiga ega, shu jumladan interetnik munosabatlar sohasida ham. Bunday ochiq manipulyatsiyalarni destruktiv siyosiy kuchlar, ichki va tashqi oppozitsiya guruhleri amalga oshirishi mumkin. Ular ko'p millatli davlatlarda etnik tinchlikni buzib, o'z siyosiy maqsadlariga erishish uchun davlatning butunligiga zarar yetkazishga intilishlari mumkin.

Shunday qilib, tadqiqotchilar ta'kidlaydiki, zamonaviy OAVlar etno-siyosiy, ijtimoiy va boshqa jarayonlarga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan muhim siyosiy institutlardir. OAV, zamonaviy jamiyatning ajralmas qismi sifatida, o'z ta'sirini jamoatchilik fikriga yoyishga intilib, yangi haqiqatlarni shakllantirib, mavjudlikni o'zgartiradi. Bundan tashqari, polietnik jamiyatlarda OAVlar mamlakatning barcha fuqarolarini birlashtirish jarayonida ijobiy rol o'ynashi mumkin. Siyosiy manfaatlar umumiyligini targ'ib qilib, tinch birgalikda yashash g'oyalarini yoyish orqali OAVlar etnik kelishuvni saqlashga ta'sir qiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Балакина Ю.А. Политико-информационный аспект формирования региональной идентичности Республики Казахстан // Век информации (сетевое издание). Санкт-Петербург, 2018 С. 95.
2. Boykoff, M. T., & Boykoff, J. M. (2004). Balance as bias: Global warming and the US prestige press. *Global Environmental Change*, 14, 125-136. <https://doi.org/10.1016/j.gloenvcha.2003.10.001>
3. Балакина Ю.А. Политико-информационный аспект формирования региональной идентичности Республики Казахстан // Век информации (сетевое издание). Санкт-Петербург, 2018 Т. 2, № 4 (5). С. 45.
4. Мамытова С.Н. Роль Ассамблеи народа Казахстана в возрождении духовного наследия и единения нации // Казахи в евразийском пространстве: История, культура и социокультурные процессы: сб. науч. тр. по материалам II Международной науч.-практич. конф. Павлодарский гос. ун-т, 2019 С. 87–89.
5. Овчинников В.А. Казахстанская модель этноконфессионального согласия // Вестник Томского гос. ун-та. История. Этнодемография. 2019 С. 128–137.
6. Садыков С. Казахстанская журналистика: Национальная идея. <https://esaconference.ru/wp-content/uploads/files/pdf/Sadykov-Sejdulla.pdf>
7. Есполова Э.М. Казахстанская модель межэтнического и межнационального согласия // Социальная интеграция и развитие этнокультур в евразийском пространстве. Алматы, 2019 Т. 2, № 8. С. 75.

8. Казахстанские партии, НПО и СМИ// [www.kazakhstan.orexca.com...kazakhstan\\_political](http://www.kazakhstan.orexca.com...kazakhstan_political) С. 98.
9. Мамытова С.Н. Роль Ассамблеи народа Казахстана в возрождении духовного наследия и единения нации // Казахи в евразийском пространстве: История, культура и социокультурные процессы: сб. науч. тр. по материалам II Международной науч.-практич. конф. Павлодарский гос. ун-т, 2019
10. СМИ и Интернет. // [www.kazakhstanlive.ru/country/soc/smi/](http://www.kazakhstanlive.ru/country/soc/smi/)
11. Овчинников В.А. Казахская модель этноконфессионального согласия // Вестник Томского гос. ун-та. История. Этнодемография. 2019. С. 150.
12. Романова Н. В. Модернизационный импульс демократического развития Республики Казахстан //Analytic, 2010. № 6. С. 141-145.
13. Шабров О. Ф. Политическое управление: проблема стабильности и развития. – М.:ИНТЕЛЛЕКТ,1997. С 78.
14. Булуктаев Ю., Чеботарев А. Политические партии Казахстана: год 2004. - Справочник. - Алматы: «Комплекс». - 2004.С 62.
15. Михайлова О. Конституция Республики Казахстан в действии, Владимир Ким интервью // «Заң және заман». – №8 (54). – 2004. – 3-6 с
16. Темиргалиев М.М. Основные направления государственной политики в области создания и распространения массовой информации в Республике Казахстан. // Журнал «ВЕСТНИК КазНУ», № 3 (28). Алматы: Издательство «Қазақ университеті», 2003 – С. 57-61
17. Концепция правовой политики Республики Казахстан 2002 г. // Собрание актов Президента Республики Казахстан и Правительства Республики Казахстан. – Астана, 2002. – С. 57-61
18. Нысанбаев А. О формах взаимодействия институтов гражданского общества с государственными органами в Республике Казахстан // Информационно-аналитический журнал «Саясат». – № 7/02 – № 7/02. – С. 48.

## TURKISTONDA JADID YANGI USUL MAKTABLARI VA HOJI MUIN SHUKRULLO O‘G‘LINING MAORIF SOHASIDAGI ISHLARI

**Temirov Rahmatulla Ismatulla o‘g‘li**

BuxDPI “Pedagogik ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi

[temirovrahmatulla@gmail.com](mailto:temirovrahmatulla@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turkistonda Jadid yangi usul maktablari va Hoji Muin Shukrullo o‘g‘lining maorif sohasidagi ishlari rivoji uchun qilgan sa’yi harakatlari haqida fikr, mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Usuli jadid, milliy matbuot, tatbiqoti diniya, maktabdor, usuli qadim, tayoq, taraqqiyparvar.

**Аннотация:** В статье рассматриваются джадидские новометодные школы в Туркестане и усилия Гаджи Муина Шукрулло оглу по развитию своей деятельности в области образования.

**Ключевые слова:** Новый метод, национальная пресса, религиозное применение, школьный учитель, старый метод, палка, прогрессивный.

**Abstract:** This article discusses the Jadid new method schools in Turkestan and the efforts of Haji Muin Shukrullo oglu to develop his work in the field of education.

**Keywords:** New method, national press, religious application, schoolmaster, ancient method, stick, progressive.

### **Kirish**

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida ta’lim tizimida yangiliklar va islohotlar yuz berdi. Markaziy Osiyo pedagogikasi tarixida yangi usul maktabi tarafdorlarining ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, badiiy-adabiy, tarixiy va pedagogik asarlarida aks ettirilgan. Yangi usul maktabi tarafdorlarining pedagogik, ayniqsa, axloqiy tarbiyaga doir merosini o‘rganishda ular tomonidan yozilgan darsliklar muhim o‘rin egallaydi.

Jadidchilik harakati mamlakatda madaniy va ma’rifiy o‘zgarishlarni olib keldi. Ayniqsa, Jadid yangi usul maktablari o‘qitish metodikasida yangicha yondashuvlarni taklif etdi. Bu maktablarda o‘quvchilar nafaqat diniy bilim, balki zamonaviy fanlar va tillarni ham o‘rganishga katta e’tibor qaratildi. Shu jarayonda Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li o‘zining maorif sohasidagi faoliyati bilan ajralib turdi.

Ushbu maqolada Turkistonda Jadid yangi usul maktablarining tashkil etilishi va faoliyati, shuningdek, Hoji Muin Shukrullo o‘g‘lining ta’lim sohasidagi ishlari tahlil qilinadi.

### **Metodologiya**

Jadidchilik harakatining asosiy g‘oyasi avvaliga madaniyat sohasidagi harakat tarzida namoyon bo‘lib, ijtimoiy hayotning taraqqiyoti uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillarning adabiyotni shakllantirish va boyitish, dunyoviy ilmlarni chuqurroq o‘zlashtirish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi muammolari uchun kurashishga da‘vat qilganlar. Tadqiqot asosan tarixiy hujjatlar, arxiv ma‘lumotlari, oldingi tadqiqotlar va ilmiy maqolalar asosida olib borildi. Turkistonda Jadid maktablari haqida yozilgan manbalar va Hoji Muin Shukrullo o‘g‘lining biografiyasi tahlil qilindi.

Hoji Muin 1883-yil 19-martda Samarqandda tug‘ilgan. Ota-onasidan erta yetim qolgan yosh Muin bobosining tarbiyasiga o‘tadi. Bu davrda xat-savod chiqarishga ulgurgan Muin keyinchalik arab tili qoidalarini va diniy ilmlarni puxta o‘rgana boshlaydi. O‘sha davr taniqli ziyolilaridan bo‘lgan Sayidahmad Vasliy bilan tanishishi Hoji Muinning kelajakdagi faoliyati uchun ijobiy muhit yarata oldi. Vasliy unga arab tili qoidalarini o‘rgatish bilan birga she‘riyatga oshno qiladi va o‘z davrining taraqqiyparvarlari davrasiga olib kiradi.

Hoji Muin dastlab eski maktabda muallimlik qiladi. Abduqodir Shakuriyning yangi usul maktabi ta‘sirida 1903- yili o‘z maktabini ochadi. U ilk marta ustoz S. Vasliy xonadonida Turkiston jadidlarining otasi M. Behbudiy bilan ko‘rishadi va bu uchrashuv Hoji Muin hayotida yangi davr boshlanishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, Behbudiyning “Muxtasari jug‘rofiyayi umumiy” nomli asari Hoji Muinda juda katta taassurot qoldiradi. Keyinchalik bir maqolasida shunday xotirlaydi: “Shuni unutmamankim, mazkur jug‘rofiya kitobining “Tatbiqoti diniya” faslinda: “Ba‘zi eski xurofot va isroiliyat so‘zlari bizning tafsir kitoblarimizgacha kirib ketgan” mazmunidagi jumlar o‘shal vaqtda manim fikrimda zo‘r o‘zgarishlar yasadi. Ya‘ni, o‘sal jumla meni birinchi daf‘a fikriy inqilobg‘a uchratdi. ...Men mazkur tarixdan e‘tiboran Behbudiy afandig‘a chin ko‘ngil ila muxlis bo‘lg‘animdek, o‘shal vaqtdan boshlab mavqeyi kelganda oni mudofaa etaturg‘on bo‘ldim”[1]

1907-1937-yillar davomida 23 xil gazeta va jurnallarda 200 tacha maqola, 400 tacha xabar hamda 1500 misraga yaqin o‘zbek va tojik tillarida yozilgan she‘rlari bilan faol qatnashganini o‘z kundaliklarida yozib qoldirgan. Hoji Muindan biografik mazmundagi va o‘sha davr dolzarb mavzulariga doir maqolalar, hajviyalar va “Eski maktab, yangi maktab”, “Mazluma xotun”, “Ko‘knori ” kabi dramalar adabiy meros sifatida qolgan.

Hoji Muin tarjimon sifatida ham samarali mehnat qilgan. Turk tilidan ham

“Xulosai qavoidi forsiy” ni, forschadan Fitrat qalamiga mansub “Buxoro sayohati “ asarini ni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. “Chaqirilmagan qo‘noq “ hikoyasi chop etilmagan asarlari sirasiga kiradi. Bu asarlarning ayrimlari yo‘qolgan.

1915-yili Hoji Muin boshlang‘ich maktablarning 3-sinfi uchun zamondosh Turkiston shoirlari she‘rlaridan „Yangi adabiyot“ majmuasini tuzadi.

“Mazluma xotun”, “Ko‘knori”, “To‘y” sahna asarlarida xalq orasida urfga kirib qolgan yomon odatlar qoralanadi.

Tadqiqotda sifatli metodlar qo‘llanilib, tarixiy-kontekstual tahlil asosida voqealar va shaxslar faoliyati o‘rganildi.

### **Natijalar**

Turkistonda Jadid maktablari 1900-yillarning boshlarida paydo bo‘lib, ular an’anaviy maktablardagi ta’lim usullaridan sezilarli darajada farq qildi. Yangi usul maktablarida arab yozuvidagi diniy matnlar bilan bir qatorda, zamonaviy fanlar, rus va fors tillari o‘rgatildi. Bu maktablarda o‘qituvchilar o‘quvchilarga tanqidiy fikrlashni, muammolarni mustaqil hal etishni o‘rgatishga harakat qilishdi. Kurbanov (2005) ta’kidlaganidek, Jadid maktablari o‘quvchilarga zamonaviy bilimlarni o‘rgatishda katta rol o‘ynadi.[2]

Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li esa o‘zining maorif sohasidagi faoliyati bilan turli maktablarning tashkil etilishiga yordam berdi, yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqdi va maktablar uchun zarur bo‘lgan adabiyotlarni yaratdi. U o‘quvchilar bilimni oshirish uchun innovatsion metodlarni joriy etdi, shuningdek, maorif sohasida pedagogik kadrlarga malaka oshirish bo‘yicha ham ishlar olib bordi.

### **Munozara**

Jadid yangi usul maktablari Turkistonda ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirishga sabab bo‘ldi. An’anaviy diniy ta’limdan zamonaviy fanlar va tillarga o‘tish, yangi usullarni joriy etish ta’lim sifatini yaxshiladi va ma’rifatparvarlikni oshirdi. Hoji Muin Shukrullo o‘g‘lining faoliyati bu jarayonda katta ahamiyatga ega bo‘lib, u pedagogika sohasida islohotlar olib kirish va o‘quvchilarning keng bilim olishini ta’minlashga katta hissa qo‘shdi.

Shuningdek, Jadid maktablarining faoliyati mahalliy jamiyatda madaniy uyg‘onishga sabab bo‘ldi. Ular yosh avlodda milliy ong va zamonaviy bilimlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qildi. Bu esa, o‘z navbatida, keyingi davr maorif tizimining shakllanishiga zamin yaratdi.

### **Xulosa**

Turkistonda Jadid yangi usul maktablari maorif tarixida muhim burilish nuqtasi bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimining poydevorini tashkil etdi. Hoji Muin Shukrullo o‘g‘lining pedagogik faoliyati esa ushbu jarayonni yanada rivojlantirdi. Uning yangi metodlarni joriy etishi va ta’lim sifati yaxshilanishiga ko‘rsatgan ta’siri hozirgi kunimizga qadar ta’lim sohasidagi izlanishlar uchun namuna bo‘lib xizmat qilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar: B.Do‘stqorayev, N.Namozova; Tanlangan asarlar//Xoji Muin; to‘ldirilgan 2- nashr-T.:Ma’naviyat,2010

2. Kurbanov, I. (2005). Turkiston jadid maktablari tarixi. Toshkent: Maorif nashriyoti.
3. Abdullaev, S. (2010). Jadid harakati va maorif tizimidagi yangiliklar. O‘zbekiston tarixi jurnali, 3(4), 45–58.
4. Mirzayev, R. (2012). Hoji Muin Shukrullo o‘g‘lining maorifdagi faoliyati. Madaniyat va Ma’rifat, 7(2), 32–40.
5. Sayfiddinov, T. (1999). Turkistonda yangi usul maktablari: tarix va taraqqiyot. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Kadirov, N. (2018). Jadid pedagogikasi: o‘quv dasturlari va usullari. Pedagogika va jamiyat, 12(1), 75–89.
7. O. Hasanboyev, J. Hasanboyev, J. Hamidov “Pedagogika tarixi”, T.: O‘qituvchi. 1997
8. Qosimov B., Dolimov U. Ma’rifat darg‘alari. Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
9. library.ziyonet.uz
10. [www.jadid.uz](http://www.jadid.uz)

## DINIY E'TIQOD TUSHUNCHASINI ILMIIY TAHLILI

**Tuycheyiva Nigina Ulug'bek qizi**

**Egamnazarova Navro'za Olladustov Ollanazar qizi**

SHDPI Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada diniy e'tiqod tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va inson hayotidagi o'rni tahlil qilinadi. Diniy e'tiqod insonning ma'naviy va axloqiy qarashlarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, turli dinlar va madaniyatlar kontekstida muhokama etiladi. Tadqiqotda diniy e'tiqodning individual va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, shuningdek, diniy bag'rikenglik, erkinlik va diniy qarashlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy dunyoda diniy e'tiqodning turli ko'rinishlari, uning o'zgaruvchanligi va globalizatsiya jarayonlaridagi o'rni haqida ham fikr yuritiladi. Ushbu ish diniy e'tiqod tushunchasini ilmiy-nazariy asosda tahlil qilish bilan birga, uning inson hayoti va jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatini chuqur anglashga yordam beradi.

**Kalit so'zi.** diniy e'tiqod, din, e'tiqod erkinligi, ma'naviyat, axloq, jamiyat, bag'rikenglik, diniy qarashlar, globalizatsiya, ijtimoiy ta'sir.

Diniy e'tiqod – insonning dinga bo'lgan munosabatini belgilashda qo'llaniladigan tushuncha. Diniy e'tiqod erkinligi O'zR Konstitutsiyasining 31-moddasida mustahkamlangan. Unda quyidagi qoida bayon etilgan: «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirish yo'l qo'yilmaydi». Shuningdek, 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan, 1998 yil 1 mayda o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilib, yangi tahriri tasdiqlangan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunda ushbu konstitutsiyaviy qoida rivojlantirilgan. Chunonchi, Qonunning 5-moddasida shunday deyiladi: «O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi». Shuningdek Qonunning 3-moddasida «Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligi huquqidan foydalanadilar hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladilar» deyilgan. E'tiqod — dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik iqtisodiy va ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga bo'lgan ishonch. E'tiqod — dunyoqarash shaxs, jamoa, guruh va jamiyat a'zolarini ma'lum bir g'oya, ta'limot, yoki dinga qat'iy ishonish asosida uni haq deb bilib, shu ta'limot

to‘g‘risidagi tasavvur va bilimlarni tashkil qiladi. Inson shu g‘oyani yoki dinni o‘zining faoliyat dasturi deb hisoblaydi.

E‘tiqod - ajratib turuvchi tur yoki toifaga bo‘lishda qatnashadi. Har bir mavjudot o‘z hududi maydonida boshqa hududdan farq etish uchun turli belgilarni shakllantirishadi. Misol tariqasida odamlarni umumiy lashtirish xizmat ko‘rsatishga uringan diniy e‘tiqod: Odamlarni ezgulikga da‘vat etuvchi Xristian e‘tiqodi insoniylikga — mexribon, tushunishni biladigan, hamdard, tabiatni sevuvchi qalb egasi. Hudojo‘ylik. Xristian e‘tiqodi ya‘ni Isus Xrista bilan bog‘liq bo‘lgani uchun Hudoga ishonish Xristos deyiladi. Xristianlar hochga qoqilgan Isus Xristning o‘limida sodir bo‘lgan zilzilada qirollik taxtiga ikkiga bo‘lingandan so‘ng ishonch uyg‘onib sig‘inadilar. Ma‘lum vaqtga hayvonlar insoniylikga chorlagan Iso Masixning Hudoga ishonish davati boshqa turli dinlarda raqobatga aylanib odamlar orasida dinlar yanada jiddiy tarzda niqoblar ko‘rinishida "Troya oti" bo‘lib xizmat qilishni boshladi. Isus Xrist yaxshi odamlar uchun Inson ko‘zgusi xisoblanadi va shu sababli hoch ramzida dini ko‘rsatiladi.

Ikkinchi e‘tiqod O‘rta Osiyoda Isus Xrist tarixidan so‘ng yangi e‘tiqod turi Islom dini Muhammad payg‘ambar ostida boshlanadi. Arab podshohlari Xristian e‘tiqodi kirib kelmasligi uchun Islom dinini butun Osiyoga yoyishadi. Xristian va Islom dini bir-biriga o‘xshash har ikki din ham Hudo borligiga ishonishadi. Lekin Buyuk Britaniya ilmiy axborot jurnali „Scinise“ 2008-yilda Islom dini vakillari Xristian e‘tiqodi odamlarini ko‘p qoralashlarini yozib o‘tilgan. Bu holat aynan Hudo o‘g‘li va hochga qoqilgan Isus Xrista bilan bog‘liqligi gapirilgan. Unga ko‘ra: Xristianlar Hudoga emas Isus Xristga sig‘inishadi. Jon MakArtur shu savolga shunday javob bergan: Isus Xrist Hudoga ishonish nima ekanligini anglatib berdi va Isus Xrist insonlarning inson ekanligimizni ko‘rsatuvchi yuzimizdur. Hudo bizga o‘z elchilarini payg‘ambarlarni yubordi, Hudo bizni shu payg‘ambarlardek bo‘lishimizni istaydi hayvonga o‘xshab bir-birimizga raqib bo‘lishimizni emas, deb javob beradi. E‘tiqod erkinligi butun jahon jamiyatida qonunan ximoya qilinadi, unga ko‘ra: har qanday e‘tiqod vakili jamiyatga zararsiz shaxs bo‘lsa uning e‘tiqodi jinoyat deb hisoblanmaydi. Etiqod o‘rtasida qo‘zg‘olon judayam ko‘p uyushtirilgan va bu hali ham davom etmoqda. 1571-yilda Amerika va Yevropa hududlarida Anarxistlar ikki tur e‘tiqodchilarni protestant va katoliklarni bir-birilariga gij-gijlash orqali urush keltirib chiqarishgan ayni shu holat Arab podshohligida ham kuchli avj olgan, Adolf Gitler dunyoni egallash uchun fashezmi nomi ostida yaxudiy larni yo‘q qilish kabi bi‘tatlar bilan urush o‘chog‘ini yoqadi, Saudiya, Iroq va boshqa ayrim musulmonchilik partiyalari islomni ximoya qilish orqali urush boshlamoqda. Shunga o‘xshash urushlar orasida dinini targ‘ib qilish, himoyalash kabi mantiqsiz qon to‘kilishlar ko‘p sodir etilgan sababli ham demokratiya tizimi davlatlarda yanada kengaytirilgan.

E'tiqod tarqalishi - e'tiqodsiz xalqni o'zi yo'q, e'tiqod turi insonlar uchun jumboq savollarga asosan "nima uchun" va „qanday yaralgan“ kabi so'zlarga qarab e'tiqod ko'rinishi: iloh, mabud va hokozo. Har bir tiriklikni yaralishida nimadir sababchi deb hisoblangani uchun ham yaratuvchisi bor deb kelinadi. Hindiston va yovoyyi changalzorlarda yashovchi hindular orasida: yer, osmon, suv va hayvonlar ko'rinishidagi o'ylab topilgan mabudlarga sig'inishadi. Bu guruhdagi hindular o'ta yovoyyi, manqurtlik belgilariga ega murosa qurib bo'lmaydigan odamlar xisoblanadi.

Ekspeditsiya izlanishlar va taqqoslash ishlarida shunisi ma'lum bo'ldiki insonlar e'tiqodini o'zini ichki hohishlariga qarab ishlatishadi. Mayeris hindular qabilasi yirtqich hayvon timsoxga sig'inadi asli kelib chiqishi to'da sardori ochlikga qarshi kurashish uchun yirtqichdek kuchli bo'lish kerak deya „ojiz bo'lma yirtqich bo'l“ deb ruhiyatni ko'taradi va bu avlodlar orasida kuchli bog'liqlik berish natejasida to'liq bir ertak bilan „Timsox mabud“ ulug'lanadi va bora-bora e'tiqod va timsoh haqida ertaknamo afsonalar aytiladi. Mayeris hindular xatto timsoxga o'xshash uchun bel terisini kesib timsox terisiga o'xshatishga harakat qilishadi. Buni oqibatida qonga infektsiya tushirish yoki ko'lga tushganda timsox uchun o'ljaga aylanish bilan tugagan. Bu yerda boshlang'ich e'tiqod yaxshilik uchun xizmat qilishda qatnashib keyinchalik o'zini yo'q qilishda qatnashganligi aytilmoqda. Odatda hayvoniylik tuyg'ulari: jang qilish, qonsirash, egalik qilish tushunchalari e'tiqodni zaxarlab olishi oson bo'ladi. Chunki Germaniya olimlari tomonidan odam miya faoliyati haligacha ongli fikr yuritmasligi aytib o'tildi. Bunda odamlarda haligacha yovoyyilik belgilari yo'qolmaganligi aytilmoqda. Diniy ekstremizm bunga yaqqol misol. Isomni targ'ib etish va ximoyalash bu shunchaki bir baxona buni ortida hokimiyat, qurol sotuvchilar, siyosat o'yinlari turadi xolos, omi odamlarni boshqarish uchun dinni sindirish kerak bo'larkan shunda u tig'li qurolga aylanadi, deydi dinshunos olim Antonio Moresson. E'tiqod ta'limi bugungi davrda g'arb mamlakatlarida ilmiy metodiklar bilan ketishi aytiladi.

Din (arabcha: – „e'tiqod“, „ishonch“, „itoat“) jamoat tomonidan shifrlangan qadimiy yozuvlar, mifologiya va rituallarga qat'iy amal qilingan holda bajariluvchi harakatlar to'plamidir. Shuningdek, shaxsiy e'tiqod hamda mistik kechinmalardan iborat bo'lishi ham mumkin. „Din“ atamasi ham jamoat e'tiqodiga oid shaxsiy amaliyotlarni, ham guruh tomonidan bajariluvchi rituallarga qo'llanadi. Barcha patriarxal dinlar bir g'oyani ilgari surishadi: olam va odamlarni ikkiga, biri muqaddas, boshqasi kufr bo'lgan qismlarga bo'lish. Din odatda hech kim tomonidan kuzatilmaydigan va aniqlanmaydigan, g'ayritabiiy, muqaddas, eng yuqori shaxs yoki mavjudotga fokuslangan o'zak e'tiqod ustiga qurilgan ijtimoiy tizim, deb ham ta'riflanadi.

An'analar, qadriyatlar, institutlar, rituallar va diniy matnlar o'zak e'tiqod bilan bog'liq ko'riladi, va bulardan ba'zilar sekyular falsafa bilan mos tushmasligi

mumkin. Dinni shuningdek „turmush tarzi“ ham deyishadi. Dinlarning kelib chiqishi turli madaniyatlarda turlicha kechgan. Ayrim dinlar ijtimoiy tartibni belgilab kelgan bo‘lsa, boshqalari insonning ichki kechinmalari va ruhiyatini tartibga solishni ko‘zlaydi. „Din“ so‘zini ba‘zi hollarda „e‘tiqod“ ma‘nosida ham qo‘llashadi, lekin bu doim o‘rinli emas, zero e‘tiqod shaxsiy ishonchdan iboratdir, aslo ijtimoiy tizim emas. Din – xudo yoki xudolar, g‘ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonish. Din muayyan ta‘limotlar, his-tuyg‘ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo‘ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o‘ziga xos usuli. Dinning paydo bo‘lishi haqida yagona fikr yo‘q. Islom dini ta‘limotiga ko‘ra, din – Alloh tomonidan o‘z payg‘ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo‘lgan ilohiy qonunlardir. Tabiat va insonni yaratgan, ayni vaqtda insonga to‘g‘ri, haqiqiy hayot yo‘lini ko‘rsatadigan va o‘rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta‘limotdir. Din dunyo, inson, mavjudotlarning kelib chiqishi, insonning yashashdan maqsadi kabi savollarga o‘zicha javob beradi. Dunyoviy ilm nuqtai nazaridan din kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma‘lum bosqichida paydo bo‘lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri. Bu dunyoqarash jamiyatning ma‘lum tarixiy davr va sharoitlaridagi talablari, ehtiyojlari asosida shakllanadi. Ulug‘ mutafakkir Abu Nasr Forobiy dinga falsafa bilan bir qatorda haqiqatga yetishishning 2 mustaqil usulidan biri sifatida qaragan. Forobiyning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini payg‘ambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar. Dinga turlicha yondoshishni Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushdning ikki haqiqat nazariyasida kuzatish mumkin. 18-asr fransuz faylasuflarining dinga bo‘lgan o‘ziga xos yondashuvlari, 19-asrda mifologik maktab (aka-uka Ya. Grim va V. Grim, M. Myuller), antropologik maktab (L. Feyerbax) va boshqa turli yo‘nalishlar paydo bo‘lgan bo‘lsa, 20-asrda dinni tadqiq qilish yuzasidan yana boshqacha qarash va nazariyalar (K. Yung, E. Dyurkxeym) vujudga keldi. Dinning nima ekanligi turlicha izohlansa-da, umuman olganda din – ishonmoqlik tuyg‘usidir. Bunday tuyg‘usi bo‘lmagan xalq yo‘q. Chunki biron-bir xalq dinsiz, e‘tiqodsiz, biron-bir narsaga ishonchsiz yashay olmaydi. Din insoniyatning eng teran, eng go‘zal ma‘naviy-ruhiy ehtiyojlaridan biridir. Insoniyat tarixida din turli shakllarda namoyon bo‘lgan. Dinning dastlabki ko‘rinishlari fetishizm, totemizm, animizm, sehrgarlik va b.dir. Shuningdek, urug‘qabila dinlari, milliy dinlar (iudaizm, hinduiylik, sintoizm, daosizm, konfutsiychilik), jahon dinlari (buddizm, xristianlik, islom) vujudga kelgan. Din avvaliga ko‘pxudolik (poli-teistik), so‘ngra yakkaxudolik (monoteistik) ko‘rinishida bo‘lgan. Har bir din diniy dunyoqarash, diniy marosim, diniy tuyg‘u va sig‘inish ob‘yektlarini o‘z ichiga oladi. Har qanday jamiyatda din ma‘lum ijtimoiy, ma‘naviy va ruhiy vazifalarni bajaradi. Uning ijtimoiy hayotga ta‘siri kuchlidir. Har bir din dindorlarini o‘z ta‘limoti doirasida saqlashga harakat qiladi, o‘z qavmlari uchun

tasalli beruvchi, ovutuvchilik vazifasini o'taydi. Dinlar o'z marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan qat'iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo'yadi, shuningdek, o'z qavmlarining birligini, jamiyat va shaxsning o'zaro aloqada bo'lishini ta'minlashga intiladi. Din insonga yashashdan maqsad, hayot mazmuni, bu dunyo va u dunyo masalalariga o'z munosabatini bildirib turadi. U umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib, xulq-atvor qoidasiga aylantiradi. Madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatib, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish va avloddan-avlodga yetkazish ishiga yordam beradi. Din insonning ishonchli hamrohi, odamzot hayotining bir qismi bo'lib kelgan. Unga turli davrda turlicha munosabatda bo'lingan. Dinni jamiyatning hukmron kuchlari davlat siyosati darajasiga ko'targan yoki din hamda dindorlarni ayovsiz ta'qib ostiga olgan hollar tarixda ko'p uchraydi. Yaqin o'tmishda – sho'rolar davrida dinni kamsitish va unga qarshi kurash siyosati olib borildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, din madaniy-ma'naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi teng huquqli qadriyat sifatida tan olindi va dinga to'la erkinlik berildi. Diniy jamoalar, tashkilotlarga qonun doirasida ochiq va daxlsiz faoliyat ko'rsatish imkoniyati yaratildi. O'zbekiston aholisining asosiy qismi islom diniga, yevropalik aholi xristianlikning pravoslaviye mazhabiga e'tiqod qiladi. Ular bilan bir qatorda katolik, protestant, boshqa mazhab (jami 15 dan ortiq konfessiya) vakillari yashaydi. Ular vatan mustaqilligini mustahkamlash, siyosiyijtimoiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritmoqdalar.

O'zbekiston dunyoviy davlat bo'lib, din davlatdan ajratilgan. Vijdon erkinligining kafolatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, „Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida“gi qonunda (1998) bayon etilgan. O'zbekistonda din va diniy dunyoqarash dunyoviy turmush tarzi, dunyoviy fikr bilan yonma-yon rivojlanib kelmoqda. Dinning paydo bo'lishi - bugungi kunda fanda dinlarning shakllanishi tarixiga oid ikki xil qarash mavjud.

Birinchi qarashga ko'ra dinning paydo bo'lishi bevosita insoniyatning yaralishi bilan bog'liq. Xudo ilk insonlarni yaratishi bilan ularga o'zini tanitdi, natijada inson ilk dinga e'tiqod qila boshladi. Bunday qarash fanda “teologik yondashuv” deb nomlanadi. Bugun mavjud bo'lgan har qanday din o'zining tarixini insoniyat yaralishi-ilk inson bilan bog'lashini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, islom dinida- Odam va Havvo, yahudiylik va xristianlikda- Adam va Yeva, zardushtiylikda- Govmard, sintoizm da- Mikado va boshqalar. Mazkur ta'limotlar dinlarning muqaddas manbalarida bayon qilingan.

Teologik yondashuvga ko'ra, turli buyumlarga sig'inish va ko'pxudolik, jumladan animizm, totemizm, fetishizm va shomonlik yakkaxudolilikdan keyin yuzaga kelgan. Dinlarning kelib chiqishi haqidagi ikkinchi qarash fanda “materialistik yondashuv” deb nomlanadi. Mazkur qarashlarning paydo bo'lishi antik

davrga borib taqalib, ilk bor qadimgi yunon faylasuflari qarashlarida aks etgan. XVII asrga kelib Yevropada cherkov hokimiyatining susaya boshlashi, hurfikrlilik namoyandalari -din tanqidchilarining paydo bo‘lishi, XIX asrning ikkinchi yarmida Charlz Darvin tomonidan “Turlarning kelibchiqishi” (1859) nomli asarning chop etilishi ham turtkibo‘ldi. Keyinchalik mazkur qarashlar Avgust Komt va Lyudvig Buxnerlar tomonidan eng cho‘qqisiga ko‘tarildi. Unga ko‘ra din bu ijtimoiy hodisa, inson tafakkuri, emotsiyalari mahsulidir.

Mazkur qarash tarafdorlari fikricha, dinlar soddadan-murakkabga, umumiylikdan-xususiylikka, ko‘pxudolikdan-yakkaxudolikka tomon uzoq tarixiy evolyutsion jarayonni bosib o‘tgan. Unga ko‘ra, ilk davrdagi ibtidoiy odamning jismoniy, fiziologik, asab-endokrin, biologik, psixologik va boshqa sohalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi. Bu nafaqat uning hayoti va faoliyatiga, fe‘l-atvoriga, balki uning fikrlash darajasiga, kuchli hayajonlanishiga, tasavvur etishiga, mustahkam, haqiqiy yoki soxta mantiqiy qonuniyatlarni kashf etishiga ta’sir ko‘rsatadi. Uyqu, tush va nafas olish kabi holatlarda tanani boshqaruvchi va o‘lim bilan undan ajratib turuvchi, hayot bag‘ishlovchi qandaydir kuch mavjudligiga ishongan ajdodlarimiz, mazkur kuch harakat qiluvchi har bir narsa: daryo, quyosh, oy, daraxt kabi mavjudotlarda bor deb tasavvur qilganlar. Natijada, inson qo‘rquvi, hurmati, ehtiyoji va zarurati darajasida ularga sig‘ina boshlagan.

Materialistik maktab tarafdorlari fikriga ko‘ra, qo‘rquv dinlarning kelib chiqishida asosiy rol o‘ynagan hissiy holatdir. O‘zbekistonda islom eng keng tarqalgan din hisoblanadi. Mamlakat 1991-yilda mustaqillikka erishgach, O‘zbekistonda musulmonlar salmog‘i sezilarli darajada oshdi. Bugungi kunda u aholining 96,5 foizini tashkil qiladi. Aholi Islom dinining asosan hanafiylik mazhabiga e’tiqod qiladi. Shuningdek oz miqdorda shialik mazhabi e’tiqodchilari ham mavjud. Markaziy Osiyo xalqlarining musulmon dinini qabul qilishi VIII asrning birinchi choragida arab xalifaligining yurishlari bilan bog‘liq holda boshlandi. Dastlab islom dini Turkistonning janubiy qismlarida mustahkamlanib, keyin asta-sekin shimolga tarqala boshladi. Mintaqada islom dinining o‘rnatilishi islomgacha bo‘lgan diniy e’tiqodlar (xususan, zardushtiylik) bilan uzoq va keskin qarama-qarshilikda kechdi. Yirik qo‘zg‘olonlar diniy sabablarga ko‘ra paydo bo‘ldi (ulardan eng muhimi Muqanna boshchiligidagi „oq kiyimlilar“ harakatidir). Islom dinini yoyish uchun arablar va ular ma’qullagan mahalliy sulolalar g‘oziyar otryadlarini — e’tiqod uchun ko‘ngilli jangchilarni tuzdilar. Shu bilan birga, g‘oziy bo‘linmalari musulmon hukmdorlarining tayanchidan tashvishlanish obyektiga aylanib, hokimiyatga qarshi talon-toroj qilishga o‘tgan holatlar mavjud. Yangi dinni mintaqada yoyish siyosatini g‘ayrat bilan olib borgan Somoniylar sulolasi (IX-X asrlar) davrida faol mustahkamlandi. Bu davrda turkiy xalqlarning salmoqli qismi islom dinini qabul qildi. O‘sha davrda hudud islomning oltin davrini boshlab bergan

ilm-fan, tibbiyot, falsafa va ixtirolarning jahondagi yetakchi markaziga aylandi. Biroq, qoraxoniylarning turkiy sulolasi Somoniylar mulkiga hujum qilganda, bu fakt halokatli rol o‘ynaydi — urush e‘tiqod uchun emas, balki musulmonlar o‘rtasida olib borilmoqda, degan bahona bilan ruhoniylar ularning aralashuvidan bosh tortadilar, hukmronlikdan mahrum qiladilar. Mo‘g‘ullar istilosi davrida Markaziy Osiyo aholisining noroziligi boshqa narsalar qatori diniy motivlar bilan ham kuchaydi, chunki bosqinchilar „kofirlar“ edi. 1238-yilda hunarmand Mahmud Torobiy Buxoroda qo‘zg‘olon ko‘tarib, o‘zini yangi xalifa deb e‘lon qildi, biroq u g‘animlar bilan birinchi to‘qnashuvda halok bo‘ldi va keyingi yili isyonchilar bostirildi. Biroq keyinchalik mo‘g‘ul hukmdorlari va zodagonlarining o‘zlari islom dinini qabul qilib, Markaziy Osiyodagi yashovchi xalqlarining dindoshlariga aylanishdi. Markaziy Osiyoning taniqli siyosatchisi va sarkardasi Amir Temur islom tarafdori bo‘lib, uning tashabbusi bilan ko‘plab diniy binolar, jumladan, Samarqanddagi eng katta Bibixonim masjidi bunyod ettirgan. Sohibqiron davrida ko‘chmanchilar orasida so‘fiy islomni targ‘ib qilgan nufuzli turkiy ilohiyot olimi Ahmad Yassaviy (Turkiston shahri, hozirgi Janubiy Qozog‘iston viloyatida) qabri ustiga ham maqbara qurilgan (mintaqada avliyo sifatida e‘zozlangan). Amir Temur saroy xattoti Umar Aqto Qur‘onni shu qadar kichik harflar yordamida ko‘chirib yozgani aytiladiki, kitobning butun matni muhr uzukiga sig‘dirgan. Aytishlaricha, Umar ham shunday katta Qur‘on yaratganki, uni tashish uchun arava kerak bo‘lgan.

O‘zbekxonning musulmon bo‘lishi bilan islom Dashti Qipchoq o‘zbeklari orasida ham tarqaldi. Buxorolik sayyid va Yasaviy tariqati shayxi Ibn Abdulhamid tomonidan islomni qabul qilgan O‘zbekxon Oltin O‘rda o‘rtasida islom dinini targ‘ib qildi va O‘rta Osiyo bo‘ylab kengayishi uchun islomlashtirish tashviqoti faoliyatini kuchaytirdi. Uzoq muddatda islom xonga O‘rdadagi o‘zaro kurashlarni bartaraf etish va davlat institutlarini barqarorlashtirish imkonini berdi. Atoqli islom olimi al-Buxoriy hozirgi O‘zbekiston hududida yashagan, uning „Sahih al-Buxoriy“ kitobi sunniylar tomonidan barcha hadis to‘plamlari ichida eng sahih va Qur‘ondan keyingi eng nufuzli kitob hisoblanadi. Mintaqaning boshqa musulmon ulamolari Imom Termiziy va Abu Mansur al-Moturidiylar bo‘lib, ular islom fiqhi ulamolarining asoschilaridan bo‘lganlar. O‘zbekiston hukumatining Islomga nisbatan siyosati Shavkat Miromonovich Mirziyoyev davrida yangicha muhit kasb etdi. Uning qo‘l ostida quyidagi choralar ko‘rildi.

2017-yildan boshlab ayrim masjidlarda (shu jumladan, Toshkent masjidida) azon aytishga ruxsat berildi; Voyaga yetmaganlarga diniy marosimlarda ishtirok etishga ruxsat berildi;

2018-yilda O‘zbekiston rasmiylari Hajga borish uchun kvotalar sonini oshirgan bo‘lsa, 2018-yilda 7520 kishiga Hajga borishga ruxsat berildi. (Saudiya Arabistoni uch barobar kvota ajratgan). 1992-yildan 2016-yilgacha har yili 5200 kishiga

O‘zbekistondan chiqib ketishga ruxsat berilgan edi; Umra uchun cheklovlar olib tashlandi va narxlar tushdi;

2017-yil dekabrda Shavkat Mirziyoyev „diniy sabablarga ko‘ra“ deb qamalgan 763 nafar mahbusni amnistiya qildi; Islom sivilizatsiyasi markazining tashkil etilish hamda Samarqandda Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Toshkent Islom akademiyasini tuzish rejalandi. Natijada Shavkat Mirziyoyev davrida masjidlar ko‘paydi, diniy sabablarga ko‘ra qamalganlar soni kamaydi. 2016—2017-yillarda O‘zbekistonda ekstremistik va noqonuniy diniy faoliyat uchun qamalganlar soni 13,5 mingdan 7 ming nafarga kamaydi. Masjidlar soni 2042 taga yetdi, bu 1998-yildan beri eng yuqori ko‘rsatkichdir. O‘zbekiston musulmonlari diniy boshqarmasi islom dinini o‘rgatish bo‘yicha onlayn dasturlarni ishga tushirdi va 2018-yilda O‘zbekistonning 8 mingga yaqin aholisiga bitta imom to‘g‘ri keldi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda Shavkat Mirziyoyev davrida blogerlarga nisbatan jarimalar (jamiyat hayotida islom ta‘sirini kengaytirish tarafdori bo‘lgani uchun), radikal islomiy tashkilotlar vakillarini hibsga olish, shuningdek, noqonuniy faoliyat yo‘lga qo‘yilgan tashkilotlarni yo‘q qilish choralari ko‘rildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

**1.Sh.M.Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” Toshkent 2021.**

2. A. Asqarov. Dinshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019.

3. Sh. Yusupov. Diniy e‘tiqod va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2021.

4. M. Karimov. Islom dini va uning qadriyatlari. – Toshkent: Sharq, 2020.

5. Aralovna, Ochilova Guzal, et al. "Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes." *Journal of Survey in Fisheries Sciences* 10.1S (2023): 5000-5006.

6. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.

7. Omonov, Bakhodir Nurillaevich, Go‘zal Aralovna Ochilova, and Sitara Ayonovna Azamova. "SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN." *World of Scientific news in Science* 1.3 (2023): 15-28.

8. Ayonovna, Azamova Sitara. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization." *Global Scientific Review* 13 (2023): 7-10.

9. Ayonovna, Azamova Sitora, and Pirimov Lerik Xudoyberdi o‘g‘li. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘." TADQIQOTLAR. UZ 40.4 (2024): 135-139..

10. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35..

11. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.

12. Azamova S. EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №.

13. Azamova, Sitora Ayanovna. "PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION." BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT 3.5 (2024): 743-749.

14. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.

15. Ayonovna, Azamova Sitora. "The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization." Global Scientific Review 13 (2023): 7-10.

16 Ayonovna, Azamova Sitora, and Pirimov Lerik Xudoyberdi o‘g‘li. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘." TADQIQOTLAR. UZ 40.4 (2024): 135-139..

17. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35..

18. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.

19. Azamova S. EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.

20. OMONOV, Bahodir. "“DASTUR UL-MULUK” VA “SADDI ISKANDARIY” ASARLARIDA GEOSIYOSIY QARASHLAR." News of the NUUZ 1.1.2 (2024): 180-183.
21. Nurillaevich, O. B. "THE IMPORTANCE OF RELIGIOUS VALUES IN THE FORMATION OF A PERSONAL ECOLOGY CULTURE." Archive of Conferences. Vol. 15. No. 1. 2021.
22. Omonov, Bahodir. "IS ARAL SEA OR LAKE?(SOME THOUGHTS ABOUT THE REASONS THAT TURNED THE ARAL SEA INTO THE LAKE, MORE PRECISELY INTO THE DESERT" ARALKUM")." Theoretical & Applied Science 3 (2016): 63-67.
23. Nurillaevich, A. B. "Shortage and Problem of Drinking Water in Central Asia." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 1.9 (2023): 504-509.
24. . Очилова, Гўзал Араловна. "Чучук Сув Танқислиги Муаммосининг Марказий Осиёга Хавфи. Омонов Баходир Нуриллаевич."
25. Omonov, B. N. "O ‘zbekiston ekologik siyosatining strategik asoslari." Философия и право 28.2 (2024): 41-43.
26. . Omonov, Bahodir. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING O ‘RNI." Modern Science and Research 4.3 (2025): 125-128.
27. . OMONOV, Bahodir. "ETNIK NIZOLARNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI GEOSIYOSIY MUNOSABATLARIGA TA’SIRI." News of the NUUZ 1.1.1 (2025): 164-166.
28. Omonov, Bahodir. "The Expression of Geopolitical Knowledge in the Works “the City of Virtuous People” and “India”." JournalNX 9.6 (2023): 16-20.

“MEZON UZ-ZAMON” ASARIDAGI MERZONLAR BAYONI

**Robiyaxon Sobitova Salohiddin qizi**

Qo‘qon DU talaba

[robiyaxonsobitova04@gmail.com](mailto:robiyaxonsobitova04@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada Is‘hoqxon To‘ra Ibrat qalamiga mansub “Mezon uz-zamon” asari haqida fikr yuritladi. Har bir menzonning keltirish sababi, muallif zamoni bilan muqoyasasiga ahamiyat beriladi.

**Annotation:** in the article, Isaq Khan reflected on the work “Mezon uz-Zamin”, which belongs to the Torah lesson pen. The reason for each Menzon's citation is given to the importance that the author compares to the time.

**Kalit so‘zlar:** Is‘hoqxon To‘ra Ibrat, “Mezon uz-zamon”, mezonlar bayoni, tarqqiyot, madaniyat, johiliyat, ilm-ma‘rifat.

**Keywords:** is'haqkhan Torah lesson,” Mezon uz-təm”, description of criteria, dispersion, culture, ignorance, science and enlightenment.

XX asr o‘zbek ziyolilari orasida o‘zining milliy-ozodlik yo‘lidagi harakatlari bilan alohida o‘ringa ega bo‘lgan ma‘rifatparvar adib Is‘hoqxon To‘ra Ibrat shoir, yozuvchi, tilshunos, tarixshunos olim, jadid maktabdori, ilk o‘zbek matbuotchilaridan biri sifatida o‘zbek adabiy merosiga munosib hissasini qo‘shgan. Ibrat 1862- yilda Namangan yaqinidagi To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘iladi. Hayoti davomida ilm-ma‘rifatni keng targ‘ib qilgan, qozichilik faoliyati bilan bilan birgalikda maktabdorlik bilan ham shug‘illangan.

Is‘hoqxon Ibrat qalamiga mansub bo‘lgan “Mezon uz-zamon” asari o‘zbek adabiyoti tarixida muhim bir manba hisoblanib, unda zamona illatlari va kamchiliklari, davr muammolari, jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar, turli qatlam, tabaqa vakillarining ahvoli, millat odamlarining madaniyat va yangilanishlarni qay darajada qabul qilishi, din ulamolarining turish- tutmishi, kundalik hayotda ro‘y beruvchi odat tusiga kirgan insonlarga naf keltirmaydigan ishlar xususida so‘z yuritiladi, zamon tarozusida o‘lchab, tafakkur qilinadi. Keltirib o‘tgan har bir fikrlarini Qur‘oni Karim va Hadisi sharif asosida iqtiboslar keltirib, izohlashga harakat qiladi.

Asarni saqlab kelgan Jo‘ra Zokiriy kitob haqida shunday fikrlarni keltirib o‘tadi:

Ushbu qo‘lyozma to‘raqo‘rg‘onlik Is‘hoqxon to‘ra tomonidan yozilgan. Ammo qaysi yilda yozilgani noma‘lumdur. Men bu kitobni 1950 yilda avtorning o‘z hovlisidan topib olganman. Mening fikrimcha, ushbu kitob oktabr revolyutsiyasining dastlabki yillari (1918—1919) yozilgan bo‘lishi mumkin... Bu qo‘lyozma qanchalik ahamiyatga ega ekaniga unchalik aqlim yetmasa ham harholda tariximizni o‘rganishda yordamlashar degan mulohaza bilan saqlaganim bu qo‘lyozmani tahlil

qilish niyatidadurmankim, bu mening muyassarim bo‘larmikan? Mazkur zotning yana bitta qimmatli (bosma bo‘lsa ham) kitobi bordurkim, u ham mendadur. Nomi «Jomi’ ul-xutut». Jo‘ra Zokiriy — axsilik. (Asl ismim Idris). 1958 yil, Axsi-Kirov<sup>1</sup>

Ushbu asarni yozishdan maqsadini muallif quyidagicha ifodalaydi:

Bu so‘z emdi aytilgon emas. Hama tasavvufda bu bor. Ammoki man bu «Mezon»ni muqaddima qilmoqda sizni «Hubb ud-dunyo...»dan ya’ni «Hubb ud-dunya ra’su kullu xoti’a» (Dunyoga muhabbat qo‘yish barcha xatoliklar boshi) — hadisdan ko‘nglingiz qaytarub, so‘ngra muddao yozaman. Bu «Mezon uz-zamon» maqsadi xalqg‘a amri ma’rufdurkim, kuntum xayra ummatin uxrijat li-n-nasi ta’muruna bi-l-ma’rufi va tanhavna ani-l-munkar mufodig‘a qarab, har fard az afrodi ummat ma’muri amri ma’rufdur. Bu amrni gardanidin tushurmoq faqat aytmak ila bo‘lur. Va ma ala-r-rasuli illa-l-balag‘u-l-mubin etmak bo‘lsa, qalam ila bo‘lur. Savt ila aytilsa bir samo‘ eshitub tamom bo‘lur. Qalam bila bo‘lsa, qiyomatgacha xizmat bo‘lur, har bir ahli savod ko‘rub o‘qusa, amri ma’ruf bo‘ladur. Biz qilib turgan xizmat keyingi asrlarga ham xizmat etar umidinda bo‘lub qalam yurguzduk... Alloh taolo bu xizmatimizni qabul etub, so‘zimizni islomg‘a ta’sirini etsun.<sup>2</sup>

Asar 9 bob va muqaddimadan tashkil topgan bo‘lib, har bir bobda turli xil mavzular “Mezon” asosida muhokma qilinadi.

T/r	Boblari	Mavzusi
1.	1-mezon	millat, xalqni tarqqiyga, madaniyat, ilmga boshlovchi yuqoridagi ulamo va fuzallo ahllari o‘z ishlari qolib, boshqa bemanfaat ishlar bilan mashg‘ulligi, el ahvolidan xabar olmasligi, faqat o‘z foydasi uchun yonib-kuyinishi, nafs balosiga muhtalo bo‘lganligi haqida gapirib o‘tadi.
2.	2- mezon	yozuvchi xalqni birlashib ish ko‘rishga, tarqoq bo‘lishdan qaytishga chaqiradi.
3.	3- mezon	xalq hukmron tabaqa orasida odat tusiga kirgan ayrim illatlar haqida so‘z boradi.
4.	4- mezon	jamiyat taraqqiyotining asl mezoni moddiy imoratlardan emas, balki ilm-ma’rifat va ta’lim tizimidagi o‘zgarishlardan iborat ekanini asoslaydi. Ayniqsa, o‘z zamonasida keng tarqala boshlagan yangi uslubdagi maktablar – ya’ni usuli jadid maktablari bu fikrning yaqqol dalili sifatida keltiriladi.
5.	5- mezon	Muallif xulosa o‘rnida o‘z asrini — ilm, hunar va harakat asri, uxlab yotish va sustlik asri emasligi, agar odam

<sup>1</sup> Is’hoqxon To‘ra Ibrat, “Tanlangan asarlar”. Toshkent:Ma’naviyat,2005. 187-b.

<sup>2</sup> Is’hoqxon To‘ra Ibrat, “Tanlangan asarlar”. Toshkent:Ma’naviyat,2005. 160-b.

		g‘aflatda qolsa, hali uyg‘onguncha, dunyo bozori o‘tib ketishi, o‘rganish lozimligini ta’kidlaydi.
6.	6- mezon	muallif o‘z davrida jamiyatda keng tarqalgan ba’zi noto‘g‘ri odatlar — xususan, o‘lim va to‘y marosimlaridagi ortiqcha isrofgarchilik, ma’nosiz urf-odatlar, moliyaviy yuklar haqida chuqur tanqidiy fikr yuritadi.
7.	7- mezon	insonlar zamonga moslashishi, kirib kelgan yangiliklarni madaniyatning rivojlanib, dunyoning taraqqiy etganida ekanligini tushunish kerakligi, mutassib din vakillarining yangicha yondashuvlarga, xususan, yangi usul maktablariga qarshi chiqmasligi kerakligi kabi fikrlarni keltirib o‘tadi.
8.	8- mezon	Libos va tafakkur o‘rtasidagi tafovut: xalq orasidagi tashqi ko‘rinishlarga aldanish sabablari haqida
9.	9- mezon	bir asr avvalgi xalq turmushi va bugungi kun o‘rtasidagi keskin tafovutni ko‘rsatiladi

**Birinchi mezonda** muallif millat, xalqni tarqqiyga, madaniyat, ilmga boshlovchi yuqoridagi ulamo va fuzallo ahllari o‘z ishlari qolib, boshqa bemanfaat ishlar bilan mashg‘ulligi, el ahvolidan xabar olmasligi, faqat o‘z foydasi uchun yonib-kuyinishi, nafs balosiga muhtalo bo‘lganligi haqida gapirib o‘tadi. Xalq orasiga biror bir yangi buym kirib kelsa ham din ulamolarining uni haromga chiqarishi, necha vaqtlar o‘tib, bu narsa xalqqa urf bo‘lgandan so‘ng esa o‘zlari ham bu mahsulotdan bemalol foydalanib yurishlarini ham tanqid ostiga oladi.

Ulamo va fuzalo va avom hama nafs xizmatidan bo‘shamay, dunyo qilmoq, imorat, hasham, manfaati nafsiyalarin muhtaloyi. Xizmati ummat, xizmati millat degan nima? Ani bilmay, muni qilmasa harom, muni qilmasa makruh, bu mustahab, bu muboh deb, bu ummatga farzi ayn bo‘lgan ishlar qolub, mustahab ila makruhni janjal qildilar. Chunonchi, bulardan avvali hollarda yangi joriy hama ashyo bo‘lsa, bular ko‘rmagan bo‘lsalar, ani harom aqida qilib, to rasmu urfu taomil bo‘lguncha hurkub turdilar. So‘ngra bilo ishtiboh' iste'mol qildilar.<sup>3</sup>

Avvalgi zamonda insonlar gugurt o‘rnida chaqmoqdan, chiroq o‘rnida oqra chiroq va shamdan foydalanganligi, olis safarlarga temir yo‘l o‘rnida tuya va aravalar bo‘lganligi, bunday qiyinchiliklarning oson yechim topishi ilm- hunar bilan yuzaga kelganligi, ilm- hunarni kamol toptirish uchun esa madrasalar bino qilinishi, kishilarning ilmga targ‘ib qilinishi masalari haqida ham birinchi mezonda mulohazalar berib o‘tiladi.

<sup>3</sup> Is‘hoqxon To‘ra Ibrat, “Tanlangan asarlar”. Toshkent:Ma’naviyat,2005.162-b.

Ibrat taraqqiyotdan ortda qolmaslik, turmushda yengillik, ilm- ma’rifatda sobitlik bo’lishi uchun ham millat kishlariga shunday deydi: Bas, o’qung, hunar kasb etmak uchun harakat darkor ekan, ko’rub turubsiz.

**Ikkinchi mezonda** yozuvchi xalqni birlashib ish ko’rishga, tarqoq bo’lishdan qaytishga chaqiradi. Olloh taolo aytur: Va’tasimu bihablillahi jami’an va la tafarraqu. Ya’ni Xudoning rishtai mahkamiga dast uringlar, hamalaringiz ittifoq bo’lub, tafriqa va parokanda bo’lmay. Hama muttafiq bo’lub, nifoq qilmanglar, der.<sup>4</sup>

Har bir yaxshi ishda bir yoqadan bosh chiqarib, ittifoq bo’lib ishlashga, o’zaro nifoq adovatlardan chetlanishga, bir butun bo’lib, millat va jamiyat hayotiga yanglilik kirtishga, ilm-u hunarda ham ittifoqdosh bo’lishga da’vat qiladi. O’z fikrlarining dalili o’rnida Qur’oni va Hadislarga murojaat etib boradi. “Sahihi Buxoriy”ning 2-juzidan bir nechta hadis keltirib o’tadi:

Yettinchi hadisda ayturlarki: Almuslimu axun muslimi man kana fi hojati axiyhi kanallohu fi hojatihi. Ya’ni musulmon musulmonning birodaridur. Musulmon birodarini(ng) hojatini ravo qilsa, Xudovandi olam ani(ng) hojatiga mashg’uldur. Agar g’amini zoyil qilsa, Xudovand ani(ng) g’amini zoyil qilur qiyomatda. G’ami qiyomatdin ziyoda g’am yo’qdur.

Va ham surai «Baqara»da ayturki: Va kazalika ja’alnakum ummatan vasatan6. Ya’ni man sizlarni ummati adolat ixtiyor qildim va qaror berdim: moyai adolat — muxtoriyat, vifoq va ittihoddur. Qavs ichidagi izohlar nashrga tayyorlovchilarniki. Surai «Hujurot»da ayturki: Innamal-mu’minuna ixvatun faaslihu bayna axavaykum1. Ya’ni mo’minlar birbiriga birodardur. Agar nifoq bo’lsa, ikkisini(ng) o’rtasini sulh qilinglar, deydu. Va ham surai «Baqara»da aytur: Val-fitnatu ashaddu min al-qatli. Ya’ni ikki kishini(ng) miyonasiga fitna qilmoq odam o’ldirmoqdan yomonroqdur.<sup>5</sup>

**Uchinchi mezonda** xalq hukmron tabaqa orasida odat tusiga kirgan ayrim illatlar haqida so’z boradi.

Turkiston, ayniqsa Farg’ona xalqida diniy amallar, jumladan “savob” so’zi, har qanday ishga niqob sifatida ishlatilishi, aslida esa bu amallar ko’pincha nafs va manfaatga xizmat qilishi, kichik masalalardan katta janjallar chiqarilishi, boylar foizli qarzni “shar’iy savdo” deb ko’rsatib, hiyla bilan berishi, zakot ham haqiqatda emas, shunchaki da’vo tarzida ado etilishi tanqid qilinadi.

Shuningdek, faqirlar boylarga arzon matoni qimmatga sotgan bo’lib ko’rsatiladi yoki bankdan olingan foizli pullar hujjatsiz tarqatilib, xalqqa foizi yuklanadi. Paxta savdosida esa kam tortish, rozi bo’lmagan mijozdan “paratav” olish va paxta bera olmaganlarga jarima qo’shish kabi nohaqliklar keng tarqalganligini aytib o’tadi.

Ulamo va mashoyixlar bu holatlarga qarshi chiqmaydi, ayrimlari fitnadan qo’rqadi, boshqalari boylar va mavqega berilib ketgan. Xalqning o’zi ham “amr bil

<sup>4</sup> Is’hoqxon To’ra Ibrat, “Tanlangan asarlar”. Toshkent:Ma’naviyat,2005.164-b.

<sup>5</sup> Is’hoqxon To’ra Ibrat, “Tanlangan asarlar”. Toshkent:Ma’naviyat,2005.168-b.

ma’ruf” bilan shug’ullanishga fursat topolmaydi. Muallif o’zi ham shariat xizmatida yurgan yillarida bunga vaqt topa olmaganini tan oladi, ammo endi imkon topib, bu mas’uliyatni ado etishga harakat qilmoqda. Musulmonlar Qur’on va Sunnatga amal qilib yashashi, shariatga zid ishlarni tark etib, jamiyatni to’g’ri yo’lga boshlashi lozim. Aks holda xalq o’z nafsiga ergashib, halokat sari ketadi kabi fikrlarni ilgari suradi.

**To’rtinchi mezonda** tarixda qadimiy xalqlarning yashash joylari va binolari haqida aniq manbalar kam bo’lib, Qur’oni karimda faqat ayrim qavmlar – masalan, Iram shahri, Od va Samud kabi qadimgi madaniyat vakillari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Hazrati Odam zamonidagi imoratlar qanday bo’lgani, ularning shakli va materiali haqida esa hech qanday aniqlik yo’q. Shunga qaramay, bugungi kunda ba’zi kishilar turli baland binolar, zebu ziynatli uylar va imoratlarni tanqid qilib, bu holatga «balvoi om» – ommaviy balo sifatida qaraydilar. Aslida esa bu yondashuv, muallif ta’biri bilan aytganda, «quruq so’fiylarning ishi» bo’lib, taraqqiyot va madaniyatdan chetda qolishdan boshqa narsa emas.

Yozuvchi ushbu tanqidni rad etar ekan, jamiyat taraqqiyotining asl mezoni moddiy imoratlardan emas, balki ilm-ma’rifat va ta’lim tizimidagi o’zgarishlardan iborat ekanini asoslaydi. Ayniqsa, o’z zamonasida keng tarqala boshlagan yangi uslubdagi maktablar – ya’ni usuli jadid maktablari bu fikrning yaqqol dalili sifatida keltiriladi.

Muallifning o’z kuzatuvlariga ko’ra, ilk paytlarda bu yangi ta’lim tizimiga qarshilik kuchli bo’lgan. Ayrim ulamolar buni «yangi din» deb noto’g’ri talqin qilgan, go’yoki «usuli jadid» degani islom asoslariga zid yangi e’tiqod ekani kabi asossiz da’volar aytilgan. Hatto bu yo’l bilan halol rizq topayotgan eski uslubdagi muallimlar yangi tizim tufayli o’z rizqidan ajralishidan qo’rqib, qarshilik ko’rsatganlar. Biroq haqiqat shuki, usuli jadid tarafdorlari ilmiy dalillar bilan, shogirdlarining savol-javoblari orqali bu uslubning samaradorligini isbotlaganlar va ulamolarni ham o’z tomonlariga og’dirganlar.

Shuningdek, shaxsiy tajribasini ham misol sifatida keltiradi: u avvalgi maktabda uzoq yillar o’qib, savod chiqara olmagan, biroq onasi rahmatli ayol tomonidan tashkil etilgan yangi uslubdagi maktabda qisqa fursatda o’qishni o’rgangan. Keyinchalik esa o’zi ham masjidida maktab ochib, yoshlarga savod o’rgatgan va hatto katta yoshdagi savodsiz kishilarni ham bilimli qilib, ularning turmush va savdo faoliyatlariga yengillik kiritgan.

Xulosa qilib aytganda, zamon o’zgarar ekan, ilm va tarbiya uslublari ham zamonga mos tarzda yangilanmog’i kerak. Muallif buyuk sahoba Hazrati Aliy (k.v.)ning “Avlodlaringizni o’zingiz yashagan zamon uchun emas, ular yashaydigan zamon uchun tarbiya qiling” degan hikmatini keltirgan holda, bu haqiqatni teran ifodalaydi. Binobarin, usuli jadid maktablari ilm-fan, savodxonlik va taraqqiyot sari

dadil qadam bo'lib, bu yo'lni tanlaganlar zamon ruhiga mos ravishda yashashga harakat qilganlar.

**Beshinchi mezonda** shunday fikrlar keltirib o'tiladi:

Bu mezon xalqimizning avvalgi va hozirgi holatlarini solishtirish orqali aniqlanadi. Jumladan, 1290 hijriy yildan (milodiy 1873) boshlab xalqimizning turmushi, dunyoqarashi, madaniyati ancha o'zgardi. Ilgari ko'pchilik bekorchi, sustkash edi, hozir esa ish izlab harakat qilmoqda. Hatto ilgari hurafotga berilgan kishilar ham zamonga moslashib, jadallik bilan harakat qilmoqda. Ilgari qishloq xonadonlarida birgina choyqozon bo'lsa, hozir deyarli har bir uyda choynak, lampa, samovarlar bor. Oldin palov haftada bir marta pishirilsa, hozir hatto imkoniyati cheklanganlar ham har kuni palov tayyorlamoqda. Ilgari mahallada ikki-uch kishida ot bo'lsa, hozir otga ega bo'lmagan kishi kamyob.

Yana bir misol: bir asr ilgari odam yuz so'm qarz olsa, umrining oxirigacha shu qarz bilan qolardi. Hozir esa oddiy odamning ming so'm qarzi ham e'tiborga olinmaydi. Ilgari boy bo'lish uchun 80-90 yil kerak bo'lardi, hozir esa besh yil ichida yuz ming so'm topayotganlar bor.

Bu nima sababdan? Albatta, bu zamon harakatining, taraqqiyot davrining natijasi, Allohning barakasi. Ilm sohasida ham shunday: oldin 30 yilda kitob mutolaa qilib tugatganlar bo'lsa, endi 10 yilda ham shu darajaga yetganlar bor. Bu o'zgarishlarning barchasi – zamon tarozusining belgilari.

Muallif xulosa o'rnida o'z asrini — ilm, hunar va harakat asri, uxlab yotish va sustlik asri emasligi, agar odam g'aflatda qolsa, hali uyg'onguncha, dunyo bozori o'tib ketishi, o'rganish lozimligini ta'kidlaydi. Alloh taolo aytganidek:

"Fa'tabiru ya ulil-absor" — E'tibor qilinglar, ey aql egalari!

**Oltinchi mezonda** muallif o'z davrida jamiyatda keng tarqalgan ba'zi noto'g'ri odatlar — xususan, o'lim va to'y marosimlaridagi ortiqcha isrofgarchilik, ma'nosiz urf-odatlar, moliyaviy yuklar haqida chuqur tanqidiy fikr yuritadi. Jumladan:

O'lim marosimlarida odamlar mol-mulklarini sotib, qarzga botib, haddan ortiq mablag' sarflashadi. "Isqot", "xayrot", "shabi panjshanba" kabi rasmiyatchiliklar ko'p hollarda diniy asosga emas, ommaviy urfga tayanadi. Ammo bu holat na o'likka foyda keltiradi, na tiriklarga.

To'y marosimlari ham ko'p hollarda isrofgarchilik bilan o'tadi: "fotiha to'y", "nikoh to'y", kiyim-kechak, sovg'alar, lagan-lagan hadyalar, ortiqcha mehmondorchilik — bularning barchasi yoshlarga emas, marosimdan foydalanuvchilarga xizmat qiladi.

Bekorchilik, choyxonabozlik va g'iybat oddiy xalq orasida keng tarqalgan. Odamlar ertalabdan choyxonalarda yig'ilib, foydali ilm, hunar yoki kitob o'qish o'rniga g'iybat, bo'hton va bekor so'zlar bilan vaqt o'tkazadi.

Zamonaviy fan, texnika va yangiliklar (masalan, mashinalar, kerosin, qulay vositalar)ga qarshi taassub ham tanqid qilinadi. Odamlar diniy emas, balki milliy yoki urfiy sabablar bilan yangiliklarni rad etadi.

Rasm va surat haqidagi fatvolarda mutaassib ulamolarning farqsiz va chuqur bilimga asoslanmagan yondashuvlari tanqid qilinadi. Suhbatlarda oddiy narsalar — choynakdagi naqsh yoki pullardagi surat ham "taqiqlangan surat" deb hisoblangan. Muallif esa bu fikrlarning asossiz ekanini ochiq aytadi.

Xulosa sifatida, muallif jamiyatni og‘ir ruhiy va iqtisodiy yuklardan xalos qilish uchun oqilona fikr, ilm, kasb-hunar va foydali mehnat tarafdori ekanini bildiradi. Isrof va urfga emas, idrok va foydaga asoslangan hayot tarzini targ‘ib qiladi.

**Yettinchi mezonda** insonlar zamonga moslashishi, kirib kelgan yangiliklarni madaniyatning rivojlanib, dunyoning taraqqiy etganida ekanligini tushunish kerakligi, mutassib din vakillarining yangicha yondashuvlarga, xususan, yangi usul maktablariga qarshi chiqmasligi kerakligi kabi fikrlarni keltirib o‘tadi. Har qanday davr o‘z ahliga yangi hunar va san‘atlarni o‘rgatishi, ularni yashash tarzini asta-sekin o‘zgartirishi zamon o‘z ahliga oila a‘zosi kabi ta’sir ko‘rsatishi: odamlar esa zamonning o‘rgatganlariga quloq tutishi, undan saboq olishi kerakligi kabi g‘oyalarni ilgari suradi.

Zamonning har bir yangiligi, har bir o‘zgarishi odamlarning kiyim-kechagidan tortib, odatlari, ish uslubi, xulq-atvori, hatto ovqatlanish va kiyinish tarzigacha o‘zgartirib yuboradi. Ilgarilari olim va zodagonlar yangiliklardan qochardilar, ammo vaqt o‘tishi bilan o‘zlari ham ularga ko‘nikdilar. Har bir narsa — fuytun aravasi, kalosh, telefon — zamonning bosimi bilan joriy bo‘lgan. Zamon bir hukmdirki, unga qarshi borib bo‘lmaydi. Insonlarni majbur etmaydi, ammo asta-sekin o‘rgatadi. G‘arb bu borada ilg‘or yurib, madaniyatni yaratdi, endi esa uni Sharqqa yetkazmoqda. Chunki, garchi Sharqda hunar va san‘at qadimdan bo‘lsa-da, zamonaviy intizom va siyosiy tuzum yo‘q edi. Natijada, G‘arb «kichik farzand» kabi tarbiyalandi, katta bo‘ldi, ota-onasining (ya’ni tarixining) gapini eshitdi, aql va madaniyatda ilg‘or bo‘lib, boshqalarni ham o‘ziga ergashtirdi. Bugungi kunda gazeta, kino, texnika orqali minglab yangi g‘oyalar, mahsulotlar ommaga taqdim etilib, odamlarning fikr va harakatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, avvalgi zamonlarning so‘z va ishlarini aynan ko‘chirib zamonaviy odamlarga tatbiq qilib bo‘lmaydi. Masalan, hozirgi kunda ot aravasi o‘rniga poyezdga chiqish, gugurt o‘rniga elektr chiroq ishlatish zamonga mosdir, degan qabilda zamoni anglash kerakligini uqtiradi.

Muallif zamonga ergashmaslik shundayki, bir oilada bolalar otaning so‘zini eshitmasa, u ularni merosdan mahrum qilgandek, zamon ham o‘ziga ergashmagan jamiyatni ilg‘orlikdan mahrum qilishi, shu sababli zamonning ham insonlarga: “Meni angla, men ko‘rsatgan ilm va hunarni o‘rgan, aks holda boshqalar oldida xor bo‘lasan” degan chaqirig‘iga amal qilish kabi masalalarni ham aytib o‘tadi.

**Sakkizinchi mezonda** zamonaviy ilmiy tahlil nuqtai nazaridan olib qaralganda, xalqimiz orasida tashqi libosga haddan ziyod e'tibor berish holati tarixan shakllangan oddiylik va taqlidkorlikning ifodasi bo'lganligi tanqid qilinadi. Bu yerda muallif xalqning "ichki mazmun" emas, balki "tashqi belgilar" — ayniqsa libos asosida odamlar haqida hukm chiqarishini tanqid qiladi. Masalan, salla o'rab, katta tasbeh ushlagan odamni darrov «mashaqqatli bir zohid» deb qabul qilish hollari keng tarqalgan. Ba'zan esa chet eldan kelgan, hatto dinimizga mansub bo'lmagan libos kiygan kishilar salbiy qabul qilinadi.

Muallif turli tarixiy misollar orqali xalqimiz orasidagi bu holatni tanqid qiladi. Masalan, hajdan qaytgan otasining arabcha kiyimiga o'g'li norozilik bildirgan; yoki Namanqon yaqinida yahudiy kishi musulmon libosida odamlarni aldab yuribdi — bular xalqning libosga bog'liq e'tiqodini ochib beradi.

Shuningdek, muallif arab, hind, xitoy va g'arb liboslari misolida, xalqimizdagi zohiriylikka moyillikni oshkora ko'rsatadi. Ayniqsa, arab liboslarini "dinga xos" deb bilish va uni ko'r-ko'rona qadrlash muallif tomonidan savol ostiga olinadi. U ishonch bilan aytadiki, "iymon qalbdadir, libosda emas", aks holda e'tiqod kalima emas, arab kiyimi bilan bog'langan bo'lur edi.

Bu tanqidlar diniy mutaassiblik va tashqi ko'rinishga asoslangan ijtimoiy baholashlarga qarshi qaratilgan. Muallif ayrim "mullavand" kishilarni ham tanqid qilib, ularning chetdan kiyilgan biror zamonaviy kiyimni "taqlid" deb rad etib, ammo o'zlari har jihatdan boshqa madaniyatlarga ergashganini fosh qiladi. Mezon yakunida muallif liboslar zamon bilan o'zgarishini tan olib, insonlar ham zamon ruhini tushunib yashashlari kerakligini uqtiradi. U libosda emas, balki Alloh amri va Rasul sunnatida yashash zarurligini eslatadi. Aks holda, odamlar liboslar o'zgarishini tushunmay, zamon bilan murosaga kelolmay, shaklda qotib qolgan qavmlarga aylanadilar.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ushbu mezonda xalqimizdagi tashqi libosga haddan ziyod ishonch, ko'r-ko'rona e'tiqod va zamonaviylikka qarshi turish illatini ochib beradi. Libos ijtimoiy ko'rinishdir, ammo uning ortida turgan tafakkur, ma'naviy olam va zamonga munosabat inson qadrini belgilovchi asosiy mezondir. Zamon o'zgarar ekan, inson ham idrok, tafakkur va e'tiqod asosida yashamog'i lozim.

**To'qqizinchi mezonda** muallif bir asr avvalgi xalq turmushi va bugungi kun o'rtasidagi keskin tafovutni ko'rsatadi. O'tmishdagi odamlar soddadil, xiyonat va nifoqdan yiroq, rostgo'y va halol bo'lgan. Ularning bu sifatlarga ega bo'lishiga asosiy sabab — islom dini yangiligi, unga bo'lgan qat'iy e'tiqod va musulmon jamiyatdagi jamoaviy nazorat — ya'ni muhtasiblar faoliyati bo'lgan. O'sha davr liboslari va taomlari ham tabiiy, oddiy va milliy edi: "paxta to'ffi, bo'z ko'ylak, yorg'oqdan tikilgan kafsh, bug'doy oshi, sut-qatiq, tariq oshi..." Marosimlar va to'ylar esa

dabdabasiz, ixcham va ommaviy ruhda o‘tar, iftorliklarda suv va ikki non kifoya bo‘lardi. Bugungi kunda esa bu sifatlar kamaygan, ko‘pchilik riyo, nafs, yolg‘on, xusumat va xiyonat girdobida. Marosimlar dabdaba va isrofga aylangan. Shu tariqa muallif bir asr ichida sodda hayotdan ko‘r-ko‘rona taqlid va serxarajat turmush tarziga o‘tganlikni tanqid qiladi.

Xulosa qilib aytganda, haqiqiy madaniyat soddalik, halollik va ma‘naviy poklik bilan o‘lchanadi. Asrlar almashgani bilan qadriyatlar o‘zgarmasligi lozim. Aks holda, tashqi obodonlik ichki qulashni yashira olmaydi.

Mazkur asarning qiymati shundaki, uning deyarli barcha mezonlaridagi muammolar hanuzgacha dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda. Ayniqsa, oltinchi va sakkizinchi mezonlardagi holatlar hech bir o‘zgarishsiz kelayotganligi ham hayratlanarli, ham achinarli hol. Bir asrdan oshiqroq vaqt mobaynida xalqimiz ong-u tafakkurida shuncha o‘zgarish bo‘lsa-da, ammo to‘y-hasham, ma‘rakalarni kim o‘zarga o‘tkazayotganligimiz, insonning libosi, mansab-u martabasiga qarab muomala qilayotganligimiz, farzandlarning ilmi-hunarli bo‘lishi uchun sarmoya kiritish o‘rniga, shohona to‘y-bazmlar o‘tkazishga harakat qilayotganimiz, mutafakkirning ancha yillar oldin aytgan behuda sarf-xarajatlarni hozirgacha saqlab kelayotganligimizning o‘zi katta xatolarimizdandir.

Haqiqatdan ham, adibning ijtimoiy mavzulardagi qarashlari, xususan, to‘yma‘rakalardagi ko‘p xarajatlilikni „ustimizdagi og‘ir bir yuk“ deb ta‘riflaganida naqadar haq ekanligini bugun ko‘rib turibmiz. Shu bois ham asar davr tanlamagan holda jamiyatning barcha qatlamlari o‘qishi uchun munosibdir. Zotan unda ko‘tarilgan muammolar, kamchiliklar, xatolar barchamizni xulosa chiqarishga, ularni bartaraf etishga undaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Dolimov. U. Jadidlar. Is‘hoqxon to‘ra Ibrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
2. Dolimov U., Jabborov N. Is‘hoqxon Ibrat. – Toshkent: Zabarjad media, 2022.
3. Is‘hoqxon To‘ra Ibrat, “Tanlangan asarlar”. Toshkent: Ma‘naviyat, 2005.
4. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
5. <https://oliymahad.uz/39001>
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ishoqxon-ibrat-tarixi-fargona.html>

## MEHNAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA OID QARASHLAR

**Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna**

Mustaqil izlanuvchi. Farg‘ona

**Annotatsiya:** Maqolada mehnat madaniyatini shakllantirish jarayonlari, ularning o‘ziga xos jihatlari, bu borada sharq va g‘arb tajribasining ayrim masalalari xususida so‘z yuritiladi. Shu bilan birga ushbu masalada tahlillar olib boriladi.

**Kalit so‘zlar:** Mehnat madaniyati, ko‘nikma, malaka, loyiha, mehnatsevarlik, tajribalar, Islomda ijtimoiy kafolat.

Mehnat madaniyati ko‘nikmalarini egallash uchun yoshlardan bilim, saviya, zamondan xabardorlik talab etiladi. Bular asosan ikki yo‘nalishda bo‘lib, biri o‘zi tanlagan sohasini yaxshi bilishi, ikkinchisi-davlat siyosatidan, tegishli qonun-qoidalardan, bozor iqtisodiyoti asoslaridan xabardor bo‘lish bilan bog‘liqdir. Islomshunos A.Azimov shu haqda so‘z yuritir ekan, arab olimi Muhammad ash Sharaning «Islomda ijtimoiy kafolat» nomli asaridan quyidagi parchalarni keltiradi: «Mehnat muqaddas ish bo‘lib, islom unga jiddiy munosabatda bo‘lishga da‘vat etadi. Odam mehnati uning aqli va tanasi faoliyatidir»<sup>6</sup>.

Sharq mehnat madaniyati bilan G‘arb mehnat madaniyati o‘rtasida ma‘lum tafovutlarning bo‘lishi tabiiydir. Chunonchi, Sharq mehnat madaniyatida nisbatan insof, diyonat ustivorlik qiladi. G‘arb mehnat madaniyati avval ham, hozir ham individualizm alomatlari kuchli. Agar biz Amerikadagi mehnatsevarlikni Yaponiyadagi mehnatga munosabat bilan solishtirsak, yuqoridagi fikrlarning to‘g‘riligiga amin bo‘lamiz. Dunyoning eng rivojlangan ikkita mamlakatida mehnatga munosabatning o‘ziga xos ikkita yo‘li qaror topganligi bejiz emas.

Yaponiyalik professor Noriyuki Takayamaning quyidagi fikrlariga e‘tibor beraylik: «Yaponiya jamiyati o‘zaro ishonch zaminiga qurilgan. Ishonchsizlikka asoslangan jamiyat fayzsiz va zerikarlidir va bu hamisha jamiyatda totuvlik bo‘lishiga monelik qiladi. Yaponiyada jamiyat bilan hamnafas yashash va o‘zi mansub jamoaga sadoqat tuyg‘usi kuchlidir. Yaponlar, azaldan, ularni nazorat qilishyaptimi, yo‘qmi, farqi yo‘q, mehnatdan erinmaydigan xalqdir. Kimki, bunday ishonchni yo‘qotgan bo‘lsa, endi u insoniy munosabatlar hukm suradigan jamoaga qayta qo‘shila olmaydi. Ishonchga putur yetkazilmasa, o‘z hayotiy ehtiyojlari va shon-shuhratini ta‘minlashi mumkin. Yaponiyada kundalik ish faoliyatida tinimsiz izlanish tufayli katta bilimga ega bo‘lgan ziyolilar ko‘p. Shunga ko‘ra, har bir muassasada qaror pastdan tepaga qarab chiqib boradi. Xodimlarning yuqoridan farmoyish kutib o‘tirish hollari kamdan-kam uchraydi. Yaponiyaning yirik

<sup>6</sup> Азимов А. Ислам ва қозирги замон.-Т.: Ўзбекистон, 1991,56-б.

korxonalariga ishga kirayotgan har bir xodim har qancha qobiliyatli bo‘lmasin, dastlab eng quyi o‘ringa joylashtiriladi va ma’lum muddat o‘tgandan keyingina uning mavqei pog‘onama-pog‘ona o‘sib boradi. Yaponiyaning yirik muassasalarida kadrlar 2-3 yilda almashib turadi. Yangi rahbar eski xodimlarni bo‘shatib yubormaydi»<sup>7</sup>.

Endi mashhur tadbirkor Ken Xayashibaraning ayrim mulohazalari bilan tanishaylik. Ma’lumki, Xayashibara rahbarlik qilayotgan 17 ta kompaniya farmasevtika, kimyo va oziq-ovqat sanoati uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarish, bu borada ilmiy-tadqiqotlar olib borish hamda ilg‘or texnologiyalar sotishga ixtisoslashgan. «Bugungi kunda, - deydi u, - biz 10 yoki 20 yildan keyingina samara beradigan loyihalar bo‘yicha tadqiqotlar olib boryapmiz. To‘rt-besh yilda tezkor natija beradigan ilmiy-izlanishlar bizni qiziqitirmaydi. Agar boshqa bir kompaniya biror yo‘nalishdagi tadqiqotlarda yaxshiroq natijalarga erishsa, biz bu boradagi ishlarimizni darhol to‘xtatamiz. Chunki bizning maqsadimiz faqatgina foyda olish emas. Boshqa birov muayyan yo‘nalishda sendan ko‘ra ko‘proq muvaffaqiyat qozonsa, unga halal berish noto‘g‘ri.

Inson o‘zida ikki xususiyat mavjud bo‘lmaguncha ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqara olmaydi. Birinchidan, boshqalardan farq qilishga qattiq urinishingiz kerak. Ikkinchidan, siz juda sezgir bo‘lishingiz shart. Bu o‘rinda sezgirlik-biror narsani ko‘rganingizda uning yaxshiligini bilish yoki go‘zallik zohir bo‘lmagan narsada go‘zallikni ilg‘ay olish. Ijodiy salohiyat o‘zingizdagi mavjud bilim va tajribani turli uslublarda birlashtira olish qobiliyatidir»<sup>8</sup>.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida mehnat faoliyatida tezkor rejalar afzal hisoblanadi. Ularning 10-20 yilga mo‘ljallangan loyihalarga toqati yo‘q. Xodimlar va ishchilarning o‘z korxonasiga sadoqati ma’lum shaxsiy manfaatlar bilan bog‘langan. Bunday sharoitda ayrim korxonalarining sinishi, ishsizlikning ortib borishi, kadrlar qo‘nimsizligining kuchayishi tabiiy bir holdir.

Xulosa o‘rnida mehnatga munosabatning turli shakllarni o‘rganish va ularning yaxshi tomonlari egallash yosh kadrlar faoliyatining katta muvaffaqiyatlari uchun asos bo‘ladi. Bu borada sharq va g‘arb tajribasini qorishtirib o‘rganish va muxim yutuqlarini amaliyotga tadbiq etish ham foydadan xoli bo‘lmaydi. Bir so‘z bilan aytgandi mehnat madaniyati moddiy ne‘matlarni yaratish va iste‘mol qilish sohasida yuksak axloqiy-intellektual me‘yorlarni qaror toptiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. АЗИМОВ А. Ислом ва қозирги замон.-Т.: Ўзбекистон, 1991,56-б.
2. Такаяма Нориюки.Ўзбекистон ҳақида ўйлаганларим. Жаҳон адабиёти, 1997, 1-сон, 197-б.
3. Хаяшибара Кен. Эркинлик ва хавфсизлик-иктисодий тараққиётнинг асосий шарти. Халқ сўзи, 2000, 20 июнь

<sup>7</sup> Такаяма Нориюки.Ўзбекистон ҳақида ўйлаганларим. Жаҳон адабиёти, 1997, 1-сон, 197-б.

<sup>8</sup> Хаяшибара Кен. Эркинлик ва хавфсизлик-иктисодий тараққиётнинг асосий шарти. Халқ сўзи, 2000, 20 июнь

**O‘ZBEK VA FRANSUZ IRIM SIRIMLARINING  
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI  
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКИХ И  
ФРАНЦУЗСКИХ СУЕВЕРИЙ  
LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF UZBEK AND FRENCH  
SUPERSTITIONS**

**Navruzova Mutabar Erkinbayevna**

Urganch Davlat Universiteti „Roman-German filologiyasi” kafedrası o‘qituvchisi

Xorazm, O‘zbekiston

mutabarnavruzova786@mail

**Navruzova Mutabar Erkinbayevna**

Teacher, Department of Romance-Germanic Philology, Urgench State University

Khorezm, Uzbekistan

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek va fransuz irim sirimlarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini tasvirlash, o‘zbek va fransuz tillaridagi irim sirimlarining mavzu jihatidan bir-biriga o‘xshash tomonlarini ko‘rib chiqish va ulardagi mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishga harakat qilamiz.

В данной статье ставится цель проанализировать лингвокультурологические аспекты узбекских и французских суеверий, раскрывая взаимосвязь языка и культуры. Также рассматриваются тематические и смысловые сходства и различия суеверий в обоих языках, а также то, как в них отражаются национальный менталитет и характер.

This article aims to analyze the linguocultural aspects of Uzbek and French superstitions, highlighting the interconnection between language and culture. It also seeks to explore the thematic and semantic similarities and differences between superstitions in both languages, and to examine how national mentality and character are reflected within them.

**Kalit so‘zlar:** Yovuzlik, yaxshilik, lingvokulturologiya, xalq og‘zaki ijodi, lingvokulturologiya, o‘xshashlik, mentalitet, qiyoslash, timsol, psixologik e‘tiqod

**Ключевые слова:** зло, добро, лингвокультурология, устное народное творчество, сходство, менталитет, сопоставление, символ, психологическая вера

**Keywords:** evil, goodness, linguoculturology, folklore, similarity, mentality, comparison, symbol, psychological belief.

Bugungi kunda irim-sirimlar ustida qizg'in izlanishlar olib borilayotgan bir paytda, irim-sirimlarning turli jihatlarini o'rganish, etnologiya sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Irim sirimlarni qiyosiy jihatlarini o'rganish asnosida ularning lingvokulturologik jihatlariga to'xtalmay ilojimiz yo'q. Bu orqali tadqiq etayotgan tillarimizdagi irim sirimlarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini, shu til egasi bo'lmish xalqning o'ziga yarasha madaniyati va o'ziga xos mentalitetini ko'rsatishga harakat qilamiz. Ushbu maqolada o'zbek va fransuz irim sirimlarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tasvirlash, o'zbek va fransuz tillaridagi irim sirimlarining mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash tomonlarini ko'rib chiqish va ulardagi mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishiga harakat qilamiz. Til har bir millatning madaniyatini, qadriyatlarini va e'tiqodini, umuman xalqning o'ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim omildir.

Tilshunos olimlar irim sirimlarni asosan xalq og'zaki nutqining, madaniy merosning va tillar orqali shakllangan tafakkurning bir qismi sifatida o'rganadilar. Ular irim-sirimlarni nafaqat mazmuniy jihatdan, balki til birliklari (so'zlashuv shakli, leksika, semantika, frazeologiya) asosida ham tahlil qiladilar. Tilshunos olimlar irim-sirimlarni asosan xalq og'zaki nutqining, madaniy merosning va tillar orqali shakllangan kollektiv tafakkurning bir qismi sifatida o'rganadilar.

Quyida tilshunoslarning irim-sirimlarga bo'lgan yondashuvlari haqida asosiy fikrlar keltiriladi:

1. Irimlar – og'zaki nutq madaniyatining bir shakli

Ko'plab tilshunoslar (masalan, O'zbekistondagi folklorshunos va tilshunos olimlar) irimlarni xalq og'zaki ijodining kichik janriga mansub deb hisoblaydi. Irim-sirimlar: qisqa, lo'nda, ramziy ma'no yuklagan, ko'p hollarda formula shaklida bo'ladi:

“Qora mushuk yo'l kesib o'tsa – yomonlik”, “Tunda tirnoq olma – balo keladi” va h.k.

Bu jihatlari bilan ular maqollar, matallar, aforizmlar bilan bir qatorda tahlil qilinadi.

2. Tilshunoslar uchun irimlar – semantik va frazeologik qadriyatlar manbai

Tilshunoslar irimlarda ishlatiladigan so'zlar, iboralar, metaforalar orqali xalq dunyoqarashi, qadimiy tasavvurlari, diniy yoki mifologik qarashlarini o'rganadilar.

Misol: “Qora mushuk” – yovuzlik timsoli. “Tunda oynaga qarama” – sehrli narsalarning ishonchli belgisi sifatida qaralgan.

Bu orqali tilshunoslar tilning madaniy semantik qatlamini tahlil qiladilar.

3. Irimlar – ijtimoiy-lisoniy hodisa sifatida

Ba'zi tilshunoslar (masalan, sotsiolingvistlar) irimlarni jamiyatda qanday qo'llanilishi, kimlar orasida saqlanib qolganligi, qaysi hududlarda faol ishlatilishini ham tahlil qiladilar.

Masalan: Qishloq joylarda irimlar ko'proq ishlatilsa, shahar muhitida ular folklor yoki hazil ohangida uchrashi mumkin.

Tilda mavjud bo'lgan leksema o'sha xalqning turmush tarzidan ya'ni xalq tilidan kelib chiqqan bo'lib, bu bevosita irimlarda ishtirok etadi va ular orqali xalqning madaniyati aks etadi. Fransuzcha: "Le trèfle" irimini o'zbek tiliga tarjima qilsak – Naysimon barg (To'rtbargli bedana bargi)

G'arb dunyosida, qadim zamonlardan beri to'rtbargli beda omad timsoli hisoblanadi. U sevgini, omadni, baxtni, boylikni va'da qiladi va agar muqaddas suvga botirilsa, sizni jozibali qiladi ma'nosini beradi. Bu o'zbek tilida: To'qqizbarg (yoki yettibargli) rayhon:

"Rayhon bargi to'qqizta bo'lsa — tilaging ijobat bo'ladi", "Yettibarg rayhonni topgan odamga baxt kulib boqadi" degan xalq orasida tarqalgan irim-sirim orqali ifodalanadi.

Fransuz tilidagi "coccinelle" — ya'ni jonajon qo'ng'izcha, o'zbek tilida ko'pincha "xonqiz" yoki "xon qizaloq" deb ataladi. Fransuz xalqi orasida bu qo'ng'izga quyidagi xurofotlar (irimlar) bog'langan:

Fransuz xalq irimi: Agar coccinelle (xonqiz) sizning qo'lingizga qo'nsa, omad keladi.

Ba'zilari uni "Tangrining qo'ng'izi" deb ataydi. Ucha boshlasa – tilagingiz ijobat bo'ladi.

O'zbek xalqidagi mos irim: O'zbek xalq irimlarida ham xonqiz (yoki xon qizaloq) haqida o'xshash ishonch mavjud: "Qo'lingga xonqiz qo'nsa – tilaging ijobat bo'ladi", "Uni urib yuborma – omading ketadi", "Uchsin, tilagingni olib ketadi". Bolalar orasida ko'p tarqalgan mashhur aytim ham bor: "Xon qizaloq, uch osmoningga, olib ket duongni.."

Fransuz tilidagi "coccinelle" irimi o'zbek tilidagi "xonqiz" haqidagi irimlarga to'liq mos keladi. Har ikkisi ham: Ezgu, baxt va tilaklar bilan bog'liq. Qo'ng'izni ehtirom bilan qarshi olish, Uni urmaslik, balki uchirib yuborish orqali tilak tilash g'oyasiga asoslangan.

Fransuz tilidagi "les pièces" (ya'ni tangalar, mayda pullar) bilan bog'liq irim-sirimlar ham mavjud, va ular o'zbek xalq irimlariga juda yaqin ma'nolarni beradi.

Fransuz xalqidagi "les pièces" (tanga) irimlari: Yo'lda tanga topsang - omad keladi.

Ayniqsa, agar u teskari (pile) emas, yuz tomoni (face) yuqoriga qaragan bo'lsa - bu yaxshi alomat hisoblanadi. Tangani saqlab qo'ysang - boylik chaqiradi.

Ayniqsa birinchi ish haqi yoki tug'ilgan kun tangasi "porte-bonheur" (omad talismani) sifatida olib yuriladi. Tangani sovg'a qilish -omad ulashish

Yangi hamyonga pul solib berish -omad va farovonlik tilash belgisi

O'zbek xalqidagi mos irimlar: Yo'ldan tanga (pul) topish -bu xayr emas.

"Yo'ldan pul topma, egasining g'amini olasan"-bu ko'p uchraydigan o'zbekcha irim.

Ba'zida esa: "Tanga topilsa – bu kutilmagan rizq" deb qaraladi, ayniqsa eski odamlar orasida. Pul (ayniqsa mis tanga) sovg'a qilish -yomon alomat.

To'yda yoki bayramda pul bersang, "bitim qilish", "kambag'allik ulashish" deb qaraladi.

Bunday holatlarda pul ustiga biror buyum qo'shib berishadi (masalan, ro'molcha bi

lan). Hamyon bo'sh bo'lmasin. Yangi hamyonga kamida bir tanga solib berish - bu ham baraka, to'kinlik keltiradi degan ishonch mavjud.

Fransuzcha "les pièces" (tanga) irimlari o'zbek xalqidagi pul, tanga, hamyon bilan bog'liq irimlarga yarim o'xshash, yarim qarama-qarshi ma'nolarga ega: Fransuzlar pul orqali omad va baraka chaqirishga ishonadi. O'zbek xalqi esa pulni yo'ldan topish yoki uni bevosita sovg'a qilishdan ehtiyot bo'ladi, lekin hamyon ichida pul qoldirish kabi urf-odatlar o'xshash.

Fransuz tilidagi "le peigne" - bu taroq degani. Bu so'z bilan bog'liq xalqona irim-sirimlar (croyances populaires) ham mavjud va ular o'zbek xalqidagi ayrim irimlarga ma'lum darajada o'xshaydi.

Fransuz xalqidagi "le peigne" (taroq) bilan bog'liq irimlar:

Taroqni yerga tushirib yuborish -mehmon keladi. Bu ba'zan: "Si tu fais tomber ton peigne, un invité va arriver" (Taroq tushsa, mehmon keladi) deb talqin qilinadi.

Taroq sinishi – yomon alomat.

Ayniqsa eski zamonlarda taroq ayol ziynati bo'lgan va uning sinishi – dard, ayriliq yoki ko'z tegishi bilan bog'langan.

Qorong'ida taranmaslik -bu "jinlarni uyg'otish" yoki "ruhlarni chaqirish" deb qaralgan.

O'zbek xalqidagi "taroq" irimlari: Taroq tushsa – mehmon keladi. Aynan shu irim o'zbeklarda ham mavjud: "Taroq tushsa – kutilmagan mehmon keladi. Taroq sinishi – yomon belgidir.

Ayollar orasida: "Taroq sinishi – g'am, xafalik yoki dard" deb talqin qilinadi. Qorong'ida taranmaslik kerak. Bu irim juda mashhur.

"Le peigne" (taroq) bilan bog'liq fransuzcha irimlar o'zbek irimlariga juda o'xshash, hattoki bir xil deyish mumkin. Bu holat madaniyatlararo umumiy arxaik tasavvurlar (masalan, jin, ruh, ko'z tegishi, mehmon) mavjudligini ko'rsatadi.

Irim-sirimlar har bir xalqning qadimiy tafakkuri, madaniy merosi va dunyoqarashi mahsuli sifatida shakllangan bo‘lib, ular nafaqat e’tiqodiy, balki lingvokulturologik va psixologik ahamiyatga ham egadir. O‘zbek xalq irimlari hayotiy tajriba, kuzatuv va qadimiy dunyoqarash bilan uzviy bog‘liq holda avloddan-avlodga og‘zaki tarzda yetib kelgan.

Mazkur maqolada o‘zbek xalq irimlari fransuz xalqining shunga o‘xshash e’tiqodlari bilan taqqoslab o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ikki xalq madaniyatida ham baxt, omad, tilak va xavfsizlik kabi mavzular atrofida shakllangan irimlar mavjud. Masalan, xonqiz va coccinelle, to‘qqizbarg rayhon va to‘rtbargli beda, taroq tushishi bilan bog‘liq irimlar har ikki xalqda deyarli bir xil ma’noga ega.

Bu esa shuni anglatadiki, irim-sirimlar -milliy mentalitetning noyob ko‘rinishi bo‘lishi bilan birga, insoniyatga xos universal tafakkur shakllarini ham namoyon etadi. Shu boisdan ham irimlar tilshunoslik, folklorshunoslik, antropologiya va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan muhim manbalardandir.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

##### **O‘zbek tili adabiyotlari**

1. I. A. Karimov, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”, Toshkent Ma’naviyat- 2008.

2. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent: Musiqa nashriyoti, 2010.

3. Fransuzcha-o‘zbekcha-ruscha proverbial frazeologik lug‘at. 2012

4. Ziyonet.com

##### **Fransuz tili adabiyotlari**

5. Stylistique du francais moderne. 2004. Z. Abdushukurov

6. Paul Sébillot – Traditions et superstitions de la Haute-Bretagne (1882)

7. Émile Nourry (Pierre Saintyves) – Manuel de folklore (1936)

8. Christophe Lefébure – La France des croyances et des superstitions (2004)

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA TARBIYAVIY ISHLARNI  
BOSHQARISHGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH  
YO‘LLARI**

**Temirov Abdumalik Ikromovich**

Buxoro davlat pedagogika institute

**Annotatsiya:** Hozirgi vaqtda milliy ta’lim tizimi modernizatsiya qilinmoqda va uni qayta tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari belgilanmoqda: ta’limning global raqobatbardoshligini ta’minlash, uning zamonaviy ijtimoiy va jahon tendensiyalariga muvofiqligi, barkamol va ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni tarbiyalash. Shu munosabat bilan o‘qituvchining modeli yuqori darajadagi mas’uliyat, kompetensiya, muloqot moslashuvchanligi, ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlar va ijtimoiy ongning axloqiy me’yorlari bo‘yicha mutaxassis sifatida o‘zgartirilmoqda.

**Kalit so‘zlar:** kompetensiya, axborot texnologiyalari, zamonaviy tizim, ta’lim, malaka.

Zamonaviy o‘zbek jamiyatida milliy loyihalar doirasida ta’lim tizimi modernizatsiya qilinmoqda. Yangilangan maqsad va vazifalar yagona ta’lim makonini birlashtirishga, uning mazmunini rekonstruksiya qilish, zamonaviy infratuzilmani yaratish va kadrlar siyosatini modernizatsiya qilish konsepsiyasini birlashtirishga qaratilgan. Ta’lim tizimini o‘zgartirish mutaxassisning pedagogik vakolatiga juda yuqori talablarni qo‘yadi, axborot makonini qayta qurish, ta’lim resurslarini takomillashtirish sharoitida uning faoliyatini belgilaydi. Agar pedagogika tarixiga nazar tashlasak, klassik pedagogika tarafdorlarining ilmiy g‘oyalari salohiyati qanday tug‘ilganini, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, tajribali pedagog S.T.Shatskiy, XX asrning gumanist o‘qituvchisi A.S.Makarenko, o‘qituvchi ma’naviy boy, barkamol va baxtli shaxsni shakllantirishda ta’lim yetakchi o‘rinni egallaydi, deb hisoblardi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining ajralmas sifati uning kasbiy kompetensiyasi bo‘lishi kerak, ya’ni “o‘z faoliyatining u yoki bu sohasidagi bilim va kompetensiyaga” ega bo‘lishi kerak.. Psixologik lug‘atda kasbiy pedagogik kompetensiya “o‘qituvchining pedagogik faoliyatini, pedagogik muloqotini va o‘qituvchi shaxsini shakllantirishni belgilaydigan, ma’lum qadriyatlar, ideallar tashuvchisi sifatida zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi” deb ta’riflanadi. O‘qituvchi rivojlanishning yangi trayektoriyasiga kiradi, fundamental va amaliy bilimlarni kengaytiradi, kasbiy va shaxsiy fazilatlarni o‘zgartiradi, o‘zini yaratuvchi, innovator, tadqiqotchi sifatida anglaydi, jamiyatdagi ijtimoiy axloqiy va estetik qadriyatlarning tashuvchisi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday jarayonlar uning rivojlanishining “gorizontal” vektori deb ataladigan, o‘z imkoniyatlarini, ongli

ehtiyojlarini amalga oshirish yo‘lini yaratadi, bu professional kommunikatorni oqilona fikrlash, natijaga yo‘naltirilgan aks ettiruvchi madaniyat asoslari bilan aks ettiradi. Vazifalar murakkablashgani sayin o‘qituvchining kasbiy malakasi yaxshilanadi. D.M.Ivantsevich va A.A.Lobanovning so‘zlariga ko‘ra, bu “tajriba va mas’uliyat to‘plash bilan birga iste’dodning o‘sishi”dir. “Kompetensiya” tushunchasi jamiyatda keng qo‘llaniladigan atama, shu jumladan psixologik-pedagogik adabiyotlarda bir necha bor ko‘rib chiqiladi. Biroq, mualliflar bitta izoh bermaydilar. N.N.Lobanov kompetensiyani belgilaydi: “shaxsning tizimli xususiyatlari sifatida” va qismlarni ajratib turadi: kasbiy-ta’lim, kasbiy-faoliyat va kasbiy-shaxsiy [1]. A.K.Markova konsepsiyani belgilaydigan quyidagi tarkibiy qismlarni aniqlaydi: motivatsion - irodaviy, funksional, kommunikativ va reflektiv [2]. A.G.Asmolov quyidagi formula shaklida taqdim etadi: “kompetensiya – faoliyat – kompetensiya”. Faoliyatda amalga oshiriladigan kompetensiya, uning tushunchasida, shaxs sifatiga, kompetensiyaga o‘tadi. Ta’limning zamonaviy tendensiyalariga muvofiq, pedagogik kompetensiyalarga quyidagilar kiradi:

- mustaqil o‘rganish;
- malakani oshirish yoki butunlay qayta tayyorlash;
- vaziyatni va ularning imkoniyatlarini tezkor baholash;
- qarorlar qabul qilish va ular uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish;
- o‘zgaruvchan yashash va mehnat sharoitlariga moslashish;
- ishlashning yangi usullarini ishlab chiqish yoki ularni optimallashtirish uchun eskilarini o‘zgartirish.

Mutaxassislarining fikriga ko‘ra, kompetensiyalarni shakllantirishning birinchi qadamlari bu “hayotiy ko‘nikmalar” (shaxsiy muammolar, stressni yengish; vaqtni boshqarish; ko‘rsatmalarni tushunish, qoidalarga rioya qilish; hujjatlarini rasmiylashtirish, matn va raqamli ma’lumotlarni qayta ishlash va tizimlashtirish; matnlarni yozish va gapirish; ishbilarmonlik aloqalarini amalga oshirish; faol bo‘lish, nostandart yechim taklif qilish, o‘z nuqtai nazarini aql bilan himoya qila olish) va o‘z fanini o‘rgatishdir. Ta’lim jarayonining vazifalari shaxslararo darajada, yaqin muloqot jarayonida hal qilindi: o‘quvchi - o‘quvchi, o‘quvchi - jamoa, o‘quvchi - o‘qituvchi. V.A.Suxomlinskiy ta’limning mohiyati muloqotda, dialogda, bola bilan muloqotda, deb hisoblagan:

- o‘qituvchi va o‘quvchi teng sharoitda bo‘lishi kerak, ustuvorliklar yo‘q, muloqot teng asosda;
- o‘quvchi bilan muloqot uning asosiy ruhiy o‘zagi, ongli ruhiy afzalliklarini bilishga asoslangan bo‘lishi kerak;
- muloqot jarayonida o‘qituvchi o‘quvchning shaxsiy fazilatlarini o‘rganishi va mustahkamlashi, keyin esa o‘zini o‘zi baholashga o‘rgatishi kerak;

- o‘quvchi va o‘qituvchi o‘z his-tuyg‘ularida doimo samimiy bo‘lishi kerak. Bu kompetensiyalarni shakllantirish nazariy darajada amalga oshiriladi, lekin ularning aksariyati amaliyotda shakllanadi.

Maktab uchun kadrlar tayyorlashni takomillashtirish muammosi O‘zbekiston jamiyatidagi iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta‘lim fan bilan uzviy bog‘liq holda iqtisodiy o‘rish, milliy iqtisodiyotning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishning tobora kuchli harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda. Keling, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi tushunchasining bir nechta ta‘riflarini ko‘rib chiqaylik (bir nechta ta‘riflar ko‘rgazmali taxtada joylashtirilgan, o‘qituvchi ularni hech qanday baho bermasdan o‘qiydi):

Kompetensiya - bilim, qobiliyat, ko‘nikma, shuningdek, ularni faoliyatda, muloqotda, shaxsning rivojlanishida (o‘zini-o‘zi rivojlantirishda) amalga oshirish usullari va usullari. (Mitina L.M.)

Pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot yetarli darajada yuqori saviyada amalga oshiriladigan, o‘qituvchi shaxsi ro‘yobga chiqadigan, maktab o‘quvchilariga ta‘lim va tarbiya berishda yaxshi natijalarga erishiladigan o‘qituvchining ishi malakali hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘qituvchining malakasi, bir tomondan, uning kasbiy bilim va ko‘nikmalari, ikkinchi tomondan, kasbiy pozitsiyalari, psixologik fazilatlar nisbati bilan ham belgilanadi. (Markova A.K.)

Kompetentlik - bu xodimning normal va ekstremal sharoitlarda o‘z vazifalarini sifatli va aniq bajarishi, yangi narsalarni muvaffaqiyatli o‘rganishi va o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha olish qobiliyatidir. (Vesnin V.R.) Kompetensiya - ta‘lim jarayonini qurishda o‘zgaruvchanlik, optimallik va samaradorlikni ta‘minlaydigan, shaxsning bilim, ko‘nikma, xususiyat va fazilatlar majmuasini o‘z ichiga olgan murakkab shakllanishdir. (Adolf V.A.) Fan mutaxassisligi bo‘yicha fan kompetensiyasi: - o‘qitiladigan fan sohasidagi bilimlar, uni o‘qitish metodikasi. - boshqaruv kompetensiyasi, ya‘ni pedagogik tahlil o‘tkazish, maqsadlarni belgilash, faoliyatni rejalashtirish va tashkil etish ko‘nikmalariga ega bo‘lish. - reflektiv kompetensiya, ya‘ni o‘z pedagogik faoliyatining jarayoni va natijasini ko‘rish qobiliyati. - IR texnologiyalari sohasida ishlash qobiliyati bilan bog‘liq axborot-kommunikatsiya kompetensiyasi. - o‘qituvchini eksperimentator sifatida tavsiflovchi innovatsiyalar sohasidagi kompetensiya. - ijodiy kompetensiya, ya‘ni o‘qituvchining faoliyatni ijodiy, tadqiqotchilik darajasiga olib chiqish qobiliyati.

Hozirgi vaqtda o‘qituvchining kasbiy mahoratini va uning kasbiy mahorat darajasini baholashning eng dolzarb muammosini hal qilish uchun ma‘lum darajada qo‘llaniladigan turli diagnostika usullari mavjud. Bir tomondan, o‘qituvchilarni “bilim-mahorat-mahorat” formulasiga undab bo‘lmaydi, o‘qituvchi qalbining barcha olijanobligini, uning ijodining betakror lahzalarini takroriy ta‘lim-tarbiya jarayonida

o'Ichay oladigan vosita yo'q. Hech narsa o'qituvchining mehnati va idroki bilan o'lchanmaydi, ular yo'qdan paydo bo'lmaydi, balki o'qituvchining barcha oldingi tajribasi, o'zi bilan cheksiz muloqotlari bilan tayyorlanadi. Zamonaviy talablardan kelib chiqib, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy yo'llarini aniqlash mumkin:

- uslubiy birlashmalarda, ijodiy guruhlarda ishlash;
- tadqiqot faoliyati;
- innovatsion faoliyat, yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish;
- pedagogik yordamning turli shakllari;
- pedagogik tanlov va festivallarda faol ishtirok etish;
- o'z pedagogik tajribasini tarjima qilish;

- AKTdan foydalanish va boshqalar. Ammo sanab o'tilgan usullarning hech biri samarali bo'lmaydi, agar o'qituvchining o'zi o'z kasbiy mahoratini oshirish zarurligini anglamasa. Pedagogik o'sish uchun motivatsiya va qulay shart-sharoitlarni yaratish zarurati shundan kelib chiqadi. O'qituvchi o'z kasbiy fazilatlarini darajasini oshirish zarurligini mustaqil ravishda anglab yetadigan sharoitlarni yaratish kerak. O'z pedagogik tajribasini tahlil qilish o'qituvchining kasbiy o'zini-o'zi rivojlanishini faollashtiradi, buning natijasida tadqiqot qobiliyatlari shakllanadi, keyinchalik ular pedagogik faoliyat bilan birlashtiriladi. O'qituvchi maktab taraqqiyotini boshqarish jarayonida ishtirok etishi kerak, bu uning kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish - bu doimiy rivojlanish va o'z-o'zini takomillashtirishni o'z ichiga olgan individual kasbiy fazilatlarini rivojlantirishga, kasbiy tajribani to'plashga olib keladigan kasbiy tajribani o'zlashtirish va modernizatsiya qilishning dinamik jarayoni. Kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- introspeksiya va ehtiyojni anglash;
- o'z-o'zini rivojlantirishni rejalashtirish (maqsadlar, vazifalar, yechimlar);

- o'zini namoyon qilish, tahlil qilish, o'z-o'zini tuzatish. Albatta, ilmiy arboblarning pozitsiyasi o'qituvchining kompetensiyasi masalasi ilmiy hamjamiyatning diqqat markazida ekanligini aniq ko'rsatib turibdi. Shaxsning kasbiy vakolatlarini ehtiyojlarni qondirish, yuqori natijalarga erishish, moddiy yoki ma'naviy shaklda yaxshilikka erishishga qaratilgan o'z mahoratining ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini aniq biladigan shaxsning hayotiy strategiyasi sifatida muvaffaqiyatli pedagogik faoliyatning boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Shubhasiz, pedagogik kompetensiyaning tabiatiga taqdim etilgan nuqtai nazar, o'zini, atrofdagi dunyoni uyg'un qiyofasini aks ettirishga faol ta'sir ko'rsatadigan aqliy operatsiyalarning maxsus usuli bo'lib, shu bilan amaliy ko'nikmalar va dunyoqarash g'oyalarini ta'lim makonining o'ziga xos xususiyatlarida tubdan o'zgartirishga undaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Лобанова Н. Н. Профессионально-педагогическая компетентность преподавателей системы повышения квалификации и переподготовки специалистов как условие совершенствования их образования // Проблемы, поиски, опыт. СПб. 1992. С. 12–19.
2. Маркова, А. К. Психология труда учителя. — М.: ЭКСМО, 2003. 395 с.
3. Кухарев Н. В. На пути к профессиональному совершенству: книга для учителя. М.: Просвещение. 1990. 159 с.
4. Компетенции в образовании: опыт проектирования: сб. науч. тр. / под ред. А. В. Хуторского. — М.: Научно-внедренческое предприятие «ИНЭК», 2007.
5. Ушинский К. Д. Собрание сочинений Т.8, 1950 — Изд-во Академии педагогических наук.
6. Кузьмина Н. В. Педагогическое мастерство учителя как фактор развития способностей учащихся // Вопросы психологии. 1984. № 1. 27 с.
7. Борытко Н. М. В пространстве воспитательной деятельности: моногр. Волгоград: Перемена, 2001.
8. Педагогический энциклопедический словарь / Б. М. Бим-Бад, М. М. Безруких, В. А. Болотов [и др.]; гл. ред. Б. М. Бим-Бад. М.: Большая рос.энцикл., 2002.
9. Пушкин Н. В. Некоторые проблемы современной психологии мышления. М.: Знание, 1971.
10. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. М.: Академия, 2005. 352 с. Митина Л. М. Учитель как личность и профессионал. М.: Изд-во: «Дело», 1994. 216 с.
11. Teaching creative thinking to secondary school students through independent education is a pressing issue S Mirkhayitova, G Shodiyeva, M Irmatova ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10 (8), 26-31
12. Aminov B., Mirkhayitova S. Interactive Education Is a Guarantee of Quality //Eurasian Journal of History, Geography and Economics. – 2021. – Т. 2. – С. 20-23.

## SURUNKALI ODONTOGEN GAYMORITLARNI KOLDVELL-LYUK VA FESS JARROHLIK USULLARI BILAN DAVOLASHNI SAMARADORLIGI

**Abdullayeva Nigora Nusratovna**  
**Ergashev Ulug‘bek Muradovich**  
**Jumanov Davlat Azatbekovich**  
**Qobulxo‘jayev Yorqin Erkin o‘g‘li**

Surunkali odontogen yuqori jag‘ yondosh bo‘shlig‘i yallig‘lanishini (SOYJY) davolash otorinologiya va stomatologiya kabi ikki soha chorrahasida joylashgan dolzarb muammodir. Chet el va mahalliy mualliflarning kuzatuvlariga ko‘ra, odontogen sinusitning uchrash chastotasi yuqori jag‘ yondosh bo‘shliqlari (YJYB) patologiyasi bilan og‘rigan bemorlarning umumiy sonining 2 dan 25% gacha bo‘lishi mumkin [1–3].

Endoskopik jarrohlik usullari amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etilishi bilan birga, SOYJY bilan og‘rigan bemorlarni davolashda keng va shikastli jarrohlik amaliyotlaridan voz kechilib, ancha ehtiyotkor va muhim anatomik tuzilmalarni saqlab qoluvchi usullarga o‘tilmoqda. Bu esa operatsiyadan keyingi davrda YJYBning fiziologik funksiyalarini tiklash imkonini beradi [7, 8]. Tadqiqotchilar endoskopik davolashning yuqori samaradorligini qayd etadilar [9], biroq biron-bir tadqiqotda SOYJY bilan og‘rigan bemorlarda davolashdan keyingi klinik samaradorlik va hayot sifati baholanmagan.

**Tadqiqot maqsadi:** SOYJYda turli xil jarrohlik aralashuvlarining klinik samaradorligini va jarrohlik davolashdan keyingi bemorlarning hayot sifatini baholash.

**Materiallar va usullar:** Tadqiqotga 107 nafar bemor kiritildi. Ular quyidagi kompleks tekshiruvlardan o‘tkazildi:

- shikoyatlarni yig‘ish,
- anamnez,
- rinoskopiya,
- orofaringoskopiya,
- burun bo‘shlig‘i va yondosh bo‘shliqlarning endoskopiyasi (YJB),
- burun bo‘shlig‘i va YJBning multispiral kompyuter tomografiyasi (MSKT).

Tadqiqot 3 bosqichda o‘tkazildi.

1-bosqichda bemorlar Respublika ixtisoslashtirilgan Otorinologiya va Bosh - bo‘yin kasalliklari ilmiy amaliy tibbiyot markazida tanlab olindi. Barcha bemorlarga MSKT YJB aksial va frontal proyeksiyada, tomograf qadamasi 0,5 mm b o‘lgan holda o‘tkazildi.

SOYJY bilan ogʻrigan bemorlarning hayot sifatini baholashda quyidagi usullar ishlatildi:

- rinologik sogʻliq holatini aks ettiruvchi modifikatsiyalangan soʻrovnoma,
- sogʻliq holati EQ-5D shkalasi.

Soʻrovnoma: operatsiyadan oldin, 1-kunidan keyin, 1 oy va 3 oy oʻtib oʻtkazildi.

SOYJY yuzaga kelish sabablariga koʻra bemorlar quyidagicha toifalarga ajratildi (1-jadval).

**1-jadval. SOYJY yuzaga kelish sabablariga koʻra bemorlar toifalari.**

Belgilar	Bemorlar soni n=107	
	absolyut	%
Asoratlangan kariyes	28	26,2
<b>Endodont davolash usullarining asoratlari.</b>	<b>79</b>	<b>73,8</b>
<b>jumladan:</b>		
YJ boʻshligʻida yot jism	25	23,4
YJ boʻshligʻi tubi perforatsiyasi	26	24,4

SOYJYning kelib chiqish sabablari boʻyicha bemorlarni taqsimlash. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida Respublika ixtisoslashtirilgan Otorinolarologiya va Bosh - boʻyin kasalliklari ilmiy amaliy tibbiyot markazi LOR boʻlimida jarrohlik muolajalari oʻtkazildi.

1-guruh bemorlariga (n=32) yuqori jagʻ yondosh boʻshligʻiga radikal operatsiya (Kaldvell–Lyuk usuli boʻyicha) bajarildi. Polipoz oʻzgarishlar va makroskopik ravishda aniqlangan zamburugʻ infeksiyasi boʻlaklari olib tashlandi. Oroantral fistula plastikasi alveolyar oʻsimtaning vestibulyar yuzasidan va yanoq shilliq-qoʻshimcha toʻqimalaridan tayyorlangan qoplamalar bilan amalga oshirildi, ayrim hollarda tanglay qoplamasidan ham foydalanildi. Fistula yoʻli kuretaji va chetlarini yangilash oldindan bajarildi.

2-guruh bemorlariga (n=75) FESS (functional endoscopic sinus surgery) usuli boʻyicha endoskopik operatsiya bajarildi. Operatsiya "Karl Storz" firmasi uskunalari yordamida – 0°, 30°, 70° burchakli 4 mm qattiq endoskopl, videoapparatura va maxsus asboblar orqali amalga oshirildi.

Aralashuv oʻrta burun yoʻlida yuqori jagʻ yondosh boʻshligʻining tabiiy teshigini endoskopik tekshirishdan boshlandi. 0° endoskop ostida oʻrta burun chigʻanogʻi ehtiyotkorlik bilan medialga siljilib, kanca shaklidagi oʻsma rezektsiya qilindi, etmoid bulla devorlari ochildi va olib tashlandi. Soʻngra tabiiy sinus teshigi orqa va pastga yoʻnalishda 0,8 sm gacha kengaytirildi, 30° va 70° endoskopl yordamida sinus boʻshligʻi koʻzdan kechirildi.

Yondosh boʻshliqdagi yot modda va patologik toʻqima soʻrish moslamasi yordamida, poliqlar va yot jismlar antrotomik qisqichlar yordamida olib tashlandi.

E'tiborli tomoni – barcha bemorlarda endonazal kirish orqali sinus bo'shlig'ida joylashgan plombali moddalarning bo'laklari to'liq olib tashlandi. Oroantral fistulani bartaraf etish 1-guruhdagi kabi usulda amalga oshirildi.

Barcha operatsiyalar endotraxeal narkoz ostida bajarildi. Operatsiyadan so'ng tizimli antibiotik davolash o'tkazildi.

Klinik samaradorlikni baholash. Biz tomonimizdan jarrohlik aralashuvning klinik samaradorligini baholovchi maxsus shkala ishlab chiqildi. Asosiy mezonlar:

- bemorning tiklanish davri davomiyligi,
- noxush natijalar mavjudligi,
- kasallikning qaytalanishi (retsdiv).

Klinik samaradorlik quyidagicha baholandi:

“Yaxshi” – agar jarrohlik natijasida noxush holatlar va retsdivlar kuzatilmasa hamda tiklanish davri qisqa bo'lsa;

“Qoniqarli” – agar noxush natijalar bo'lsa va tiklanish davri uzoqlashsa;

“Qoniqarsiz” – agar kasallik retsdiv qilsa, noxush holatlar bo'lsa va tiklanish juda uzoq davom etsa.

Tiklanish muddati deb bemor operatsiyadan ishga qaytishigacha bo'lgan vaqt tushuniladi.

Samaradorlik quyidagi muddatlarda baholandi:

- operatsiyadan ertasi kuni,
- 1 oy va 3 oy o'tgach.

Hayot sifatini baholash. Bemorlarning hayot sifati EQ-5D modifikatsiyalangan shkalasi asosida o'rganildi. Unda quyidagilar baholandi:

- burun orqali nafas olish,
- burun ajralmalari,
- bosh og'rig'i yoki yuzdagi og'riq,
- bemorning operatsiyadan olgan natijasidan qoniqish darajasi.

Sog'liq shkalasi 0 dan 100 gacha bo'lgan termometr ko'rinishida berildi.

- “0” eng yomon sog'liq holatini,
- “100” esa bemor tasavvur qila oladigan eng yaxshi holatni bildiradi.

Uchunchi bosqich

Tadqiqotning 3-bosqichi operatsiyadan 3 oy o'tgach Moskva GKB №50 KDC bazasida o'tkazildi.

U quyidagilarni o'z ichiga oldi:

- bemorning umumiy holati va hayot sifati,
- OYBning MSKT natijalari,
- jarrohlik aralashuvning klinik samaradorligi,
- hayot sifatini yakuniy baholash.

**Natijalar va muhokama**

1-guruhda “qoniqarsiz” klinik samaradorlik 25% ni, “qoniqarli” esa 75% ni tashkil etdi. “Yaxshi” klinik natijalarga ega bemorlar aniqlanmadi.

1-guruhdagi bemorlarning kasalxonada o‘rtacha yotish muddati  $12\pm 2$  sutka, reabilitatsiya muddati esa  $18\pm 2$  sutka bo‘ldi.

2-guruh bemorlarining ko‘rsatkichlari ancha yaxshi: “qoniqarsiz” klinik samaradorlik 14,7%, “qoniqarli” — 24%, lekin bemorlarning katta qismida — 61,3% — “yaxshi” klinik samaradorlik kuzatildi.

Kasalxonada yotish muddati 7 sutkani tashkil etdi, ambulator davolanish talab etilmadi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Kaldvell–Lyuk usulidagi radikal operatsiya klinik samaradorligi past bo‘lib, operatsiyadan keyingi noxush asoratlar darajasi yuqori. Shu bilan birga, endoskopik operatsiya yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, operatsiyadan keyingi asoratlar soni kam bo‘lgan. Turli jarrohlik usullarining natijalari solishtirilganda endoskopik usulning afzalligi ochiq-oydin ko‘zga tashlanadi. Bu usul quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- nazal-antroal bog‘lanishni tiklash,
- kerak bo‘lsa, qo‘shni paranazal sinuslar sanitatsiyasi,
- sinus epiteliy qoplamasining yaxlitligi saqlanadi.

Ushbu afzalliklar operatsiyadan keyingi davrda ham yaqqol namoyon bo‘lgan. Kaldvell–Lyuk operatsiyasidan keyin bemorlar ko‘pincha quyidagi holatlardan aziyat chekishgan:

- ko‘z osti sohasida to‘qimalar shishishi,
- operatsiya sohasida og‘riq,
- sensor sezuvchanlik buzilishi,
- burundan seroz-gemorragik ajralmalar,
- burun orqali nafas olishda qiyinchilik va hokazo.

Aksincha, tadqiqotlar davomida endoskopik operatsiya ancha yengil kechdi:

bemorlarda faqat seroz-gemorragik ajralmalar va epizodik burun nafas olish buzilishi qayd etildi. Endoskopik operatsiyadan so‘ng kunlik ko‘rik, yara joyini tozalash, chokni olib tashlash kabi protseduralar talab etilmadi.

EQ-5D so‘rovnomasi bo‘yicha natijalar

1-guruh bo‘yicha EQ-5D modifikatsiyalangan shkalasi asosida olingan ma‘lumotlar ijobiy dinamikani juda sekin ko‘rsatdi. 75% bemor operatsiyadan to‘liq qoniqmagan, bu esa quyidagi omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin: davriy og‘riq saqlanib qolishi, burundan ajralmalar, burun orqali nafas olish buzilishi, ambulator davolanish paytida o‘z-o‘ziga qarashdagi qiyinchilik va noqulayliklar.

2-guruh bemorlarida hayot sifati yuqoriroq edi: og‘riq sindromi kamroq ifodalangan va tezroq yo‘qolgan, burun orqali nafas olish buzilishi va ajralmalar kamroq bo‘lgan. Jarrohlik natijasidan 82,7% bemor mamnun bo‘lgan. O‘ziga qarash bilan bog‘liq muammolar kuzatilmagan.

EQ-5D so‘rovnomasi bo‘yicha barcha baholash bosqichlarida 2-guruhda o‘rtacha ball 1-guruhga qaraganda yuqori bo‘lgan va tadqiqot oxiriga kelib 30% ga oshgan.

EQ-5D sog‘liq shkalasi bo‘yicha ham 2-guruh natijalari butun tadqiqot davomida yuqori bo‘lgan va oxirida 25% ga oshgan.

**Xulosa.** Endoskopik operatsiya yuqori jag‘ yondosh bo‘shlig‘iga eng kam travma bilan kirishni ta‘minlaydi, bu esa operatsiyadan keyingi davrni yengil kechishini, reabilitatsiya muddatining qisqarishini ta‘minlaydi.

SOYJY holatlarida endoskopik operatsiyadan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki u: yuqori klinik samaradorlikka ega, bemorlarning hayot sifatini nafaqat erta, balki uzoq muddatli davrda ham ishonchli yaxshilaydi.

### Adabiyotlar:

1. Alexander Artyushkevich, MD, Professor, Head of the Department of Maxillofacial Surgery of the Belarusian Medical Academy of Post-Graduate Education, Minsk Odontogenic sinusitis. Causes, features of treatment, 20.09.2019
2. Kruchinskiy G.V., Filippenko V.I. Odontogennyy verkhnechelyustnoy sinusit [Odontogenic maxillary sinusitis]. Mn.: Vysheyshaya shkola, 1991, 167 p. (in Russian)
3. Red’ko D.I. Sovershenstvovaniye diagnostiki i lecheniya khronicheskikh gribkovykh i gribkovo-bakterial’nykh sinusitov: Avtoref. dis. ... kand. med. nauk [Improving the diagnosis and treatment of chronic fungal and fungal-bacterial sinusitis]. Minsk, 2013, 22 p. (in Russian)
4. Timofeyev A.A. Osnovy chelyustno-litsevoy khirurgii [Fundamentals of maxillofacial surgery]. M.: MIA, 2007, 695 p. (in Russian)

**KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA FAOLIYATNI  
AMALGA OSHIRUVCHI VA UNDA ISHTIROK ETUVCHI ORGANLAR  
HAMDA SUBYEKTLAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH  
MASALALARI**

**Raxmonov Asadbek Abdulaxat o‘g‘li**

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta’lim fakulteti  
Korrupsiyaga qarshi kurash va komplayens nazorat mutaxassisligi magistranti  
[asadbekraxmonov5846@gmail.com](mailto:asadbekraxmonov5846@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi davlat organlari hamda boshqa subyektlarning institutsional va huquqiy asoslari tizimli tahlil qilinadi. Korrupsiya — davlat boshqaruvining izchilligi, iqtisodiy taraqqiyot va fuqarolarning ijtimoiy adolatga bo‘lgan ishonchiga tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida qaralib, unga qarshi kurashishning samarali mexanizmlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida baholanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va subyektlarning vazifalari, funksiyalari hamda vakolatlari tahlil qilinib, ularning huquqiy maqomi va amaliy roli yoritiladi. Maqola yakunida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha normativ va institutsional tavsiyalar ilgari suriladi, jumladan, vakolatlarning aniq chegaralanishi, axborot almashinuvi samaradorligini oshirish, fuqarolik jamiyati nazoratini kuchaytirish va huquqiy savodxonlikni oshirish bo‘yicha takliflar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** korrupsiya, halollik vaksinasi, korrupsiyaga qarshi kurashda ishtirok etuvchi organlar, korrupsiyaga qarshi kurashda ishtirok etuvchi subyektlar, organlar va subyektlar vakolatlari.

**Аннотация:** В данной статье системно анализируются институциональные и правовые основы деятельности государственных органов и иных субъектов, осуществляющих и участвующих в борьбе с коррупцией. Коррупция рассматривается как сложное социально-правовое явление, угрожающее целостности государственного управления, экономическому развитию и доверию граждан к социальной справедливости, а эффективные механизмы противодействия ей признаются одним из приоритетных направлений государственной политики. В статье анализируются задачи, функции и полномочия органов и субъектов, осуществляющих и участвующих в антикоррупционной деятельности, раскрывается их правовой статус и практическая роль. В заключении статьи выдвигаются нормативные и институциональные предложения по совершенствованию деятельности

антикоррупционных органов, в частности: четкое разграничение полномочий, повышение эффективности информационного обмена, усиление общественного контроля и повышение правовой грамотности населения.

**Ключевые слова:** Коррупция, Вакцина честности, Органы, осуществляющие деятельность по борьбе с коррупцией, Субъекты, участвующие в борьбе с коррупцией, Полномочия органов и субъектов.

**Abstract:** This article presents a systematic analysis of the institutional and legal foundations of the activities of state bodies and other entities involved in the fight against corruption. Corruption is viewed as a complex socio-legal phenomenon that poses a threat to the consistency of public administration, economic development, and citizens' trust in social justice. The development of effective mechanisms to counter corruption is recognized as one of the priority areas of state policy. The article examines the responsibilities, functions, and powers of the bodies and entities responsible for anti-corruption efforts, highlighting their legal status and practical role. In conclusion, the article puts forward regulatory and institutional recommendations for improving the effectiveness of anti-corruption agencies, including clear delineation of powers, enhancing the efficiency of information exchange, strengthening civil society oversight, and increasing legal awareness among the population.

**Keywords:** Corruption, Integrity vaccine, Anti-corruption enforcement bodies, Anti-corruption participating entities, Powers and competences of bodies and entities.

Hozirda butun dunyodaga davlatlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan, barchani tashvishga solayotgan korrupsiya xavfi ortib bormoqda. Korrupsiya – siyosat va davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy xavfli xodisa bo'lib, davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo'lgan yoki ularga tenglashtirilgan shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o'z maqomi va u bilan bog'liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, bu boylik imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishida ifodalanadi<sup>9</sup>. Taraqqiyotning yangi bosqichida O'zbekiston uchun korrupsiyaning har qanday shakldagi ko'rinishi islohotlar shiddatini va samarasini susaytirishi mumkin bo'lgan illat hisoblanadi. Darhaqiqat, Davlatimiz rahbarining 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida “Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz” deb bejizga ta'kidlanmagan. Shu sababli, Yangi O'zbekistonda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish,

<sup>9</sup> <https://uza.uz/oz/posts/korrupsiya-jamiyat-rivojiga-xavf-soluvchi-ijtimoiy-xavfli-ho-31-07-2020>

inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar doirasida barcha sohalarida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish muhitini shakllantirish talab etiladi<sup>10</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son qonuni qabul qilingan bo‘lib, mazkur qonunda aynan “korrupsiya” so‘ziga quyidagicha huquqiy ta‘rif berib o‘tilgan: “korrupsiya” — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish<sup>11</sup>dir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi organlar – bu davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida alohida vakolatga ega bo‘lgan va bevosita korrupsiyaga qarshi kurashish funksiyasini bajaruvchi institutsiyalar hisoblanib, ular bevosita davlat siyosatini shakllantiruvchi va uni amalga oshiruvchi, nazorat qiluvchi hamda korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi chora-tadbirlar ko‘ruvchi maxsus vakolatli davlat organlaridir. Ularning faoliyatini tartibga solish esa bu organlar o‘rtasida funksional taqsimot, vakolatlar doiralari, o‘zaro hamkorlik tartibi va taomili, hisobdorlik, shaffoflik va javobgarlik mexanizmlarini belgilovchi me‘yoriy-huquqiy tizim tushuniladi. Mazkur tartibga solishning asosiy maqsadi – bu korrupsiyaga qarshi kurashishda institutsional muvofiqlikni ta‘minlash, vakolatlarning takrorlanishini oldini olish, subyektlarning mas‘uliyatini kuchaytirish, ularning faoliyatida samaradorlik va hisobdorlikni mustahkamlash va ta‘minlashdan iboratdir. Ularning asosiy vazifalari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Davlat korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va korrupsiyaga qarshi strategiyalarni amalga oshirish;

Korrupsiyaviy jinoyatlarni oldini olish, ularni aniqlash va tergov qilish;

Normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaviy-huquqiy tahlil qilish (ekspertiza bilan bog‘liq harakatlar);

Davlat xizmatchilari ustidan korrupsion holatlar mavjud yoki mavjud emasligi yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish;

Moliya va byudjet nazoratiga oid tadbirlarni amalga oshirish;

Jamoatchilikka axborot berish va davlatning ochiqlikni siyosatini ta‘minlashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasiga ko‘ra, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Adliya vazirligi, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, shuningdek, O‘zbekiston

<sup>10</sup> <https://cbu.uz/uz/anti-corruption/>

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son qonuni <https://lex.uz/docs/-3088008>

Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti korrupsiyaga qarshi kurashda bevosita ishtirok etuvchi asosiy davlat organlari sifatida belgilab qo'yilgan. Mazkur organlar tarkibiga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ixtisoslashgan bo'linmalar kiradi. Ishtirokchi subyektlar esa korrupsiyaga qarshi kurashishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etadigan, qonuniy vakolatlarga ega yoki fuqarolik faolligi, nazorati, tahliliy faoliyati orqali tizimga ta'sir ko'rsatadigan nodavlat yoki yarim davlat tuzilmalaridir. Bularga Fuqarolik jamiyati institutlari(nodavlat notijorat tashkilotlari, kasaba uyushmalari), ommaviy axborot vositalari, tadbirkorlik subyektlari, fuqarolar vo hokazolar.

O'zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonuni 8<sup>1</sup>-moddasiga asosan, Agentlik o'z vakolatlari doirasida: korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini shakllantiradi va amalga oshiradi, har yili O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruza tayyorlaydi hamda uni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga kiritadi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining va Senatining korrupsiyaga qarshi kurashishga daxldor bo'lgan qo'mitalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining tegishli qo'mitasi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashlarining korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari bilan hamkorlik qiladi, korrupsiyaga oid jinoyatlarni, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga va xalqaro obro'siga putur yetkazadigan korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish natijalarini kompleks tahlil qiladi, uning yakunlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga axborot beradi.

Shu bilan birga, Agentlik korrupsiyaga oid jinoyatlar tufayli jamiyat va davlat manfaatlariga yetkazilgan zararining o'rni to'liq qoplanishiga erishilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tizimi samaradorligini tahlil qiladi, ushbu tizimni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi, fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda korrupsiyaning darajasini, shu jumladan hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimidagi darajasini baholovchi Korrupsiyani idrok etish milliy indeksini tuzishni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha quyidagi vakolatlarga ega: korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni,

dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi, korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshiradi, korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil qilishni amalga oshiradi, jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralari ko‘radi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida, shu jumladan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishda va aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta‘minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.<sup>12</sup>

Davlat xavfsizlik xizmatining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari boshqa organlar kabi “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonun da belgilangan va boshqa vakolatli organlar bilan deyarli bir xil. Uning o‘ziga xos jihati shuki, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi hamda korrupsiyaning holati va unga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi, tahlil qiladi, shuningdek, milliy xavfsizlik uchun tahdidlarni baholashni amalga oshirib, tegishli davlat organlariga zarur bo‘lgan axborotni taqdim qiladi. Shuningdek, Davlat xavfsizlik xizmati davlat organlari hamda boshqa tashkilotlarda davlat manfaatlariga va xavfsizligiga tahdid soluvchi korrupsiyaviy holatlar, huquqbuzarliklarga qarshi kurashadi, jismoniy va yuridik shaxslarning qilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga oid faktlar asosida qilgan murojaatlarini ko‘rib chiqadi va ularning buzilgan huquqlarini, erkinliklarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir zarur choralarni ko‘radi hamda korrupsiyaga qarshi kurash faoliyatini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi davlat organlari va boshqa subyektlar bilan o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Ichki ishlar vazirligi korrupsiyaga qarshi kurash sohasida aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarining hisobi

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-3088008>

yuritilishini va tahlil qilinishini ta'minlaydi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o'z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo'yilishini ta'minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi hamda boshqa vakolatli organlar kabi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.<sup>13</sup> Ichki ishlar vazirligi korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlar, xususan, xizmat intizomini kuchaytirish, shaxsiy tarkibni halollikka o'rgatish va fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish samaradorligini oshirish orqali ichki tizimdagi shaffoflikni ta'minlashga intilmoqda. Shuningdek, jinoyat turlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish, korrupsion jinoyatlarga oid statistikasi yuritish, fuqarolar ishonchini tiklash borasida ham faol ish olib borilmoqda.

Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari “Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida”gi qonunning 12-moddasida belgilab qo'yilgan. Unga asosan, Adliya vazirligi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi, aholi o'rtasida jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ'ibotga doir faoliyatni amalga oshiradi hamda muvofiqlashtiradi.

Bundan tashqari, Adliya vazirligi ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta'lim va tarbiyaga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi, normativ-huquqiy hujjatlardagi hamda ularning loyihalaridagi korrupsiya uchun shart-sharoitlar yaratadigan qoidalar va normalarni aniqlash maqsadida ushbu hujjatlar va loyihalarning tahlilini amalga oshiradi, korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'radi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi va albatta korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni ham amalga oshiradi.<sup>14</sup>

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonunga asosan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti korrupsiyaga qarshi kurash sohasida: korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish bilan

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'RQ-419-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-3088008>

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'RQ-419-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-3088008>

bog‘liq jinoyatlar, iqtisodiy va korrupsiya bilan bog‘liq boshqa jinoyatlar bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni va dastlabki tergovni amalga oshiradi. Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining boshqa davlat organlaridan farq qiladigan vakolati shuki, u jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishning ehtimol tutilgan yo‘llari va mexanizmlarini aniqlash uchun pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarning monitoringini tashkil etadi hamda o‘tkazadi, jinoiy ta‘qib etishni tashkil qilish va huquqiy ta‘sir ko‘rsatishning boshqa choralarini ko‘rish uchun tegishli davlat organlarini korrupsiyaga oid aniqlangan huquqbuzarliklar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qiladi. Shuningdek, departament korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta‘minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.<sup>15</sup>

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar, ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida: korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi, korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi, korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

**Fransiya.** Fransiyada korrupsiyaga qarshi kurashish milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va jamiyatga bo‘lgan ishonchni ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishi sifatida e‘tirof etilgan. Bu boradagi faoliyat bir nechta mustaqil organlar va qonunchilik asosida olib boriladi. Asosiy e‘tibor manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish, ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, davlat va xususiy sektor faoliyatini korrupsiyaga qarshi compliance tizimi orqali nazorat qilishga qaratilgan. **Haute Autorité pour la transparence de la vie publique (HATVP)** – 2013-yil 11-oktabrdagi 2013-907-sonli qonunga muvofiq tashkil etilgan mustaqil konstitutsiyaviy organ bo‘lib, davlat xizmatchilari, parlament a‘zolari va yuqori lavozimli shaxslarning moliyaviy manfaatlari va faoliyatining shaffofligini ta‘minlashga mas‘ul hisoblanadi. Ushbu

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-3088008>

organ quyidagi vakolatlarga ega: Mol-mulk va manfaatlar deklaratsiyalarini qabul qilish, tahlil qilish va nashr etish, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va oldini olish, e’tika va shaffoflik standartlariga rioya etilishi ustidan nazorat o‘rnatish, korrupsiyaga qarshi profilaktik choralarni taklif qilish.<sup>16</sup>

**Agence Française Anticorruption (AFA)** – bu 2016-yil 9-dekabrda mashhur Sapin II qonuni asosida tashkil etilgan profilaktik organ bo‘lib, u korrupsiyani aniqlash emas, balki uni oldini olishga qaratilgan. AFA davlat va yirik xususiy kompaniyalar uchun majburiy bo‘lgan korrupsiyaga qarshi siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish ustidan nazoratni amalga oshiradi. Asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: Korrupsiyani oldini olish siyosatlarini baholash va monitoring qilish, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimlarini tekshirish, tavsiyalar va metodologiyalar ishlab chiqish, tahliliy ma’lumotlar asosida strategiyalar ishlab chiqish. Sapin II qonuni Fransiyada yirik korxonalarini (50 mln yevrodan ortiq aylanma va 500+ xodim) compliance dasturlarini joriy qilishga majbur etgan.<sup>17</sup>

**Parquet National Financier (PNF)** – 2014-yilda tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan prokuratura bo‘lib, u yirik moliyaviy jinoyatlar, korrupsiya, poraxo‘rlik va davlat mablag‘larini talon-taroj qilish holatlarini tergov qilish va jinoiy javobgarlikka tortish bilan shug‘ullanadi. PNF faoliyati moliyaviy tergovlar uchun kuchli mutaxassislar jamoasini birlashtirgan va xalqaro darajadagi jinoyat ishlarini ham ko‘rib chiqadi.<sup>18</sup>

Shuningdek, Fransiyada korrupsiyaga qarshi kurash faqat davlat organlari bilan cheklanmaydi. **Anticor** kabi fuqarolik jamiyati tashkilotlari ham faol qatnashib, korrupsiya holatlarini jamoatchilikka oshkor qiladi va sudlarga murojaat qiladi. Ular jurnalistlar, huquqshunoslar va fuqarolarni birlashtirgan mustaqil monitoring va monitoring platformalari orqali faoliyat yuritadi.<sup>19</sup>

**Yaponiya.** Yaponiya dunyoning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlatlaridan biri bo‘lib, bu mamlakatda davlat boshqaruvi, biznes va fuqarolik jamiyati o‘rtasida shakllangan kuchli institutsional aloqalar korrupsiyaga qarshi barqaror mexanizmlarni yuzaga keltirgan. Mamlakat korrupsiyaga nisbatan «oldini olish – axloq – javobgarlik» tamoyillariga asoslangan tizimni ishlab chiqqan. Bu tizim qonunchilik, mustaqil nazorat organlari va axloqiy normalar orqali tartibga solinadi. Yaponiya korrupsiyaga qarshi kurashda davlat xizmatchilarining xatti-harakatlarini tartibga solishni ustuvor deb biladi. 1999-yil 1-mayda kuchga kirgan “**National Public Service Ethics Act**” davlat xizmatchilarining manfaatlar to‘qnashuvi, sovg‘a

<sup>16</sup> Loin 2013-907 du 11 octobre 2013 relative à la transparence de la vie publique. <https://www.legifrance.gouv.fr/loda/id/JORFTEXT000027009312>.

<sup>17</sup> Loin 2016-1691 du 9 décembre 2016 relative à la transparence, à la lutte contre la corruption et à la modernisation de la vie économique. URL: <https://www.legifrance.gouv.fr/jorf/id/JORFTEXT000033558528>

<sup>18</sup> Site officiel de l'association Anticor. URL: <https://www.anticor.org>

<sup>19</sup> Décret n° 2013-730 du 13 août 2013 au parquet national financier. URL: <https://www.legifrance.gouv.fr/jorf/id/JORFTEXT000027879244>

olish va xususiy sektor bilan munosabatlari kabi holatlarni qat’iy tartibga solgan. Ushbu qonunga binoan, davlat xizmatchilari: Ishbilarmonlik aloqalar doirasida qabul qilingan har qanday sovg’a yoki mehmondorchilik bilan bog’liq holatlarni darhol axloqiy nazoratchiga (Ethics Officer) ma’lum qilishi lozim, shaxsiy manfaatga ega bo’lgan tashkilotlar bilan xizmat doirasida aloqaga kirishishi mumkin emas, har yili moliyaviy ahvoli haqida deklaratsiya topshirishi shart. Shu bilan birga, har bir vazirlik va agentlikda etik nazorat bo’yicha mas’ul ofitser tayinlanadi va etik buzilishlar aniqlansa, intizomiy choralar ko’riladi.<sup>20</sup>

Yaponiya qonunchiligiga ko’ra, poraxo’rlik va boshqa korrupsion jinoyatlar bo’yicha tergov va jinoiy javobgarlikka tortish vakolati **Bosh Prokuratura (Public Prosecutors Office)** hamda **Milliy Politsiya Agentligi (National Police Agency)** zimmasiga yuklangan. Yaponiyada yuqori martabali siyosatchilar yoki byurokratlar korrupsion jinoyatlarda gumon qilinsa, mustaqil tergov komissiyalari tuziladi. **Yaponiya Adolatli Savdo Komissiyasi (JFTC)** davlat xaridlarida adolatsizlik, bid rigging (tender kelishuvlari) va monopoliyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat yuritadi. Garchi to’g’ridan-to’g’ri poraxo’rlikni tergov qilmasa-da, u korrupsion risklarni keltirib chiqaruvchi nohaq iqtisodiy amaliyotlarga qarshi jazo choralari qo’llaydi. Komissiya kartel tashkil etgan kompaniyalarga nisbatan yirik jarimalar belgilaydi. Masalan: 2017-yilda JFTC avtomobil qismlari bo’yicha kartelga aloqador 8 kompaniyaga 12 milliard yen jarima tayinlagan.<sup>21</sup>

Xulosa o’rnida aytishimiz joizki, O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasi davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib, bu yo’nalishdagi tashkiliy-huquqiy asoslar izchil rivojlantirilmoqda. Mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshiruvchi maxsus organlar — jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligining o’zaro muvofiqlashtirilgan faoliyati orqali korrupsion xavf-xatarlar oldi olinmoqda. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari, OAV, ilmiy muassasalar va oddiy fuqarolar ishtirokida korrupsiyaga qarshi ijtimoiy muhit shakllanmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda subyektlar faoliyatini tartibga solish yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

**Birinchidan,** normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish bo’yicha takliflar:

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi Qonunga maxsus band sifatida faoliyatni muvofiqlashtirish va subyektlararo hamkorlik mexanizmlarini aniq belgilovchi modda kiritilishi lozim;

<sup>20</sup> National Public Service Ethics Act, 1999, Law No. 129. <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/laws/view/104>.

<sup>21</sup> JFTC Annual Report 2023. URL: <https://www.jftc.go.jp/en/>.

“Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunga jurnalistik surishtiruvlar asosida rasmiy organlarning javob berish majburiyatini belgilovchi normalar qo‘shilishi kerak;

“Davlat organlarining jamoatchilik bilan aloqalari to‘g‘risida”gi alohida qonun loyihasi ishlab chiqilishi zarur.

**Ikkinchidan**, ishtirokchi subyektlar faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha taklif: Jurnalistlar, fuqarolar va NNTlar tomonidan aniqlangan korrupsiya holatlari uchun huquqiy himoya va moddiy rag‘bat tizimini joriy etish.

**Uchinchidan**, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha takliflar:

GRECO va OECD bilan hamkorlik doirasida xalqaro tajriba asosida intellektual tahdid tahlili va risk xaritalarini yaratish;

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi asosida har yili bajarilgan ishlar yuzasidan hisobotlarini jamoatchilikka ochiq e‘lon qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda subyektlar o‘rtasidagi hamkorlik korrupsiyaning ildizini yo‘q qilishda muhim omildir. Ushbu tizimda davlat organlarining vakolatlari, subyektlarning ijtimoiy faolligi va huquqiy asoslar uyg‘unligi muhim sanaladi. Amaldagi qonunchilikda muvofiqlashtirish mexanizmlarining kuchaytirilishi, ochiqlik va jamoatchilik nazorati printsiplariga asoslangan yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik va OAVning ishtiroki samarali ijtimoiy bosimni ta‘minlaydi. Tizimning samaradorligi institutlararo axborot almashinuvi, profilaktika va xolis baholashga tayanadi. Ishtirokchi subyektlarning salohiyatini huquqiy jihatdan rag‘batlantirish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Yagona yondashuv orqali korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish, fuqarolar ishonchini mustahkamlashga erishiladi. Shu bois, institutsional va normativ islohotlar izchil davom ettirilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

#### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1.1. O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son qonuni <https://lex.uz/docs/-3088008>.

#### **II. Internet manbaalari:**

2.1. <https://uza.uz/oz/posts/korrupsiya-jamiyat-rivojiga-xavf-soluvchi-ijtimoiy-xavfli-ho-31-07-2020>.

2.2. <https://cbu.uz/uz/anti-corruption/>.

2.3. <https://direct.mit.edu/daed/article/147/3/202/27206/Combating-Corruption-in-Asian-Countries-Learning>.

2.4. Loi n° 2013-907 du 11 octobre 2013 relative à la transparence de la vie publique. URL: <https://www.legifrance.gouv.fr/loda/id/JORFTEXT000027009312>.

2.5. Loi n° 2016-1691 du 9 décembre 2016 relative à la transparence, à la lutte contre la corruption et à la modernisation de la vie économique. URL: <https://www.legifrance.gouv.fr/jorf/id/JORFTEXT000033558528>.

2.6. Site officiel de l'association Anticor. URL: <https://www.anticor.org>;

2.7. Décret n° 2013730 du 13 août 2013 au parquet national financier. URL: <https://www.legifrance.gouv.fr/jorf/id/JORFTEXT00002787924>.

2.8. National Public Service Ethics Act, 1999, Law No. 129. URL: <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/laws/view/104>.

2.9. JFTC Annual Report 2023. URL: <https://www.jftc.go.jp/en/>.

## GAP LINGVISTIK BELGI SIFATIDA

**Abduraxmonova Irodaxon Shuhratjon qizi**

Qo‘qon davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

2-bosqich talabasi

Ferdinand de Sossyurning tilning belgilar tizimi ekanligi haqidagi ta‘limoti ko‘pchilik tilshunoslar tomonidan e‘tirof etilishi bilan gap ham belgilar sirasida hisoblana boshladi.

Lingvistik belgini ikki tomonlama mohiyat sifatida e‘tirof etuvchilar har qanday lisoniy belgini ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan yaxlitlik deb hisoblaydilar [2: 10-14], [5:105]. Demak, lisoniy belgi ma‘no va ifoda tomoniga ega bo‘ladi.

Gapni lingvistik belgi sifatida qarash tarafdorlari gap ham boshqa lingvistik birliklar kabi nomdir deb hisoblashardi. Bu jihatdan so‘z va gap bir-biriga juda yaqin keladi. Lekin ular nimani nomi ekanligi bilan o‘zaro farqlanadi. So‘z borliqdagi alohida narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlar nomlari bo‘lsa, gap borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlar o‘rtasidagi munosabatlarning, vaziyatlarning nomlaridir. Obyektiv borliqdagi muayyan elementlar munosabatidan tashkil topgan vaziyatlar propozitsiya deb yuritiladi [3:28]. Gap esa propozitsiya nomi sanaladi

Nomlash nazariyasi tarixida borliqdagi narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlar va propozitsiyalarni nomlash jarayoniga ikki xil yondashib kelindi.

Birichi yondashuvga muvofiq, nomlash jarayoni uch bosqichdan iborat: ongimizdan tashqarida mavjud bo‘lgan narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlar va turli xil vaziyatlar (propozitsiyalar; ularning umumlashgan tarxlarini ongimizda aks etishi; ongimizda aks etgan tarxlarning tovushlar silsilasiga orqali moddiy ifodalanishi).

Ikkinchi yondashuv tarafdorlari esa borliqdagi narsa-hodisalar, belgi-xususiyatlar, harakat-holatlar hamda xilma-xil vaziyatlar bilan ularning u yoki bu tilda ma‘lum tovushlar ketma-ketligi orqali moddiylashuvi o‘rtasidagi oraliq holatni, aks ettirish bosqichini rad etadilar. Nomlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri borliqdagi narsa-hodisalarning moddiylashubi sifatida e‘tirof etiladi.

Olamni dialektik bilish jarayonining yuqoridagi kabi uch bosqichda olib borilishini e‘tirof etadi. Nomlash borliqdagi alohida narsalarni emas, balki bir necha alohida narsalarning, belgi-xususiyatlarining, harakat-holatlarining bir-biriga solishtirilishi orqali, ularning barchasi uchun umumiy, muhim belgilarini ajratish, ularning umumlashgan taxini ongda hosil qilish va ana shu umumlashgan obrazlarni tovushlar majmuasi orqali ifodalash orqali ro‘y beradi. Demak, nom bilan borliq

a’zolari o’rtasida to’g’ridan-to’g’ri emas, balki ong orqali bog’lanish mavjuddir[3:15-17].

Nominatsiya nazariyasining ikkinchi yo’nalishi mantiqiy pozitivizm oqimiga mansub olimlar asarlarida, xususan, B.Rassel tadqiqotlarida yorqin ifodasini topadi [1:17].

Nomlash jarayonida aks ettirish bosqichini inkor qiluvchi olimlar nomlar mazmunini izohlashda bir qator mazmuniy ziddiyatlarga yo’l qo’yadilar.

Jumladan, X-Ydir jumlasidan kelib chiqadigan mazmuniy muammoni T.P.Lomtev shunday izohlaydi: X C predmetining, Y ham C predmetining nomi bo’lsin, u vaqtda (X-Y dir) gapidagi X ifodalanmishi ayni paytda Yning ham ifodalanmishi sanaladi. Bundan tashqari, gap tarkibida o’sha predmetning uchinchi nomi – Z nomi ham ishtirok etgan bo’lsin. U vaqtda (X-Y dir) gapdagi Y nomini Z nomi bilan almashtirishimiz mumkin bo’ladi. Natijada (X-Z dir) gapi hosil qilinadi. SHaraitga muvofiq, har ikki gap bir xil axborotni ifodalashi va (X-Y dir) gapidan ifodalangan axborot qanchalik haqiqat bo’lsa, (X-Z dir) gapi orqali ifodalangan axborot ham shunchalik haqiqat bo’lishi lozim. Buni shunday misol orqali tushuntirish mumkin: G’afur G’ulom (X); Abdulla Qahhor (Y), zamondoshi (-dir) gapidan anglashilgan axborot qanchalik haqiqat bo’lsa, u vaqtda G’afir G’ulom (X) “Sinchalak” muallifi (Z)ning zamondoshi (-dir) gapidan anglashilgan axborot ham shunchalik haqiqatdir. Lekin yuqoridagi kabi predmetlarni almashtirish yo’li bilan doimo bir xil axborotni ifodalab bo’lmaydi. Masalan, Toshkent – O’zbekiston poytaxti gapidagi O’zbekiston poytaxti deskripsiyasini Toshkent predmet nomi bilan almashtirilsa, u vaqtda Toshkent (X) – Toshkent (Z) dir gapi paydo bo’ladi. Garchi, keyingi gap ma’lum bir haqiqat – axborotni ifodalasa ham, lekin bu axborot birinchi gapdan anglashilgan axborot bilan teng kelmaydi. Demak, nomlash jarayonidan aks ettirish bosqichini olib tashlab, uni ikki bosqich orqali tushuntirish gap mazmunining obyektiv izohlash uchun ko’pincha monelik qiladi.

Shunday qilib, nomlash nazariyasida obyektiv olamning mavjudligi va uning inson ongida aks etishini e’tirof etish nom ifodalanmishini moddiylikning ongda aks engan umumlashgan obrazi sifatida talqin qilishga olib keladi.

Nomning ifodalanmishi deyilganda, uch usulning sintezi tushuniladi: ma’no+semantik predmet+denotat.

Ma’no bu ma’lum nomning boshqasidan farqlaydigan belgilar majmuasi sanaladi.

Semantik predmet esa shu yo’l bilan aniqlangan va ajratilgan umumlashma hisoblanadi.

Denotat esa sezgi a’zoimizga ta’sir etadigan obyektiv olam elementidir.

Nom ifodalanmishini yuqoridagi kabi tuzilishning qarindoshlik leksik-semantik guruhiga kiruvchi tog’a so’zi orqali tushuntirib ko’raylik. U quyidagi belgini

mujassam etgan ma’nodan iborat: 1) qarindosh; 2) bivosita (ona orqali); 3) mendan bir bo’g’in katta; 4) qon-qarindosh (o’gay emas); 5) erkak jinsiga mansub.

Yuqoridagi belgilarni o’zida mujassam etgan shaxs semantik predmet sanaladi. Nom ma’nosi va semantik predmet birikib obyektiv borliq uzvini aks ettiradi. Semantik predmet real predmetning aks etishidir. Tog’a so’zining yuqoridagi belgilar asosida aniqlangan semantik predmeti borliqda mavjud bo’lgan konkret shaxsni aks ettiradi. Demak, semantik predmet va real predmet nomning ifodalanmishi tarkibiga kiradi. Ularning bir-biridan farqi shundaki, biri aks etgan (tazohir), ikkinchisi esa aks etuvchi (denotat)dir.

Ifodalanmishning bunday ikki xil turi – semantik predmet va denotat o’rtasidagi prinsipial farqni T.P.Lomtev tog’a leksemasi misolida quyidagicha ko’rsatadi: Tog’a so’zining ifodalanmishi tarkibidagi semantik predmet beshta semaning konyunksiyasidan iborat: 1) erkaklik belgisi; 2) qarindosh; 3) bilvosita qarindosh (ona orqali); 4) qon-qarindosh (o’gay emas), 5) bir bo’g’in katta bo’lgan qarindosh.

Yuqoridagi ma’nolar orqali aniqlangan tog’a so’zining semantik predmeti erkak jinsiga mansub, ona orqali, mendan bir bo’g’in katta, qon-qarindosh bo’lgan shaxs hisoblanadi.

Tog’a so’zining denotati esa shaxslar dizyunksiyasi orqali beriladi: onaning akasi yoki ukasi[3:18].

Shunday qilib, sintaktik sath birligi bo’lgan gap ham borliq uzvlari bo’lishini, uning ong’dagi aksini mavjud bo’lishini va aks etgan uzvlarning tilda tovushlar vositasi yordamida moddiylashgan bo’lishini taqozo etadi. Shuning uchun sintaktik sathning asosiy birligi bo’lgan gapda ham ana shu ikki tuzilish o’z ifodasini topadi. Bulardan birinchisi ekstralingvistik omil bo’lsa, ikkinchi tuzilish esa gapning mazmuniy tuzilishini tashkil etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Ломтев Т.П. Структура предложения в современном русском языке. –М.Ж МГУ, 1979.
2. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo’nalishlari. – T.; Ta’lim, 2009.
3. Nurmonov A. va b. O’zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – T.; Fan, 1992.
4. Соссюр Ф.де. Курс общей лингвистики. Труды по языкознанию. – М.,1977.
5. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – T.; Nodirabegim, 2020

## INGLIZ TILIDA FRAZEOLOGIYANING O‘RNI VA AHAMIYATI

**Qodirova Xurshida Baxodirovna**

UrDU, o‘qituvchi

**Iskandarov Farrux Yodgor o‘g‘li**

UrDU, o‘qituvchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilida frazeologik birliklarning o‘rni, ularning semantik va strukturaviy xususiyatlari hamda ta’limdagi ahamiyati yoritilgan. Frazeologik iboralar tilning obrazli va madaniy qatlamini aks ettirib, o‘rganuvchining nutqini tabiiy va ifodali qilishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada frazeologik birliklarni o‘rganish metodlari ham ko‘rib chiqiladi.

**Annotation:** This article discusses the role of phraseological units in the English language, highlighting their semantic and structural features as well as their importance in language education. Idiomatic expressions reflect the cultural and metaphorical richness of the language and play a significant role in making learners’ speech more natural and expressive. The article also examines effective methods for teaching and learning phraseological units.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль фразеологических единиц в английском языке, их семантические и структурные особенности, а также значение в обучении. Идиоматические выражения отражают образность и культурное богатство языка, способствуя естественности и выразительности речи изучающих. Также анализируются методы изучения фразеологизмов.

**Kalit so‘zlar:** frazeologiya, ingliz tili, idiomalar, nutq ifodaliligi, til o‘rgatish, barqaror birikmalar, madaniy mazmun.

**Keywords:** phraseology, English language, idioms, speech expressiveness, language teaching, fixed expressions, cultural content

**Ключевые слова:** фразеология, английский язык, идиомы, выразительность речи, преподавание языка, устойчивые выражения, культурное содержание.

**Kirish.** Frazeologiya — bu tilshunoslikning muhim va murakkab bo‘limlaridan biri bo‘lib, u tilda mavjud bo‘lgan barqaror so‘z birikmalarining, ya’ni frazeologik birliklarning tuzilishi, ma’nosi, qo‘llanishi va funksiyalarini o‘rganadi. Frazeologik birliklar (idiomalar, iboraviy birikmalar, maqollar va boshqalar) har bir tilning milliy-mental va madaniy xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan bo‘ladi. Ayniqsa, ingliz tilida bu birliklar nutqning ajralmas va faol qismidir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili va tadqiqot metodologiyasi**

A.V. Kunin (Rossiyalik frazeolog) frazeologiyaga “Frazeologiya har bir tilning milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi va tilning boyliklarini tashkil qiluvchi eng muhim bo‘limlaridan biridir,”-deb ta’rif beradi. U ingliz tilidagi frazeologizmlarni milliy madaniyat bilan bog‘lab o‘rganishni va frazeologizm til o‘rganishda madaniy tafakkurni anglash vositasi ekanini ta’kidlaydi. A. V. **Kunin** — rus tilshunosligi va frazeologiyasi bo‘yicha taniqli olim bo‘lib, u ingliz tilidagi frazeologiyani o‘rganish va tasniflashda chuqur metodologik yondashuvni ishlab chiqqan. Uning metodologiyasi nafaqat frazeologik birliklarni aniqlash, balki ularni **semantik, grammatik va stilistik jihatdan** chuqur tahlil qilishni ham nazarda tutadi.

Wolfgang Mieder o‘zining “Proverbs: A Handbook”, “International Bibliography of Paremiology and Phraseology” asarlarida Idiomalar va maqollar tildagi donolik va xalq tajribasining ifodasidir. Ular faqat bezak emas, balki asosiy kommunikativ vositadir, deb ta’rif beradi.

Kunin ingliz frazeologiyasini **strukturaviy-semantik** va **funksional-stilistik** mezonlarga asoslanib quyidagicha tasniflaydi:

**Frazeologik birikmalar (phraseme)** — so‘zlar ma’lum mustahkamlik bilan bog‘langan, lekin umumiy ma’nosi shaffof:

*to make a decision, to take a seat.*

**1.Frazeologik birliklar (idioms)** — umumiy ma’nosi tarkibiy qismlar ma’nosidan ajralgan:

*to kick the bucket (vafot etmoq).*

**2.Frazeologik butunliklar (phraseological fusions)** — tarkibiy qismlar butunlay ma’nosiz bo‘lib, faqat umumiy ma’noda tushuniladi:

*to blow off steam (hissiyotni tushirish).*

A. V. Kuninning metodologiyasi frazeologiyani chuqur ilmiy tahlil qilish va uni tizimlashtirishga asoslanadi. Bu metodologiya nafaqat frazeologik birliklarni o‘rgatishda, balki ularning **mazmuniy qatlamlarini ochishda, madaniyatlararo tarjimada** va ingliz tilini chuqurroq o‘zlashtirishda muhim vositadir.

Ingliz tilida frazeologik birliklar juda ko‘p va xilma-xildir. Ular kundalik suhbatlardan tortib, badiiy adabiyot, jurnalistika, siyosiy nutqlar hamda ilmiy maqolalarda ham keng qo‘llaniladi. Masalan, “break the ice” (ya’ni, muhokama yoki suhbatni boshlab, noqulaylikni yo‘qotmoq), “spill the beans” (yashirin ma’lumotni oshkor qilmoq), yoki “a blessing in disguise” (dastlab salbiy tuyulgan holatning keyinchalik ijobiy ta’sir ko‘rsatishi) kabi iboralar ingliz tilining obrazli, ifodali va madaniyatga boy tuzilishini namoyon etadi.

Frazeologik birliklarning asosiy xususiyati ularning ko‘chma ma’noga ega ekanligidir. Ya’ni, ular tarkibidagi so‘zlar o‘zlarining asl lug‘aviy ma’nolarini yo‘qotib, yangi, obrazli, ko‘pincha metaforik yoki metonimik ma’no kasb etadi. Shuning uchun ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish, odatda, noto‘g‘ri yoki mazmunsiz

bo‘lib chiqadi. Misol uchun, “to kick the bucket” frazasi aslida “vafot etmoq” degan ma‘noni anglatadi, biroq uni so‘zma-so‘z “chelakni tepmoq” deb tarjima qilish mantiqsiz va mazmunsiz bo‘ladi.

Tilshunoslar frazeologik birliklarni tahlil qilishda ko‘plab metodologik yondashuvlardan foydalanadilar. Strukturaviy yondashuvga ko‘ra, frazeologik birliklar barqaror tarkibga ega bo‘lib, ularning sintaktik o‘rni o‘zgarmaydi. Ularni bo‘lib, o‘rnini almashtirib yoki sinonim bilan almashtirib bo‘lmaydi. Semantik yondashuv esa ularning kontekstual ma‘nolariga e‘tibor qaratadi. Stilistik jihatdan esa frazeologik birliklar nutqqa emotsional rang berish, ifodalilikni oshirish va ma‘noni kuchaytirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Frazeologiyaning ingliz tili ta‘limidagi o‘rni juda muhimdir. Til o‘rganuvchilar uchun frazeologik birliklarni bilish va ulardan to‘g‘ri foydalanish nafaqat til bilimlarini chuqurlashtiradi, balki ularning nutqini tabiiyroq va ona tilida so‘zlashuvchilarga yaqinlashtiradi. Frazeologiya orqali til o‘rganuvchi ingliz tilidagi madaniy, tarixiy va mantiqiy asoslarni chuqur anglaydi. Shuningdek, frazeologik birliklar yordamida ingliz tilidagi kinoyalar, hazillar, reklama matnlari yoki badiiy asarlarning ichki ma‘nosi to‘laqonli anglanadi.

Zamonaviy ingliz tili o‘quv dasturlarida frazeologik birliklarga tobora ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda. Elektron lug‘atlar, o‘quv platformalar, mobil ilovalar va interaktiv darsliklar yordamida frazeologiyani o‘rganish ancha osonlashdi. O‘rgatuvchilarga tavsiya etiladigan metodlardan biri — frazeologik birliklarni kontekstda, ya‘ni hikoyalar, dialoglar yoki maqolalar orqali o‘rgatishdir. Bu nafaqat ma‘noni chuqurroq anglashga, balki ularni yodda saqlashga ham yordam beradi.

26. Omonov, Bakhodir. "The Expression of Geopolitical Knowledge in the Works “the City of Virtuous People” and “India”." JournalNX 9.6 (2023): 16-20.

## MAKTABDA TARBIYA DARSLARINI O‘QITILISHIDA JADIDLAR TA'LIMOTINING O‘ZIGA XOS AHAMIYATI

**Begmatova Nasiba Safarbayevna**

Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti, Pedagogika fakulteti, Umumiy pedagogika  
kafedrası 1-bosqich mustaqil tadqiqotchisi

[nbegmatova@cspi.uz](mailto:nbegmatova@cspi.uz)

**Annotatsiya:** Jadidchilik yoki jadidizm arabchada- “yangi” degan ma’noni anglatib, u XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tatariston ziyolilari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat hisoblanadi. Dastlab jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O‘rta Osiyoda xususan, O‘zbekistonda tarqaldi. Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e’tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va zirotchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o‘z vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar. Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlaridan biri xalqqa ma’rifat tarqatish hisoblangan. [1]Ushbu maqolada jadidchilik namoyandalarining bola tarbiyasiga oid qarashlari, fikrlari, shuningdek, bu jarayonda mavjud imkoniyatlar haqida ma’lumotlar berilgan. Bola tarbiyasiga esa bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi maskan sifatida maktab o‘z o‘rniga ega. Unda o‘quvchilar ijtimoiy va psixologik jihatdan rivojlanib, o‘quvchilar o‘zaro kommunikativ jarayonlarni amalga oshiradilar, bu o‘rinda aytish mumkinki, o‘qituvchilar tomonidan berilayotgan ta’lim-tarbiya, ularning ijtimoiylashuvida katta o‘rin tutadi. Buni misoli sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan “Tarbiya” darsini ko‘rishimiz mumkin.

**Kalit so‘zlar:** jadidchilik, jadidlar, ta’lim-tarbiya, milliy qadriyatlar, odob-axloq qoidalari, kommunikativ jarayonlar.

## ОСОБАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ УРОКОВ ОБРАЗОВАНИЯ В ШКОЛЕ

**Аннотация:** Джадидизм, или джадидизм по - арабски - “новый”, - это социально-политическое, просветительское движение, которое приобрело важное значение в жизни интеллигенции Туркестана, Кавказа, Крыма и Татарстана в конце XIX-начале XX века. Первоначально джадидизм зародился в

Крым в 80-х годах XIX века. С 90-х годов XIX века распространился в Средней Азии, в частности, в Узбекистане. Представители джадидистского движения часто называли себя прогрессистами, а затем и джадидами. Прогрессивные прогрессивные силы того времени, прежде всего интеллигенция, осознавали необходимость реформирования общества, чувствуя, что местное население отстает от общемирового прогресса. По сути, джадидизм был прежде всего политическим движением. Из среды джадидов выросли зрелые ученые, современные знающие специалисты в области промышленности и ювелирного дела, деятели культуры, которые мечтали видеть страну процветающей и независимой от своей родины и боролись на этом пути. Одной из главных идей и целей джадидизма считалось распространение просвещения среди народа. [1] в этой статье представлены взгляды, мнения представителей джадидизма относительно воспитания детей, а также информация о возможностях, доступных в этом процессе. А школа как место, оказывающее непосредственное влияние на воспитание детей, имеет свое место. В нем учащиеся развиваются социально и психологически, а учащиеся реализуют между собой коммуникативные процессы, в которых можно сказать, что образование, предоставляемое учителями, играет большую роль в их социализации. Примером этого может служить урок "воспитание", который преподается в общеобразовательных школах.

**Ключевые слова:** Джадидизм, джадиды, образование, национальные ценности, правила этикета, коммуникативные процессы

## THE SPECIAL IMPORTANCE OF EDUCATION IN THE TEACHING OF EDUCATION LESSONS AT SCHOOL

**Annotation:** Jadidism or Jadidism, which means "new" in Arabic, is a socio-political and educational movement that played an important role in the lives of the intelligentsia of Turkestan, the Caucasus, Crimea and Tatarstan in the late 19th and early 20th centuries. Initially, Jadidism emerged in the Crimea in the 1880s. From the 1890s, it spread throughout Central Asia, particularly in Uzbekistan. Representatives of the Jadidism movement often called themselves progressives, and later Jadids. The progressive progressive forces of that time, primarily the intelligentsia, felt that the local population was lagging behind the global development and understood the need to reform society. Jadidism was, in essence, primarily a political movement. Among the Jadids, outstanding scientists, modern knowledgeable specialists in the fields of industry and agriculture, and cultural figures grew up, dreaming of seeing the country prosperous and their homeland independent, and they fought for this. One of the main ideas and goals of Jadidism was to spread enlightenment to the people. [1] This

article provides information on the views and opinions of Jadidism representatives on child upbringing, as well as on the opportunities available in this process. The school has its place as a place of direct influence on the upbringing of children. In IT, students develop spiritually and psychologically, and students carry out communicative processes among themselves, in which it can be said that the education provided by teachers plays a huge role in their socialization. As an example of this, we can see the “upbringing” lesson that is being taught in general secondary schools.

**Keywords:** Djadidism, djadidy, education, national values, rules of etiquette, communication processes

## **KIRISH**

Hozirgi rivojlanayotgan davrda yosh avlodni yetuk, barkamol, sog‘lom fikrli etib tarbiyalash, ularga ma‘naviy-ma‘rifiy bilim va axborotlarni yetkazib bera olish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ularga ta‘lim-tarbiya berish jarayonida jadidlar ta‘limotidan foydalanish, milliy qadriyatlarimizga, xususan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda tushuntirib, amalda ko‘rsata bilish tarbiya jarayonining muhim jihati desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘tmish tariximiz asosida o‘qitishning milliy va zamonaviy usullaridan foydalanish, ularda vatanparvarlik, o‘zaro hurmat, vatan ravnaqi yo‘lida hissa qo‘shish kabi ezgu xislatlarni uyg‘onishiga omil bo‘ladi. Va bu borada O‘zbekistonning bugungi yoshlariga berilayotgan ta‘lim-tarbiya va ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikni, e‘tiborning amaliy ifodasi sifatida ko‘rishimiz mumkin.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Jadidlar jamiyatning rivojlanishi uchun eng avvalo ta‘lim tizimini isloh qilish zarurligini anglab yetganlar. Ular ta‘limning faqat diniy ko‘rinishda bo‘lishi millatni jaholatda qoldirishi, dunyoviy bilimlarning yo‘qligi esa milliy taraqqiyotning asosiy to‘siqlaridan biri ekanligini tushunganlar. Shuning uchun jadidlar ta‘limni yangilash, uni zamonaviylashtirish, bolalarga sifatli va keng qamrovli bilim beradigan tizimni yaratishga e‘tibor qaratdilar. Avvalo, ular yangi usuldagi maktablarni – “usuli jadid” maktablarini tashkil qila boshladilar. Bu maktablar avvalgi eski maktab va madrasalardan tubdan farq qilardi. Unda faqat diniy ilmlar emas, balki matematika, geografiya, tarix, tabiiy fanlar kabi zamonaviy fanlar ham o‘qitila boshlandi. Bu ta‘lim tizimining bosh maqsadi yoshlarni hayot uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta‘minlash edi. Bundan tashqari, jadidlar dars jarayonida muhokama, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuv kabi usullarni qo‘llab, o‘quvchilarning faolligini oshirishga harakat qildilar. Shuningdek, jadidlarning o‘quv adabiyotlar yaratishga bo‘lgan yondashuvlari ham o‘zgacha edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Ismoil Gasprinskiy kabi jadidlar milliy til va madaniyatni

ta’limning asosiy qismiga aylantirishni maqsad qilganlar. Masalan, Behbudiy tomonidan yozilgan darsliklar oddiy va sodda tilda yozilib, o’quvchilarga mavzularni tushinishda qulaylik yaratgan. Avloniy esa “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobida nafaqat ilmiy, balki axloqiy tarbiyaga ham katta e’tibor qaratgan. Bu asar o’qituvchilarga pedagogik ishda foydalanish uchun ajoyib manba bo’lib xizmat qilgan.[2] Ularning, Vatanimiz tarixining g’oyat murakkab davrida – XX asr boshlarida o’zining ma’rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan milliy ta’lim-tarbiya tizimini yaratish hamda yurtimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta’minlashga qo’shgan beqiyos hissasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 30 sentabrdagi farmoniga ko‘ra ma’rifatparvar adib, pedagog, jamoat arbobi Abdulla Avloniy va Turkistondagi jadidchilik harakatining asoschilaridan biri, adib, pedagog va olim Mahmudxo‘ja Behbudiy atoqli ma’rifatparvar murabbiy, adib, muharrir va jamoat arbobi Munavvar qori Abdurashidxonovlarni “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlashi yosh avlod qalbida ularga nisbatan g‘urur, iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Abdulla Avloniy asarida axloqiy kategoriyalar haqida fikr yuritar ekan, birinchi o‘rinda o‘quvchilarni ko‘zda tutadi, ammo ularni bolalar tarbiyasiga singdirish vazifasini muallimlar zimmasiga yuklaydi. Demak, asar o‘quvchilardan ko‘ra ko‘proq muallimlar uchun yaratilganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Shu nuqtai nazardan, Abdulla Avloniyning muallimlarga qarata aytgan quyidagi so‘zlari “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining maqsadini to‘la ifodalaydi: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘b zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘lidur. Ta’lim ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur”[3].

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Jadidlarning faoliyatiga, ularning yoshlar tarbiyasiga oid qarashlarini yuksak e’tirof etib, Hamidulla Boltaboyevning “Jadidlar” kitobining 3-sahifasida:” Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu faikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz amal qilishlarini juda-juda istardim:” Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalaikda olgan tarbiyalariga bog‘liq” deya, Zaynobiddin Abdurashidovning “Jadidlar” kitobi 3-sahifasida Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida shunday so‘zlarni keltirib:”Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak.Bu ma’naviy

xazinani qanchako‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”-deya yoshlar tarbiyasiga urg‘u berib o‘tgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Jadidlar tomonidan yaratilgan boy ma‘naviy meros mana bir asrdan ortiq mabaynida nafaqat maktab tizimida balki, keng jabha misolida bir necha ilm ahli tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. O‘lmas va mangu hisoblangan bu milliy meros yoshlarni tarbiyalashda dasturil amal bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Yoshlarovozi.uz internet bazada bazada ham ular haqida shunday fikrlar keltirib o‘tilgan: Jadidlar ta‘lim-tarbiyani faqat maktabda o‘rgatiladigan vosita emas, balki bu o‘quvchida mustaqil fikrlash va ijodkorlik ruhini kashf etish, deb hisoblagan. Ular an‘anaviy fanlar bilan bir qatorda amaliy ko‘nikmalarga ham urg‘u beradigan yangi turdagi jadid maktablarini Toshkent, Buxoro, Qo‘qon kabi yirik shaharlarda tashkil etdilar. Jadidchilik harakatining eng yirik namoyandalardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Risolayi asbobi savod” va “Kitabul atfol” nomli asarlarida an‘anaviy o‘qitish usullarini isloh qilish bilan birgalikda zamonaviy ta‘lim tizimini amalda qo‘llash zarurligini ta‘kidlagan. U pedagoglarni o‘quvchida mustaqil fikrlash va atrof olamni savolga tuta olish qobiliyatini rivojlantirishga chaqirdi.

Qolaversa, jadidlar ta‘lim sohasidagi gender tengligini targ‘ib qildilar, ijtimoiy mavqeyi va jinsidan qat‘i nazar barcha uchun ta‘limning muhimligini bildirdi. Ularning inklyuziv ta‘lim borasidagi qarashlari o‘zbek jamiyatidagi xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishni rag‘batlanishga zamin yaratdi. Abdurauf Fitratning “Oyina” jurnalida berilgan “Xotin-qizlarning tarbiyasi- millat ravnaqi va ma‘rifatning poydevoridir” iqtibosi bu fikrning isbotidir.

Jadid me‘rosining yana bir muhim jihati ularning ta‘lim sohasida sekulyarizm – dunyoviylikni targ‘ib etishidir. Ular jamiyatda, eng avvalo, yoshlar orasida turli diniy e‘tiqodlarni hurmat qiladigan, bag‘rikenglik muhitini yaratish muhimligiga urg‘u berishgan. Munavvarqori Abdurashidxonov “Taraqqiy” jurnalidagi maqolasida bag‘rikenglik va inklyuzivlikni targ‘ib qiluvchi ta‘lim tizimi zarurligini ta‘kidlab: “Ta‘lim diniy aqidalar va xurofotlardan holi bo‘lishi, o‘quvchilarning o‘z bilimlarini oshirishi va dunyoqarashini shakillantirishi mumkin bo‘lgan makonni ta‘minlashi kerak”, degan edi.

Jadidlar ta‘limni modernizatsiya qilish, ma‘rifatparvarlik ruhini targ‘ib qilish yo‘lidagi fidoyiliklari tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Bugungi kunga kelib jadidlarni tadqiq qilishga yo‘l ochilishi biz, yoshlarning ular tasvirlagan va o‘stirishga intilgan avlod bo‘lishimizga undaydi.[7]

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, jadidlar faoliyati va ularning boy adabiy-ilmiiy merosi o‘quvchi-yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Va ularning pedagogik qarashlarini hozirgi zamon talablariga mos ravishda amalga oshirish zarur. Bu jarayonda maktabda tarbiya darslarini o‘qitilishida jadidlar ta’limotining o‘ziga xos ahamiyatini faqat dars mashg‘ulotlaridagina emas, balki turli tadbirlar ko‘rinishida “Oila, mahalla, maktab” konsepsiyasi asosida ularga yetkazilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda ta’lim, axloqiy tarbiya, zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy muhit, davlat va jamoatchilikning o‘rni muhim ahamiyatga ega. Faqat shunday yondashuv orqali biz o‘quvchi yoshlar ongida milliy ma’naviyatimiz asoslarini singdira olishimiz, ularni barkamol etib tarbiyalashimiz va kelajak avlodni zamon talablariga mos ravishda tayyorlashimiz mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Wikipedia.uz
2. To‘xtamurodov Lazizbek. “JADIDLAR HARAKATI VA UNING PEDAGOGIKA RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI” Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya maqolasi 1-2 bet  
3.uza.uz
- 4.jadid.uz
5. H.Boltaboyev. Jadidlar. Yoshlar nashriyot uyi. 2022
6. Zaynobiddin Abdirashidov. Jadidlar. Yoshlar nashriyot uyi. 2022
7. M. Abdurashidxonov "Tanlangan asarlar" Nashrga tayyorlovchi Sirojiddin Ahmedov Toshkent: Ma'naviyat, 2003
8. "Munavvarqori Abdurashidxonov" Jadidlar to'plami 8-qism Muallif Sotimjon Xolboyev Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022

**Uxtamov Bexruz**

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom Instituti 4-kurs talabasi

**Anotatsiya:** "Favoiduz Ziyoiyya" arab tili grammatikasiga oid muhim asar bo'lib, unda nahv qoidalarining izchil tahlili, til strukturasi nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Ushbu maqolada Jomiyning lingvistik metodlari, asarning grammatik tizimlashtirilishi va Qur'on hamda hadis bilan dalillanish yondashuvi batafsil o'rganiladi. Shuningdek, nahv ilmidagi turli fikrlar va usullarning muqoyasasi keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** Arab tili, nahv, Jomiy, "Favoiduz Ziyoiyya", grammatik tahlil, Qur'on bilan istishhod, Sibavayh, Ibn Molik, lingvistika, tasavvuf

**Аннотация:** "Фавоидуз Зиёийя" — важный труд по грамматике арабского языка, в котором подробно рассматриваются правила синтаксиса, теоретические и практические основы языковой структуры. В данной статье анализируются лингвистические методы Джамии, систематизация грамматики в его работе, а также подход к аргументации посредством Корана и хадисов. Кроме того, проводится сравнительный анализ различных взглядов и подходов в науке о нахве.

**Ключевые слова:** Арабский язык, нахв, Джамий, "Фавоидуз Зиёийя", грамматический анализ, аргументация Кораном, Сибавайх, Ибн Малик, лингвистика, суфизм

**Annotation:** "Favoiduz Ziyoiyya" is a significant work on Arabic grammar, providing a systematic analysis of syntactic rules, theoretical and practical aspects of linguistic structure. This article explores Jami's linguistic methods, grammatical systematization in his work, and the approach to argumentation using the Quran and Hadith. Additionally, it presents a comparative analysis of various perspectives and methodologies in Nahw studies.

**Keywords:** Arabic language, Nahw, Jami, "Favoiduz Ziyoiyya", grammatical analysis, Quranic argumentation, Sibawayh, Ibn Malik, linguistics, Sufism.

"Favoiduz Ziyoiyya" asari arab tili grammatikasiga oid muhim manbalardan biri bo'lib, mazkur asar yillar davomida Sharq filologiyasi va tilshunosligi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. Ushbu dissertatsiya mazkur asarda keltirilgan baytlarning grammatik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, tilshunoslik nuqtai nazaridan asarning o'rganilishi ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Hozirgi kunda arab tili grammatikasini chuqur o'rganish va ta'lim jarayonida ilmiy tahlil qilish zarurati mavjudligi ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Jomiy o'z sharhida qoidalarining asoslanishini nafaqat grammatik tuzilma, balki misollar va she'riy shohidlar orqali mustahkamlaydi. Sibavayhning "Al-Kitob" asarida qoidalar ko'proq qabul qilingan qoidaviy formulalarga asoslangan, Ibn Molik esa "Alfiyya"da o'z nazariyalarini she'r shaklida yozishga urg'u beradi. Jomiy bu ikki yondashuvni birlashtirib, amaliy va nazariy jihatlarni muvofiqlashtirgan.

Jomiyning yondashuvi, ayniqsa, zamonaviy tilshunoslikka o'tishda muhim oraliq bo'lib xizmat qiladi. U "Favoiduz Ziyoiyya" asarida grammatik birliklarni zamonaviy tahlilga yaqinlashtiruvchi metodologik elementlarni ham kiritgan bo'lib, bu jihatdan u klassik va zamonaviy lingvistika o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi.

"Favoiduz Ziyoiyya" Ibn al-Xojibning "Kofiya"siga yozilgan sharh bo'lib, u grammatik qoidalarni kontekstual tahlil qiladi. Bu borada u asosan al-Zamakhshariy va al-Suyutiyning izohlariga yaqin yondashadi, lekin stilistik ohang va mantiqiy uzviylikda alohida metodikani shakllantirgan. Jomiyning sharhlarida faqat grammatik izoh emas, balki til strukturasi mantiqiy asoslari va ma'no qatlamlari ham yoritilgan.

Jomiy didaktik jihatdan o'quvchilar uchun qulay tahlil uslubini tanlagan. Uning sharhlari nafaqat matnni tushuntiradi, balki o'quvchining mustaqil fikrlash ko'nikmasini ham shakllantiradi. Bu jihatdan u Sibavayhning faqat qoidaviy bayoni yoki Ibn Molikning qisqa she'riy kodlashidan farq qiladi.

Jomiyning asarida bayon etilgan fikrlar pedagogik jihatdan puxta tuzilgan bo'lib, har bir grammatik qoida izchil yoritiladi va ko'p hollarda muqobil misollar bilan mustahkamlanadi. Bu jihat uni nafaqat nazariy, balki amaliy tillarni o'qitishda ham universal qo'llanma sifatida qadrlash imkonini beradi.

"Favoiduz Ziyoiyya"dagi til strukturasi zamonaviy grammatik nazariyalar bilan ham uyg'unlashadi. Xususan, tahlil metodlari hozirgi sintaktik analiz, konstruktsion grammatika va semantik qoidalar bilan uyg'unlashuv nuqtalariga ega. Asarda morfologik birliklar (ism, fe'l, harf) turli pozitsiyalarda qanday semantik yuklama olishini ko'rsatuvchi misollar keltirilgan.

Bu, ayniqsa, arab tilining mantiqiy tizimini chuqur o'rganmoqchi bo'lgan talabalar va tadqiqotchilar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Faqatgina qoidani berish emas, balki ularning nutqiy voqealanishi va til unsurlari orasidagi bog'liqlik kabi jihatlar ham chuqur tahlil qilingan.

### **Qur'on bilan istishhod (dalillanishi)**

Shubhasiz, Qur'oni Karim arab bayon uslublari jihatidan eng yuqori cho'qqida, balog'at va fasohatning eng oliy darajasidadir. U Alloh taoloning mo'jizaviy kalomi bo'lib, Payg'ambarimiz (s.a.v.)ga amin farishta Jabroil orqali nozil qilingan. Bu muqaddas kalom hech qanday nuqson aralashmagan, oldidan ham, orqasidan ham botil kirib kelolmaydigan muhitda nozil qilingan. Qur'on bashariyat tarixida eng ishonchli matn hisoblanadi.

Muallifning Qur'on oyatlarini istishhod (dalil keltirish)dagi pozitsiyasi esa undan oldin o'tgan arab tilshunoslari va nahv ilmi ulamolari kabi bo'lib, Qur'onga nihoyatda katta e'tibor bergan. Qur'on oyatlari uning e'tiborida she'riy guvohlar (*shawahid*) dan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Muallif Qur'on oyatlarini sarf, nahv, qiroat va boshqa masalalarda misol va dalil sifatida keltirgan.

### **Hadis bilan istishhod qilish masalasi**

Nahviylar hadis bilan istishhod qilish masalasida turli fikrlarga ega bo'lganlar va hadisning nahviy qoidalarni asoslashdagi hujjat bo'lishi yoki bo'lmasligi borasida uch xil fikr mavjud:

1. **Mutlaq rad etish nuqtayi nazari** Bu pozitsiya Abu al-Hasan Ibn al-Zo'i (vaf. 680 h.) ga tegishli bo'lib, u Abu al-Hasan Ibn Xuruf (vaf. 609 h.)ni hadis bilan ortiqcha darajada istishhod qilgani uchun tanqid qilgan.

2. **Mutlaq ruxsat nuqtayi nazari** Bu pozitsiya Ibn Molik (vaf. 672 h.) va Radiy (vaf. 686 h.) ga tegishli bo'lib, ulardan keyin Dammaminiy (vaf. 827 h.) va Ibn Tayyib al-Fasiy (vaf. 1170 h.) kabi olimlar ham bu fikrni davom ettirganlar.

3. **Oraliq, ya'ni cheklangan ruxsat pozitsiyasi** Bu Abu Ishoq al-Shotibiy (vaf. 790 h.) ning pozitsiyasidir. U, agar hadis matni lafziy jihatdan aniq va ehtiyotkorlik bilan yetkazilgan bo'lsa, u bilan istishhod qilish joiz deb hisoblaydi.

### **Xulosa**

"*Favoiduz Ziyoiyya*" arab tilining morfologik va sintaktik strukturasi bo'yicha mukammal tizimlashtirilgan sharh bo'lib, unda grammatik birliklar aniq tartibda bayon etilgan. Asarda har bir grammatik kategoriya (ism, fe'l, harf) alohida yoritilib, ular o'rtasidagi sintaktik aloqalar bayon qilingan. Bu jihat arab tilining zamonaviy grammatik tahliliga asos yaratadi.

Asarda ko'plab grammatik qoidalar she'riy shohidlar va ishonchli rivoyatlarga tayangan holda keltirilgan. Bu esa grammatik konstruktsiyalarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham mustahkamlaydi.

Jomiy faqat grammatik birliklarni tahlil qilish bilan cheklanmay, balki ularning uslubiy va estetik imkoniyatlarini ham ochib bergan. Bu jihat arab adabiyotshunosligi bilan tilshunoslikni yaqinlashtiradi va zamonaviy stilistik tahlillar uchun asos yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shayx Muhammad Tantoviy. “nash’atun nahv va tarixun nuhat” Droul-maorif 2-nashr, 1119-hijriy sana.

2. Said Ahmad ibn Yusuf Bolonpuriy. “al-vafiya maqosidul kafiyati”. 2003-yil. Pokiston. Maktabatul-Bushro.

**ABU NASR FOROBIYNING ‘FOZIL ODAMLAR SHAHRI’ ASARIDA  
FUQAROLIK JAMIYATI TAMOYILLARI: NAZARIY TAHLIL VA  
ZAMONAVIY TALQIN**

**To‘ramurodov Jo‘rabek Normurod o‘g‘li**

ISFT instituti mustaqil tadqiqotchisi

[jurabek.turamuradov@gmail.com](mailto:jurabek.turamuradov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abu Nasr Muhammad Al Farobiy (870–950) — “Ikkinchi Muallim” sifatida tanilgan yirik islom faylasufining falsafiy va siyosiy g‘oyalari tahlil qilinadi. Muallif al-Faro‘bining G‘arb falsafasi, xususan Platon va Arastu ta’sirini islomiy tafakkur bilan sintez qilgani hamda “Fozil odamlar shahri” (al-Madīna al-Fāḍila) konsepsiyasini shakllantirgani ko‘rib chiqiladi. Maqolada uning siyosiy boshqaruv turlari — fozil boshqaruv (siyosat al-fāḍila) va johil boshqaruv (siyosat al-jāhila) ta’rifi, ijtimoiy qatlamlarning fazilatga asoslangan tuzilishi, adolat, ilm, axloq va ixtiyoriy erkinlik tamoyillari yoritiladi. Shuningdek, Al Farobiy ning fuqarolik jamiyati va demokratik qadriyatlarga ta’siri ham ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Al Farobiy al-Madīna al-Fāḍila, “Fozil odamlar shahri”, islom falsafasi, siyosiy falsafa, fazilat, adolat, meritokratiya, fuqarolik jamiyati, boshqaruv turlari.

**PRINCIPLES OF CIVIL SOCIETY IN ABU NASR AL-FARABI’S “CITY OF  
THE VIRTUOUS”: THEORETICAL ANALYSIS AND CONTEMPORARY  
INTERPRETATION**

**Abstract:** This article provides an in-depth examination of Abu Nasr Muhammad al-Farabi (870–950)—known as the “Second Teacher”—and his contributions to Islamic classical philosophy. It analyzes how al-Farabi synthesized Platonic and Aristotelian ideas with Islamic thought, leading to his conception of the “City of the Virtuous” (al-Madīna al-Fāḍila). The study covers his key political-philosophical principles: the harmony of reason and revelation, the primacy of virtue and justice, a merit-based social hierarchy founded on knowledge and moral excellence, and the distinct functions of society’s various strata. Special attention is paid to his distinction between virtuous governance (siyāsāt al-fāḍila) and ignorant governance (siyāsāt al-jāhila), as well as the lasting impact of his ideas on modern notions of civil society and democratic values.

**Keywords:** Al-Farabi; al-Madīna al-Fāḍila; “City of the Virtuous”; Islamic philosophy; political philosophy; virtue; justice; meritocracy; civil society; forms of governance.

Abu Nasr Muhammad Forobiy (870–950) – islom falsafasi tarixida ilk marta muayyan falsafiy maktab asos solgan va o‘z davrining eng yirik faylasufi sifatida tan olingan mutafakkirdir. U ilm-fan, axloq, dinshunoslik va siyosiy tafakkur sohalarini chuqur tahlil qilgan va G‘arb falsafasi, xususan Platon hamda Arastu ta’sirini islomiy tafakkur tizimi bilan sintez qilgan. Aynan shu faoliyati uni “al-Muallim as-Soniy” — “Ikkinchi muallim” maqomiga olib chiqdi, bu unvon unga Arastu (birinchi muallim)dan keyingi eng yirik bilim arbobi sifatida berilgan. Forobiy ayniqsa mantiq ilmi sohasida yetuk mutaxassis sifatida tanilgan bo‘lib, Arastu va Ibn Rushdning izdoshlari tomonidan yuqori baholangan.

Uning falsafiy faoliyati nafaqat metafizikani, balki siyosat, ijtimoiy muhandislik, ma’naviy-axloqiy yetuklik va jamiyat tuzilmalarini ham qamrab olgan. U Platonning “Ideal davlat” konsepsiyasini yangicha talqin qilgan va uni islomiy-falsafiy asoslar bilan uyg‘unlashtirgan holda o‘zining “Fozil odamlar shahri” (al-Madina al-Fazila) konsepsiyasini yaratgan. Aynan shu qarashlari uni musulmon Sharqida siyosiy falsafa asoschisi sifatida e’tirof etilishiga sabab bo‘ldi.[1]

Har bir inson yaxshi odob va axloqqa ega bo‘lishi, aytgan so‘zini bajarishi, yomon ishlarni qilmasligi, axloq qonun-qoidalarini bilishi va ularga qarshi chiqmasligi lozimligi haqida ham ta’kidlagan. Ilmi va o‘zidan katta insonlarni doimo hurmat qilishi o‘zi bilgan ilmni yon atrofdagilarga o‘rgatishi kerakligini uqtrib borish kerak degan fikrlar bayon etilgan.[1]

Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari — islom falsafasi tarixida nafaqat siyosiy-ijtimoiy tafakkurning yuksak namunasi, balki mukammal jamiyat konsepsiyasini nazariy jihatdan asoslovchi eng muhim manbalardan biridir. Forobiy o‘zining bu asarida jamiyat tuzilishi, boshqaruv mexanizmi, axloqiy qadriyatlar va ilmga asoslangan ijtimoiy tartibning zaruriyati haqida chuqur falsafiy mulohazalar yuritadi.[2]

Mutafakkir ideal jamiyatni “fozil jamiyat” deb ataydi va uni shunday ta’riflaydi: “Fozil shahar – bu rahbari va aholisi haqiqiy baxtga erishish yo‘lida faoliyat yuritadigan jamiyatdir” (Forobiy, Madinat al-Fazila). Bu jamiyatda rahbar ilmli, donishmand, jasoratli va axloqiy jihatdan yuksak fazilatga ega bo‘lishi kerak. Forobiyning ta’kidlashicha, rahbar “borliq haqidagi to‘liq bilimga ega bo‘lgan, jamiyatni haqiqat tomon yetaklay oladigan shaxsdir”.

Shuningdek, Forobiy jamiyatning muvaffaqiyati rahbardan tashqari, oddiy fuqaro ongining yuksakligi bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi. Har bir fuqaro o‘z ijtimoiy rolini anglab, ijtimoiy adolat tamoyillariga amal qilgan holda faol ishtirok etishi kerak. U shunday deydi: “Adolat – bu har bir insonning o‘z o‘rnida bo‘lishidir”, ya’ni ijtimoiy tizimda har kim o‘z joyini egallab, mas’uliyatini ado etmog‘i zarur.

Asarda ilm, axloq va adolat boshqaruvning ustun mezonlari sifatida ko‘rsatiladi. Bu tamoyillar orqali Forobiy mukammal jamiyatning nazariy modelini yaratadi. Bugungi fuqarolik jamiyati tushunchasi ayni shu qadriyatlarga tayangan bo‘lib, shaxsiy erkinlik, ijtimoiy mas‘uliyat va qonun ustuvorligi kabi zamonaviy demokratik tamoyillarni o‘zida mujassam etadi.[3]

Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asari hozirgi zamonda fuqarolik jamiyatining tarixiy-falsafiy ildizlarini aniqlashda, unga nazariy asos yaratishda va demokratik qadriyatlarni islomiy tafakkur doirasida talqin etishda o‘ziga xos poydevor vazifasini bajaradi.

Abu Nasr Forobiyning nazarida siyosatshunoslik – bu shunchaki davlatni boshqarish san’ati emas, balki inson xulqi, ijtimoiy tartib va ma’naviy yetuklikni ilmiy asosda o‘rganuvchi mukammal ijtimoiy fan sifatida qaraladi. U siyosiy fanni ixtiyoriy xatti-harakatlar, hayot tarzlari, bu holatlarni yuzaga keltiruvchi axloqiy sifatlar, ularni qanday shakllantirish va jamiyatda barqarorlashtirish mumkinligini tahlil qiluvchi tizimli bilim sohasi sifatida ko‘radi.

Forobiyga ko‘ra, inson hayotining eng oliy maqsadi — bu haqiqiy saodat (as-sa‘āda al-ḥaqīqiyya) ga erishishdir. Bunday saodat moddiy farovonlik yoki jismoniy ne‘matlar emas, balki ruhiy tozalik, bilimga asoslangan fazilat va oxirtdagi abadiy mukofot orqali hosil bo‘ladigan yuqori ma’naviy holatdir. Uning qarashlarida siyosiy tizim va ma’naviy saodat o‘zaro bog‘liq bo‘lib, hukumat tizimi insonning ushbu oliy maqsadga yo‘l olishini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida ko‘zda tutiladi.[4]

Forobiy jamiyat boshqaruvini ikki asosiy shaklga ajratadi: fozil boshqaruv (siyosat al-fāḍila) va johil boshqaruv (siyosat al-jāhila). Bu farqlash usuli orqali u siyosiy hokimiyatning mohiyati, maqsadi va axloqiy asoslarini izohlaydi.

Fozil boshqaruv — bu jamiyatni axloq, ilm, adolat, va donishmandlikka tayangan holda boshqaruvchi siyosiy tuzumdur. Bu tuzumning markazida fazilatli rahbar turadi, u aqliy jihatdan yetuk, ma’naviy pok, falsafiy bilimga ega va jamiyatni haqiqiy saodat sari yo‘naltira oladigan shaxs bo‘lishi kerak.

Fozil boshqaruv Forobiyning “Fozil odamlar shahri” (al-Madīna al-Fāḍila) konsepsiyasida ideal holatda namoyon bo‘ladi. Bu jamiyatda har bir a‘zo o‘z tabiatiga mos ijtimoiy o‘ringa ega bo‘ladi, va ierarxiya adolatga asoslanadi. Unda ma’naviy yetuklik siyosiy maqomdan ustun turadi, rahbar esa jamiyat axloqiy ideallarining timsoli sifatida faoliyat yuritadi.

ohil boshqaruv — bu rahbarlik boylik, shon-shuhrat, kuch yoki shaxsiy manfaatlar asosida olib boriladigan siyosiy tuzumdur. Bunday tizimda jamiyat tashqi farovonlikka intilsa-da, uning tagida axloqiy va ilmiy asoslar yo‘q. Forobiy bu turdagi boshqaruvni “soxta saodat” sari yetaklovchi, ya’ni insonni haqiqiy kamolotdan chalg‘ituvchi va ijtimoiy buzuvchilikka olib keluvchi tizim sifatida keskin tanqid qiladi.

Forobiyning fikricha, johil boshqaruv quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

- Zaruriy boshqaruv – faqat kun kechirish, hayotni davom ettirish uchun tashkil etilgan tizim;

- Pastkash boshqaruv – moddiy manfaatlar ustuvor bo‘lgan, axloqiy qadriyatlardan yiroq boshqaruv shakli;

- Timokratik, despotik yoki demokratik boshqaruvlar – Forobiyning nazarida, bularning barchasi fozil jamiyatning haqiqiy tamoyillariga zid bo‘lib, haqiqiy saodat sari yetaklay olmaydi.

Forobiy nazarida mukammal rahbar 12 fazilatga ega bo‘lishi kerak, bu fazilatlar islomiy tafakkurda payg‘ambarga xos xislatlar bilan mushtarakdir. Biroq Forobiy amaliy hayotda kamida 5 yoki 6 asosiy fazilat etarli deb hisoblaydi. Ushbu fazilatlar quyidagilardan iborat:

1. Falsafiy bilim — borliq va inson mohiyatini tushunish qobiliyati;
2. Qonunshunoslik — mavjud qonunlarni bilish va ularga amal qilish;
3. Yangi masalalarni anglash va hal qilish — siyosiy masalalarda tafsir va ijtihod qilish qobiliyati;
4. Urush san‘ati — davlatni tashqi tahdidlardan himoya qila olish;
5. Ijtimoiy tahlil — jamiyat ehtiyojlarini anglash va strategik boshqaruv;
6. Axloqiy yetakchilik — jamiyatga o‘rnak bo‘la olish, uni fazilatga yetaklash.

Bunday rahbar faylasuf-shoh, imom, qonun chiqaruvchi, va tarbiyachi rollarini birlashtiradi. U o‘z ilmini faqat nazariy emas, balki amaliy ma’noda ham qo‘llaydi va jamiyatni faqat tashqi boshqaruv emas, balki ichki ruhiy yangilanishga yetaklaydi. Forobiy nazarida bu rahbar “faol aql” (al-‘aql al-fa‘āl) — ilohiy aql bilan aloqa o‘rnatgan, ya’ni vahiy yoki ilhom oluvchi shaxs sifatida ko‘riladi.

Abu Nasr Forobiy tomonidan ishlab chiqilgan “Fozil odamlar shahri” (al-Madīna al-Fāḍila) konsepsiyasi — o‘z davrining ilg‘or ijtimoiy-siyosiy tafakkur namunasi bo‘lishi bilan birga, bugungi kun siyosat falsafasi, jamiyatshunoslik va axloqiy nazariyalar uchun ham nazariy asos bo‘la oladigan yuksak tafakkur mahsulidir. Bu kontseptsiya Forobiy ijodining markaziy falsafiy mezonlaridan biri bo‘lib, Sharq sivilizatsiyasi tarixida ideal jamiyat haqida tizimli va metafizik darajada o‘ylangan ilk tajribalardan biridir.[1]

Forobiy bu asar orqali jamiyat va davlatning asosiy vazifasi — insonni fazilatlar asosida kamolot sari yetaklash ekanini isbotlashga harakat qilgan. U jamiyatni faqat tashkiliy va siyosiy tuzilma sifatida emas, balki fazilatga asoslangan ma’naviy-iqtisodiy va axloqiy muhit sifatida ko‘radi. Forobiyga ko‘ra, “fozil jamiyat” — bu o‘z a’zolarini eng yuksak ma’naviy, ilmiy va axloqiy saodat sari olib boruvchi tizimdir. Unga ko‘ra:

“Haqqoniy jamiyat — bu shunday tuziladiki, uning har bir a’zosi o‘z kamolotini topadi va jamiyatning umumiy maqsadi — haqiqiy saodatga erishish bo‘ladi” (Forobiy, “al-Madina al-Fadila”)

Platoniy asoslar va islomiy tafakkur sintezi

Ushbu konsepsiyaning shakllanishida qadimgi yunon falsafasi, ayniqsa Platonning “Politeia” (“Ideal davlat”) asari ta’siri seziladi. Biroq Forobiy Platon qarashlarini islomiy e’tiqod, ilohiy vahiy, va shaxsiy komillik tamoyillari bilan qayta talqin etadi. Ya’ni, Forobiyning “fozil shahri” modeli sof yunoncha "logos" markazli emas, balki vahiy, aql va axloq sintezi asosida yaratilgan.[5]

Platon uchun “ideal davlat” — bu qarashlar bilan emas, tabaqalanishga asoslangan siyosiy tashkilot bo‘lsa, Forobiy uchun “fozil shahar” — bu fazilatlar va aql bilan boshqariladigan, ruhiy saodatni ko‘zlagan jamiyatdir.

Ierarxiya va meritokratiya: ijtimoiy adolatning asosi

Forobiy ijtimoiy tizimni fazilat asosida ierarxialashtiradi, lekin bu ierarxiya tabiiy yoki naslga emas, balki fazilat, bilim va ma’naviy salohiyatga bog‘liq. Har bir fuqaro o‘zining:

- bilimi,
- axloqiy yetukligi,
- jamoatga foydaliligi

asosida ijtimoiy ierarxiyadagi o‘z o‘rnini egallaydi. Bunday yondashuv zamonaviy terminologiyada meritokratiya deb ataladi va bugungi demokratik jamiyatlar uchun ham dolzarb mezon hisoblanadi.

“Kimki eng ko‘p bilim va fazilat egasi bo‘lsa, boshqaruvda o‘sha shaxs yetakchi bo‘lishi lozim”

(Forobiy, “Kitab as-Siyasa al-Madaniyya”)

Ustuvor printsiplar: Adolat, aql, vahiy va shaxsiy kamolot

Forobiyning modelida jamiyat quyidagi printsiplarga asoslanadi:

• Adolat (al-‘Adāla): Har kim o‘z salohiyatiga qarab o‘rnini egallaydi; jamiyat ijtimoiy muvozanat va funktsional muvofiqlik asosida ishlaydi.

• Aql va vahiy uyg‘unligi: Inson aqli qonunlar va siyosatni idrok etadi, vahiy esa unga ilohiy mezonni beradi; bu yondashuv hozirgi din va davlat muvozanatining falsafiy asosidir.

• Shaxsiy kamolot: Har bir fuqaro o‘z aqliy, axloqiy va ma’naviy salohiyatini doimiy ravishda oshirishga mas’uldir. Bu — fuqarolik ongining falsafiy ildizi hisoblanadi.

• Abu Nasr Forobiy o‘zining mashhur falsafiy asari \*“Fozil odamlar shahri” (al-Madīna al-Fāḍila)\*da jamiyatni oddiy ijtimoiy birlik emas, balki **fazilat, ma’naviyat, ilm va axloqiy yetuklikka asoslangan murakkab ijtimoiy-siyosiy tizim** sifatida talqin etadi. Bu yondashuv nafaqat o‘z davri uchun, balki zamonaviy siyosiy-falsafiy

tafakkur uchun ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan universal nazariy model hisoblanadi.

• Forobiy jamiyatni **fazilatga asoslangan axloqiy, iqtisodiy va siyosiy birlik** deb ko‘radi. Unga ko‘ra, insoniyat jamiyati tabiiy ehtiyojlar tufayli emas, balki **saodat (as-sa‘āda)** — ya‘ni ma‘naviy va aqliy kamolot sari intilish zarurati bilan birlashadi. Bu jarayon jamiyat a‘zolarining bir-biri bilan maqsadli va uyg‘un aloqasi orqali shakllanadi.

Forobiy jamiyatda ierarxiyani inkor qilmaydi, biroq bu ierarxiya tabiiy hukmronlik yoki boylik asosida emas, balki fazilat, ilm, aql va xizmat tamoyillari asosida shakllanishi kerakligini qat‘iy ta‘kidlaydi. U bu borada quyidagi fikrni ilgari suradi: “Eng yaxshi inson — boshqalarni eng ko‘p foydaga yetkazadigan, ularni haqiqiy saodat sari yetaklay oladigan kishidir”

Shu nuqtai nazardan, Forobiy ierarxiyani:

- axloqiy ustunlik,
- intellektual salohiyat,
- va ijtimoiy mas‘uliyat mezonlariga tayangan holda asoslaydi.

Forobiy nazarida, jamiyatning mustahkamligi va barqarorligi uch asosiy tamoyilga tayanishi kerak:

1. Axloqiy ustuvorlik – jamiyatdagi barcha qatlamlar o‘z faoliyatida halollik, adolat va fidoyilikni asosiy mezon sifatida qabul qilishi lozim.

2. Funktsional mutanosiblik – har bir qatlam o‘ziga xos funksiyani bajaradi va bu rollar o‘zaro to‘ldiruvchi va bir-biriga tayanuvchi bo‘lishi kerak.

3. G‘oyaviy birlik – barcha qatlamlar yagona umumiy maqsad — jamiyatni haqiqiy saodat sari yo‘naltirishga xizmat qilishi zarur.

Bu integratsiyalashgan yondashuv Forobiyning ideal jamiyati faqat siyosiy tuzilma emas, balki axloqiy-sivilizatsion loyiha ekanini ko‘rsatadi.

Forobiyning bu modeli zamonaviy sotsiologik yondashuvlar — xususan, strukturaviy-funksionalizm (Talcott Parsons, Emile Durkheim) bilan hamohangdir. Ular ham:

- jamiyatni o‘zaro bog‘liq funktsional qismlar tizimi deb tushuntiradi,
- va har bir qatlamning moslashuvchanligi, o‘zaro hurmat va g‘oyaviy birlik orqali jamiyatda muvozanat vujudga kelishini ta‘kidlaydi.

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” (al-Madīna al-Fāḍila) asarida jamiyatni fazilatga asoslangan axloqiy-siyosiy tuzum sifatida tasvirlaydi. U jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarni shunchaki kasbiy bo‘linish emas, balki ijtimoiy barqarorlik va saodat sari yo‘naltirilgan maqsadga muvofiq funktsional birliklar sifatida ko‘radi. Har bir qatlamning mavjudligi va faoliyati fazilat, axloqiy yetuklik va jamiyat manfaatiga xizmat qilish qobiliyatiga bog‘liq.

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” (al-Madīna al-Fāḍila) asarida jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini qatlamlarga ajratilgan tizim sifatida tasvirlaydi. Bu tizim aristokratik yoki mulkiy tabaqalashuvga emas, balki fazilat, bilim, ma’naviy salohiyat va jamiyatga xizmat darajasiga asoslanadi. Uning nazariyasida jamiyatning barqarorligi — qatlamlar o‘rtasidagi axloqiy, funksional va maqsad birligiga tayanuvchi fazilatli integratsiya orqali ta’minlanadi. Bu yondashuv strukturaviy-funksionalizm nazariyalariga yaqin bo‘lib, jamiyatni uyg‘unlik asosida faoliyat yurituvchi organizm sifatida tasvirlaydi

#### 1. Rahbar (Imom): Jamiyatning fazilatli yetakchisi

Forobiy uchun rahbar jamiyat tuzilmasining eng yuksak nuqtasida turadi. Bu shaxs “faylasuf-shoh” maqomida bo‘lib, u ilohiy ilhomga ega, aql va ma’naviyat jihatidan komil, keng qamrovli bilimlar egasidir. U nafaqat siyosiy hokimiyatni amalga oshiradi, balki qonun chiqaruvchi, axloqiy namunachi va jamiyatni haqiqiy saodat sari yo‘naltiruvchi ma’naviy yetakchidir. U “Aktiv Aql” (‘aql fa‘āl) bilan aloqada bo‘lishi sababli, Forobiy nazarida bu rahbar ilohiy qonunlarning dunyodagi vakilidir (Forobiy, al-Madīna al-Fāḍila; Mahdi, 2001).

#### 2. Bilimdonlar (Ulamo va faylasuflar): Ongni shakllantiruvchi elita

Jamiyatning ikkinchi muhim qatlamini tafakkur ahli — olimlar, din ulamolari, huquqshunoslar va faylasuflar tashkil etadi. Ular jamiyatda nazariy bilimlar asosida axloqiy me’yorlarni ishlab chiqadi, ijtimoiy ongni tarbiyalaydi, va rahbarga maslahat beradi. Bu qatlamning asosiy vazifasi — jamiyatni fikr, din, huquq va axloqiy jihatdan barqarorlashtirishdir. Ular rahbarning fikriy tayanchi sifatida faoliyat yuritadi (Al-Farabi, Kitab al-Siyasah al-Madaniyyah).

#### 3. Hunarmandlar, san’atkorlar va texnik mutaxassislar: Amaliy-estetik bazis

Ushbu qatlam jamiyatning amaliy va estetik ehtiyojlarini ta’minlovchi mutaxassislardan iborat. Bunga arxitektorlar, muhandislar, ustalar, san’atkorlar, dizaynerlar va kommunikatsiya sohasi vakillari kiradi. Forobiy bu qatlamni jamiyatning tashqi ko‘rinishi va texnologik rivojiga hissa qo‘shuvchi kuch sifatida ko‘radi. Ularning faoliyati jamiyatdagi estetik uyg‘unlik, texnik taraqqiyot va infratuzilma barqarorligining garovidir.

#### 4. Dehqonlar, ishchilar va ishlab chiqaruvchilar: Iqtisodiy asos va barqarorlik manbai

Jamiyatning eng asosiy tayanchi — ishlab chiqaruvchi qatlamdir. Bu qatlamga dehqonlar, quruvchilar, ishchilar, transportchilar va energetika sohasida mehnat qiluvchi mutaxassislar kiradi. Ular jamiyatning moddiy ehtiyojlarini qondiradi, hayotiy resurslar bilan ta’minlaydi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi. Forobiy ularni mehnatsevarlik va halollik bilan jamiyatning umurtqa poydevori deb ta’riflaydi.

Fazilatga asoslangan ijtimoiy muvozanat

Forobiy nazariyada ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi munosabatlar raqobat yoki sinfiy kurash asosida emas, balki fazilat, axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy manfaat tamoyillariga asoslangan. Har bir qatlam jamiyatni bir butun tizim sifatida shakllantirishda o‘z o‘rnini egallaydi. U quyidagi integratsion mezonlarni asos qilib oladi:

**Axloqiy integratsiya:** Har bir qatlam o‘z faoliyatini vijdon, halollik va jamiyatga sadoqat asosida olib borishi zarur.

**Funksional integratsiya:** Har bir qatlam o‘ziga xos ijtimoiy ehtiyojni qondiradi; bir-birining o‘rnini egallashi mumkin emas.

**G‘oyaviy integratsiya:** Barcha qatlamlar yagona oliy maqsad — haqiqiy saodat sari yo‘nalgan bo‘lishi kerak.

Forobiy nazariyasi nafaqat o‘z zamonasi uchun, balki bugungi demokratik va fuqarolik jamiyatlari tushunchasini chuqur tushunishda ham dolzarb ahamiyatga ega. U ilgari surgan asosiy qadriyatlar — adolat, axloq, ilm va erkinlik — hozirgi zamonaviy fuqarolik jamiyatining tayanch tushunchalari bilan to‘liq hamohangdir.

1. Adolat (al-‘adāla): Tuzilmalarning axloqiy va funksional muvozanati Forobiy jamiyatdagi adolatni “har bir shaxs o‘ziga mos o‘rinda bo‘lishi” tamoyiliga asoslaydi (Forobiy, al-Madīna al-Fāḍila). Bu “tashkiliy adolat” tushunchasi Platonning “har kim o‘z ishini bajarsin” degan g‘oyasini eslatsa-da, Forobiy uni islomiy axloq va vahiyning asoslari bilan boyitadi. Adolat faqat sud yoki qonun doirasidagi adolat emas, balki har bir qatlam va shaxsning jamiyatdagi o‘rnini ijtimoiy fazilatlar bilan belgilashga qaratilgan. Zamonaviy fuqarolik jamiyatlarida ham adolat nafaqat tenglik, balki imkoniyatlar tengligini ta‘minlash orqali amalga oshiriladi.

2. Axloq (al-akhlāq): Jamiyatning ruhiy asoslari. Forobiyning fikricha, har qanday jamiyatning uzoq umr ko‘rishi uning axloqiy negiziga bog‘liq. Axloq nafaqat shaxsiy fazilatlar majmuasi, balki ijtimoiy tizimni barqarorlashtiruvchi asosiy tayanchdir. Rahbar, bilimdon, ishlab chiqaruvchi yoki san‘atkor bo‘lishidan qat’i nazar, har bir fuqaro axloqiy mezonlarga muvofiq yashashi kerak. Bu konsepsiya bugungi fuqarolik jamiyatlarida “ijtimoiy kapital”, “mas’uliyatli fuqaro” va “madaniy yetuklik” tushunchalari bilan parallel tarzda talqin qilinadi.

3. Ilm (al-‘ilm): Ma‘rifatli boshqaruv va faol ishtirok. Forobiy ilmni jamiyat taraqqiyotining asosiy manbai sifatida ko‘radi. Unga ko‘ra, bilim egasi bo‘lmagan kishi na boshqarishga, na yetakchilikka loyiq bo‘lishi mumkin. Haqiqiy rahbar — ilm va hikmat bilan qurollangan shaxsdir. Shu jihatdan Forobiyning konsepsiyasi meritokratik tamoyillar bilan uyg‘unlashadi. Zamonaviy fuqarolik jamiyatlarida esa ilmiy tafakkur, ochiq muloqot va tanqidiy fikr yuritish demokratik institutlarning faoliyati uchun muhim shart hisoblanadi.

4. Erkinlik (ḥurriyya): Ixtiyoriy harakat va tanlov orqali erkinlik. Forobiy bevosita “erkinlik” atamasini ishlatmagan bo‘lsa-da, uning “ixtiyoriy harakatlar va

axloqiy tanlov” haqidagi qarashlari erkinlikning ma’naviy va falsafiy talqiniga asos bo’ladi. Unga ko’ra, insonning komillikka erishishi uning ongli tanlovi va ichki erkinligiga bog’liq. Bu bugungi fuqarolik jamiyatlaridagi huquqiy erkinlik, so‘z va e’tiqod erkinligi, shuningdek, harakat va tashkilot tuzish erkinligi bilan mos tushadi.

Abu Nasr Forobiy ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot masalalarini tahlil etar ekan, jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida fuqarolarning ongli, axloqiy va maqsadga yo’naltirilgan ishtirokini alohida ajratib ko’rsatadi. Forobiyga ko’ra, har bir fuqaro o‘z ijtimoiy rolini va axloqiy mas’uliyatini to’laqonli anglab, faol ijtimoiy pozitsiyaga ega bo’lishi zarur. Bu qarash — jamiyatni faqat markazlashgan hokimiyatning bir tomonlama boshqaruvi emas, balki insonlarning ixtiyoriy va ongli hamkorligi orqali barpo etiladigan murakkab tizim sifatida ko’rishga imkon beradi (Forobiy, al-Madīna al-Fādila).

Forobiyning ushbu yondashuvi zamonaviy siyosiy nazariyalarda “quyi qatlamdan yuqoriga qarab ishtirok” (bottom-up participation) tamoyili bilan uyg’unlashadi. Masalan:

Robert Dahlning pluralistik demokratiya nazariyasida jamiyatdagi qarorlar turli guruhlar o’rtasidagi erkin va ongli muloqot orqali shakllanadi, bu esa Forobiy ta’riflagan ijtimoiy uyg’unlik va rollarning mohiyatini eslatadi;

Jurgen Habermasning kommunikativ harakat nazariyasida esa ijtimoiy tizimlar o‘z-o‘zini anglaydigan, tushunishga qaratilgan va axloqiy asosga tayanuvchi muloqot orqali shakllanadi — bu esa Forobiy ta’kidlagan hikmatli maslahat va axloqiy muvofiqlik prinsipi bilan bevosita mushtaraklik kasb etadi.

Shuningdek, Forobiy fuqarolikni nafaqat tashqi faoliyat sifatida, balki ichki ma’naviy taraqqiyot bilan bog’liq ongli harakat deb talqin qiladi. Insonning o‘zini doimiy ravishda axloqiy va aqliy jihatdan takomillashtirishi jamiyat taraqqiyotining ajralmas sharti sifatida qaraladi. Bu yondashuv, bugungi kunda demokratik jamiyatlar uchun muhim tamoyilga aylangan:

- “lifelong learning” (umrbod ta’lim),
- “civic competence” (fuqarolik kompetensiyasi yoki savodxonligi)

kabi konsepsiyalar bilan hamohangdir. Bu tamoyillar, shuningdek, BMT (UNESCO, UNDP) va Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlarning zamonaviy fuqarolik rivoji bo‘yicha strategiyalarida asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘zda tutilgan.

Forobiy konsepsiyasidagi ongli fuqarolik, shuningdek, jamiyat a’zolarining shaxsiy manfaatlaridan yuksak bo’lgan umumiy maqsad sari — ya’ni “saodat” sari yo’naltirilganligi bilan ajralib turadi. Unga ko’ra, faqat o‘zini anglay olgan, ilmga, adolatga va fazilatga asoslangan faol fuqaro jamiyatda fozil tizimning muhim ishtirokchisiga aylanadi.

Abu Nasr Forobiy siyosiy rahbarlikni faqatgina hokimiyatni amalga oshirish vositasi emas, balki eng yuksak axloqiy, aqliy va ma’naviy yetuklik darajasi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, davlat boshqaruvi qonunlar asosida emas, balki rahbarning fazilatlariga asoslanishi kerak. Bu yondashuv “fazilatli boshqaruv” g’oyasining markazida turadi.

Forobiy o‘zining mashhur “al-Madīna al-Fāḍila” (Fozil odamlar shahri) asarida ideal rahbar (imom yoki faylasuf-shoh)ga 12 ta yuksak sifatni nisbat beradi. Ushbu fazilatlar nafaqat siyosiy salohiyatni, balki ma’naviy karizma, falsafiy tafakkur va axloqiy mukammallikni ham ifodalaydi:

Falsafiy tafakkur va diniy bilim — Rahbar jamiyatni boshqarishda ilohiy hikmat va aqlni uyg‘unlashtira olishi kerak. U haqiqat mohiyatini bilmog‘i va qonunlarning nafaqat tashqi ko‘rinishini, balki ruhini ham tushunmog‘i lozim.

Haqiqatni ajratish salohiyati — Ijtimoiy hayotdagi murakkab va noaniq holatlarda haqli-nihoqsizni, foydali-zararlarni, adolatli-g‘ayriadolatni tafsir qila oladigan intellektual va ruhiy farosat.

8. Abdumuminovna I. S. Management of innovative development socioeconomic systems //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 4. – С. 62-66.
9. Ibragimova S., Abdulazizov F. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ МОДЕЛЕЙ МЕХАНИЗМА КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ //Interpretation and researches. – 2025. – №. 1 (47).
10. Ибрагимова С., Абдулазизов Ф. Развитие корпоративного управления в Узбекистане на основе современных мировых стандартов //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2025. – Т. 3. – №. 1.

11. Ибрагимова С., Абдулазизов Ф. НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ //Talqin va tadqiqotlar. – 2025. – №. 1 (59).
12. Ibragimova S., Shagaipova G. Mamlakatimizning investitsiyaviy salohiyatini oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish istiqbollari //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 3. – №. 1.
13. Ибрагимова С. ПЕРСПЕКТИВЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2022. – Т. 23. – №. 2. – С. 123-128.
14. Abdumuminovna I. S. Features of modern innovative development and formation of innovative system //Asian Journal of Research in Banking and Finance. – 2022. – Т. 12. – №. 3. – С. 14-17.
15. ИБРАГИМОВА С. А., ХУСАИНОВ Р. Р. PROSPECTS AND WAYS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. 3. – С. 62-67.
16. Ibragimova S. A. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish istiqbollari //Jurnal: MOLIYA, TDMI. – 2020. – С. 115-123.
17. Хусайнов Р. Р., Ибрагимова С. А. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ТЎҒРИ СОЛИҚЛАР ИСЛОҲОТИНИНГ АСОСИЙ НАТИЖАЛАРИ //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2020. – №. 2 (134). – С. 92-97.
18. Ibragimova S., Bakhodirova K. Formation of investment activities of energy enterprises //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 461. – С. 01074.
19. Abdumuminovna I. S. The main ways to ensure the economic security of industrial enterprises in the digital economy //JournalNX. – 2023. – Т. 9. – №. 1. – С. 29-33.
20. Husainov R., Ibragimova S. Financial literacy in uzbekistan //Interpretation and researches. – 2024. – Т. 2. – С. 24.
21. Ибрагимова С. А., Хусайнов Р. Р. ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. 3 (139). – С. 62-67.
22. Ibragimova S. A. Analysis of models and methodological aspects of assessing the level of innovative development //Magazine" BIZNES-EXPERT. – 2019. – С. 101-104.
23. Ibragimova S. A., Shagaipova G. Z. MODERN PATTERNS OF DEVELOPMENT OF CORPORATE STRUCTURES IN UZBEKISTAN //Экономика и Финансы (Украина). – 2019. – №. 3. – С. 45-50.

## КЛАССИФИКАЦИЯ ВЕРБОВ И ЕГО ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ В ПРЕДИКАТИВНОМ ПРЕДЛОЖЕНИИ

**Имамова Х.Э.**

Преподаватель ТГЭУ

**Аннотация:** Классификация различных семантических групп глаголов на основе парадигматических и синтагматических отношений в семантических исследованиях, в том числе и для целей сопоставительного анализа, становилась общепринятой при изучении так называемых предикатных имен, «суть которых состоит в обозначении и оценке статических свойств и динамических проявлений предметов действительности, их отношений друг с другом» [Арутюнова Н.Д., 1880, 172]. Классификация семантических групп глаголов основывается в лексикологии на учете естественного, онтологического расчленения действий, процессов, событий и состояний, отраженного в структуре языка, или выделения в значениях слов тождественных и дифференциальных признаков или количества глагольных валентностей [Булагина Т.В., 1982; Васильев Л.М., 1981; Гайсина Р.М., 1985; Сильницкий Г.Г., 1973; Степанова М.В. и др.]. Основа подобной классификации в конечном итоге восходит к той же теории Ф. де Соссюра о ценности языковых знаков и типов взаимосвязи и взаимообусловленности единиц языка.

**Ключевые слова:** классификация, ценность, знак, онтология, глагол, синтагма, аспект

**Annotation:** The classification of various semantic groups of verbs based on paradigmatic and syntagmatic relationships in semantic research, including for comparative analysis purposes, has become common in the study of so-called predicate names, “whose essence consists of designating and evaluating the static properties and dynamic manifestations of objects of reality and their relationships with each other” (Arutyunova N.D., 1880, 172). The classification of semantic groups of verbs is based in lexicology on the natural, ontological division of actions, processes, events, and states reflected in the structure of language, or on the identification of identical and differential features or the number of verb valencies (Bulygina T.V., 1982; Vasiliev L.M., 1981; Gaisina P.M., 1985; Silnitsky G.G., 1973; Stepanova M.V. et al.). The basis of such classification ultimately goes back to the same theory of F. de Saussure on the value of linguistic signs and the types of interdependence and interconditionality of language units.

**Keywords:** classification, value, sign, ontology, verb, syntagma, aspect.

Существуют разнообразные классификации глаголов, учитывающие как семантические, так и семантико-грамматические особенности глаголов. Наиболее известной является классификация Ф. Данеша. Стилистические функции глаголов речи в структуре разговорной речи выявляются Г.В. Кочетковой (1978), анализ глаголов говорения на материале художественной речи А. Платонова в функциональном аспекте осуществляется В.Г. Бабенко (1981). В названных работах наряду с исследованием глаголов в прагматическом плане проводится семантическая классификация, содержится большой фактический языковой материал.

Анализу глаголов речи в историческом плане посвящаются работы Ф.Ф. Филина, А.И. Молоткова, В.И. Кодухова, В.Л. Бахтиной, И.П. Бондарь, З.М. Петеновой и других, в которых показано, как с течением времени изменяются и пополняются глаголы речи в русском языке. В.И. Кодухов свидетельствует о незначительном расширении групп глаголов говорения с XI по XVII век. В XVII-XVIII вв. в русском литературном языке количество глаголов говорения, вводящих прямую речь, не превышало двух десятков.

Наблюдения В.Г. Краснова показывают, что в XIX в. происходит увеличение группы глаголов, вводящих прямую речь, но в первой половине XIX века это увеличение незначительно, например, у А.С. Пушкина в «Капитанской дочке» всего 22 глагола.

Некоторые аспекты парадигматических семантических отношений глаголов речи в общем, соотношении с глаголами звучания узбекского языка рассматриваются в диссертационной работе Х.С. Мухиддиновой (1979).

Из зарубежных исследователей изучению семантики глаголов речи в парадигматическом (в основном) и синтагматическом аспектах посвящены работы А. Вежбицкой [Wlejbicka 1972] в польском языке, Ч. Филлмора (1972) (1972), Дж. Макколи [Maocowlay J, 1977] в английском языке. Определенная часть глаголов речи используется Дж. Лайонзом (1978) как лексический материал для иллюстрации возможности и методов семантического анализа лексических единиц.

Лексическая система в современном языкознании определяется как совокупность слов, связанных внутренними отношениями в целом, проявляющимися в парадигматических и синтагматических аспектах. Выделяемые в современной лексикологии парадигматические и синтагматические отношения являются основой изучения структурной организации лексической системы и направлены на раскрытие внутренней организации семантики слова и многоаспектности его проявления с другими компонентами.

Семантическая взаимосвязь и взаимообусловленность элементов лексической системы предопределяет свойство слов объединяться в различные группы с различными смысловыми связями. Выделение определенных лексико-семантических объединений основывается на восприятии группы слов как систем определенным образом упорядоченного множества и как лексико-семантических классов множества, обладающего общими признаками. Исходя из этого, объектом изучения семантических объединений становятся отношения между элементами системы или признаки, структурно организующие данную систему.

Изучение семантических объединений слов в двух проведенных подходах (как систему определенным образом упорядоченного множества и как классы, проявляющие признаки, конституирующие систему), позволяет выделить различные семантически взаимосвязанные типы слов: семантические классы, группы, лексико-семантические группы и др. Несмотря на терминологические различия, их выделение базируется на том, что все они имеют в своей основе ту или иную семантическую категорию или категориальную ситуацию [Васильев, 1970. 126]. Анализ внутрисистемных отношений и семантических взаимосвязей лексики позволил выяснить те семантические противопоставления, которые существуют между различными словами. Именно противопоставление значений различных слов делает возможным выделение существенных семантических признаков, которыми определяется данное значение слова [Шмелев, Лексика, 14]. Выявление оппозиций и существенных семантических признаков, организующих слова в систему, стало основой анализа внутрисистемных отношений.

Языкознание XIX-XX вв. большое внимание уделяло установлению содержания слов и связанному с ним лексическому значению слова. Развивались различные направления изучения содержательной структуры слова и определения лексического значения [Степанов 1975; Степанова 1968]. В то же время существенное влияние на разработку современным семантических теорий и направлений внесло учение Ф. де Соссюра о значимости, в соответствии с которым значение в современных теориях поля определяется как отношение или как совокупность отношений знака к другим знакам [Л. Ельмелов, И. Трир, Дж. Катц, Л. Вайсгербер, Л. Блумфилд, Ч. Морри, Ст. Ульман и др.]. При этом значение истолковывается как отношение языкового знака к предмету “декотативное значение”, понятию “сигнификативное значение”, условиям акта речи и его участникам “прагматическое значение”, сфере или ситуации его употребления “стилистическое значение”, другим языковым знакам “структурное значение”. Существенный вклад в разработку проблем семасиологии внес В.В. Виноградов, установивший основные аспекты

изучения смысловой структуры слова и предложивший оригинальную типологию лексических значений (Виноградов, 1977), оказавших существенное влияние на развитие и становление лексикологии русского и других языков. Лексический аспект семантики становится объектом изучения в работах Д.Н. Шмелева, Ю.Н. Караулова, В.Г. Гака, А.А. Уфимцевой, Ю.Д. Апресяна, Л.Н. Новикова. Широко известны работы Ф.П. Филина, Р.А. Будагова, С.Д. Кацнельсона, В.А. Звегинцева, А.И. Смирницкого, Л.М. Васильева, Г.О. Винокура, Г.В. Колшанского, М.В. Никитина, Ю.С. Степанова, И.Л. Стернина, Н.И. Толстого и др. в изучении проблем семантического анализа лексического значения слов. Нет необходимости останавливаться на анализе разнообразных подходов к решению основных проблем семантики, получивших достаточное освещение в лингвистической литературе. Поэтому кратко остановимся на раскрытии тех основных понятий, которые важны с точки зрения раскрытия темы данного исследования.

Следует отметить, что для обозначения лексического значения слова в лингвистической литературе используются различные термины: значение (В.В. Виноградов, Л.А. Новиков, Д.Н. Шмелев, К.А. Левковская, Л.М. Васильев и др.), параметр лексической структуры (В.А. Гак), элемент значения (А.А. Уфимцева, Н.Г. Комлев, И.Л. Стернин), компонент значения (Л.М. Васильев, Е.Г. Белявская и др.) и т.п. Лексическое значение слова – это содержание слова, отображающее в сознании и закрепляющее в нем представление о предмете, свойстве, процессе, явлении и т.д. дается подобное толкование в лингвистическом энциклопедическом словаре (ЛЭС).

В лингвистической литературе установлено, что лексическое значение слова включает: 1) указание на обозначаемый предмет, явление, процесс или признак; 2) указание на отношение к обозначаемому со стороны говорящего; 3) указание на общий тип коммуникативных ситуаций, в которых может использоваться данное наименование (Белявская, 1987, 44) и соответственно включает: 1) вещественное содержание; 2) коннотативный аспект; 3) прагматический аспект. Каждый аспект лексического значения входит в его состав как компонент лексического значения.

Вопрос о типах лексических значений слов впервые был поставлен В.В. Виноградовым, учитывавшим основные аспекты семантической вариантности слова и представившим слова как систему взаимосвязанных и взаимообусловленных вариантов (Виноградов, 1977). Им же впервые вводится понятие смысловой структуры слова как множества и единства его лексических значений, в дальнейшем в лексикологии получивших название лексико-семантических вариантов. Лексико-семантический вариант В.В. Виноградов определял как разные лексические значения слова, рассматриваемые как

лексико-фразеологическая форма слова, т.е. «форма, реализующая одно из лексических значений слова и связанная со строго определенными Фразеологическими контекстами» (Виноградов, 1947, 42). Системная взаимосвязь лексико-семантических вариантов одного и того же слова в пределах тождества организует семантическую (смысловую, по В.В. Виноградову) структуру слова. При этом тождество лексико-семантических вариантов в семантической структуре слова, по определению В.В. Виноградова, «организуется, прежде всего, его лексико-семантическим стержнем» (там же, 34), в дальнейшем в лингвистической литературе получившим названия общее значение, семантический стержень, семантическое ядро, семантический центр, использовавшиеся в различных пониманиях. Так, тождества всех лексико-семантических вариантов в глаголе **кричать** шесть: 1) издавать крик; 2) громко говорить; 3) звать громким голосом; 4) громко, резко говорить, браня, выговаривая и т.п. достигается наличием общего признака-характеристики процесса речи с точки зрения интенсивности проявления голоса или чувства, а в целом качественной характеристики процесса речи.

В зависимости от способа определения элементарной составляющей семантической структуры слова, выделяются два основных направления понятия смысловой структуры слова: 1) семантическая структура слова определяется как единство лексико-семантических вариантов, при котором в качестве основной единицы выступает лексико-семантический вариант, соотносимый с отдельным значением многозначного слова; 2) семантическая структура слова понимается как набор элементарных смыслов или смысловых признаков, выделяемых в процессе расчленения содержательной стороны языковой единицы. При этом единицей семантической структуры слова выступают семы – минимальные компоненты значения, как однозначного слова, так и отдельного лексико-семантического варианта многозначного слова. Второе направление в современных семантических исследованиях практическое воплощение получило в методиках оппозитивного и компонентного анализа семантической структуры слова, в целом составляющих основные аспекты семантического анализа методом поля.

Оппозитивный метод, перенесенный в семантические исследования из фонологии, является наиболее разработанным и эффективным методом анализа внутрисистемных отношений в лексике. Сущность оппозитивного метода заключается в том, что он выявляет отношения лексических единиц друг к другу в пределах определенных лексических групп на основе общности для их основания и различия. Общим основанием в оппозитивных отношениях между лексическими единицами служит свойство, объединяющее их по какому-либо

признаку, сближающее их по выражению. Существует достаточная литература о современных методах семантических исследований (Апресян Ю.Д., 1963; Аспекты..., 1980; Медникова Э.М., 1974; Васильев Л.М., 1990; Принципы и методы..., 1978; Степанов Ю.С. 1975; Степанова М.Д., 1968; Арнольд И.В., 1966; Белявская Е.Г., 1987 и др.). Сравните: говорить-тараторить-мямлить-ругать; общим является говорить, осуществлять речь; различия заключаются в признаках их семантической структуры, которыми они отличаются: говорить - тараторить, к примеру, противопоставлены по семантическому признаку «быстро», характерному для глагола тараторить, по признаку «невнятно» - для глагольной пары говорить - мямлить, противопоставление по признаку «агрессивности» - для глаголов говорить - ругать.

Методика компонентного анализа ставит своей целью расчленение содержательной стороны языковой единицы на составляющие ее компоненты и представление значения в виде наборов элементарным смыслов или смысловым признакам (Гулыга Е.В., Шендельс Е.И., 1976, Завахина, 1979). Минимальные смысловые компоненты, или семы, выделяются в содержательной стороне слова или отдельного его лексико-семантического варианта как иерархически упорядоченная структура. Минимальный семантический компонент является единицей отражения семантической структуры, как слова, так и отдельно взятого ЛЕВ многозначного слова. Компонентный анализ представляет содержательную сторону на уровне минимальных компонентов значения (Кузнецов, 1986).

Денотативная соотнесенность значений слова, отражение и наименование действий предметов реальной действительности являются одним из основных свойств реализации словом существенных особенностей предметов и явлений действительности. Эти особенности познаются через сравнение и сопоставление лексических единиц, соотношение с другими подобными посредством выявления отличия и совпадения, определение места каждого слова среди других. Оно соотносится своей связью с другими общностью определенных признаков и отличается от них отражением свойственных только ему существенных, особенностей. Специфика соотношения лексических единиц с действиями предметов реальной действительности, как отражение и наименование существенных признаков их реалий, а также особенности формирования связей данного слова с другими в лексической системе составляют семантическую структуру лексической единицы в виде определенных семантических компонентов. Исходя из этого, каждая лексическая единица в языке потенциально обладает универсальным набором компонентов значения. Целью компонентного анализа является определение компонентов смысловой структуры слова, разложение ее на минимальные

семантические составляющие и в конечном итоге сопоставление и соотношение с семантической структурой соотнесенных по семантике слов разных языков.

Метод компонентного анализа имеет свои недостатки, которые связаны с направленностью на выделение сущностных характеристик объектов реальной действительности, средством номинации которых является то или иное слово. В таком виде компонентный анализ носит экстралингвистический характер и в целом применяется в изучении закрытых лексических систем, с другой стороны, как отмечает Гинзбург, он ограничивается констанцией факта наличия или отсутствия соответствующих семантических компонентов в обозначаемых словами денотатах.

**Список использованной литературы:**

1. Арутюнова Н.Д. К проблеме функциональных типов лексического значения //Аспекты семантических исследований. – М., 1980
2. Булагина Т.В. К построению типологии предикатов в современном русском языке//Семантические типы предикатов, – М., 1982.
3. Васильев Л.М. Опыт структурно-сопоставительного анализа лексики современных славянских языков//Славянский Филологический сборник. Посвящ. V Междунар. съезду славистов. – Уфа, 1962.
4. Гайсина Р.М. Лексико-семантическое поле глаголов отношения в современном русском языке. – Саратов, 1981.
5. Сильницкий Г.Г. Семантические классы глаголов и их роль в типологической семасиологии //Структурно-типологическое описание современных германских языков. М.: Наука, 1966.
6. Степанова М.Д. Методы синхронного анализа лексики. – М., 1968.
7. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. 3-е изд. – М., 1986.
8. Апресян Ю.Д. Современные методы изучения знаний и некоторые проблемы структурной лингвистики / Проблемы структурной лингвистики. – М., 1963.

## TURIZM MADANIYATINI SHAKLLANISHIDA EKOTURIZM VA EKOLOGIK MADANIYATNING AHAMIYATI

**Dadaboyeva Madina**

Qo‘qon universiteti BT yo‘nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada turizm madaniyati shakllanishida ekoturizm va ekologik madaniyatning ahamiyati o‘rganilgan. Ekoturizm tabiatni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan yangi turizm turi sifatida turizm madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada ekologik madaniyatning insonlarda atrof-muhitga munosabatini yaxshilash va turizm sohasida mas‘uliyatni oshirishdagi ahamiyati ta‘kidlangan. Turizmni rivojlantirishda ekologik va madaniy omillarni birlashtirish orqali milliy va xalqaro miqyosda do‘stlik va hamkorlik mustahkamlanishi ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** turizm madaniyati, ekoturizm, ekologik madaniyat, tolerantlik, millatlararo totuvlik, tabiatni muhofaza qilish, ekologik savodxonlik, diniy bag‘rikenglik.

### KIRISH

**Turizm madaniyati umummadaniyatning muhim qismi bo‘lgan dinlararo bag‘rikenglik va tolerantlik madaniyati, millatlararo totuvlik bilan ham o‘zaro aloqada rivojlanadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta‘kidlaganidek, «bugun biz turizmning o‘rni haqida, ayniqsa, xalqaro sayyohlikning hozirgi bosqichdagi ahamiyati haqida gapirganda, eng dolzarb masalalardan biri – bu tolerantlik tamoyili bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman. Biz aynan turizm orkali tolerantlik nima ekanini bilamiz, anglaymiz. Bu xalqaro tushuncha bo‘lib, dunyodagi barcha millatlarga birdek qadrli va tushunarlidir. Tolerantlik avvalambor turli millatga mansub insonlarning bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishini va eng asosiysi, bir-birini tushunishni anglatadi. Bu ikki tushunchani shunday anglash kerakki, qaerda turizm rivojlangan bo‘lsa – o‘sha yerda tolerantlik bor, deb aytishga imkon beradi, desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo‘shilasiz»<sup>34</sup>. Bundan ko‘rinadiki, turizmni rivojlantirish uchun, avvalo mamlakatimizda diniy bag‘rikenglikka e‘tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada O‘zbekiston bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kiradi.**

### METODLAR

<sup>34</sup> БМТ Жаҳон сайёҳлик ташкилоти Ижроия Кенгашининг 99-сессияси. – Тошкент, «Ўзбекистон», 2014. –Б. 14

Tadqiqotni amalga oshirishda falsafaning ijtimoiy hodisalarni tadqiq qilishdagi: analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, umumlashtirish, konkretlashtirish kabi usullaridan foydalanildi.

### **NATIJALAR**

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘p millatli mintaqada turli millatlar vakillari manfaatlarini uyg‘unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta‘minlash rivojlanishning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bir mamlakat doirasida o‘zaro milliy manfaatlarini teng qondirish, ular o‘rtasidagi manfaatli aloqalarni ta‘minlash juda muhim masala ekanini ham anglamoq lozim. Millatlararo totuvlik, muomala madaniyati millatlar, davlatlar, xalqaro tuzilmalar o‘rtasidagi ana shu masalani to‘g‘ri hal etishga yordam beradi. Bizning fikrimizcha, millatlar o‘rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishi turizm madaniyatining qanchalik darajada shakllanganligiga bog‘liq. Turizm madaniyatini globalashuvning omillaridan biri sifatida talqin qiladigan bo‘lsak, uni rivojlantirish orqali globalashuvning ijobiy xususiyatlarini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- turizm madaniyati orqali turli millatlarga mansub kishilar o‘rtasida yaqin hamkorlik, do‘stlik va birdamlik, o‘zaro ishonch, totuvlik va barqarorlik shakllanadi;

- turizm madaniyati ta‘sirida dunyo aholisining xalqaro siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasi o‘shib boradi, davlatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar rivojlanadi;

- turizm madaniyati vositasida millatlararo, davlatlararo etnik guruhlar, shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar ahil qo‘shnichilik, yagona dunyo prinsiplari asosida kengayadi;

- turli xalqlar, millatlar vakillari o‘rtasidagi bilvosita muloqot tarzida namoyon bo‘ladigan odob-axloq munosabatlari o‘shib boradi.

### **MUNOZARALAR**

Tolerantlikni demokratiyaning bir ko‘rinishi deb hisoblasak, turizmni tolerantlik bilan birgalikda qo‘llanilishi demokratiya va turizm atamasini keltirib chiqaradi. Diniy-ziyosat turizmini rivojlantirishda, tartibga solishda dinlararo bag‘rikenglik madaniyati tushunchasi ko‘makchi vazifasini o‘taydi.

Bugungi kunga kelib, diniy tolerantlik davr mafkurasiga aylandi. Dunyo taraqqiyoti rivojlangani sari insoniyat ma‘naviy qadriyatlarga ehtiyoj sezmoqda. Inson ma‘naviyati bevosita diniy qarashlar zaminidagi axloq normalari asosida sayqallanib kelganini bugun hech kim inkor etmaydi. Shuning uchun ham dunyoda turli diniy va etnik tinchlikni saqlashda diniy turizm madaniyatini rivojlantirish katta ahamiyatga ega<sup>35</sup>.

<sup>35</sup> Нуртазина Н.Д. Религиозный туризм в Казахстане: история и современные проблемы // Современные проблемы сервиса и туризма. 2009. № 4.- С. 25-37.

Butun dunyoda «2002 yil – ekoturizm yili», deb e’lon qilindi<sup>36</sup>. Bu albatta, bejiz emas. Negaki, hozirgi kunda ekologik muammolar dolzarb bo’lib, tabiatni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish dunyo hamjamiyati oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish ko’p jihatdan insonlarning ekologik savodxonlik darajasiga va ekologik madaniyatiga bog’liqdir.

Ekologik madaniyat – bu maqsadga qaratilgan ekologik ta’lim va tarbiya mahsuli bo’lib, u shaxs tomonidan ma’lum darajada jamiyat ekologik madaniyatini egallaganini ifodalaydi hamda ishlab chiqarishda faoliyat ko’rsatish uchun zarur ekologik tarbiyalanganlik darajasini bildiradi. Shuningdek, aholining ekologik savodxonlik darajasini oshirish eng ustuvor masalalardan hisoblanadi. Bunga uzluksiz ta’lim va tarbiya tizimida ekologik inqirozning kelib chiqish sabab va oqibatlarini keng targ’ib qilish va har bir insonning tabiatga nisbatan mehrini oshirish orqali erishish mumkin.

Turizm madaniyatini rivojlantirishda ekologik madaniyatning o’rni muhim hisoblanadi. Chunki, turizmning Ekoturizm sohasi ekologiya bilan bog’liq bo’lganligi sababli, turizmning ushbu yo’nalishlarini rivojlantirishda turizm ob’ekti hamda tashrif buyuruvchi turistning ekologik madaniyati qanchalik darajada shakllanganligiga bog’liq. «Ekoturizm turizmning yangi sohasi bo’lib, ikkinchi nomi «tabiatga yumshoq teguvchi turizm», ya’ni atrof-muhitga eng kam ta’sirini ta’minlovchi turizmdir. Ekoturizm dasturi odatda ekologik toza joylarga borishni nazarda tutadi va tabiat qo’riqxonalariga uyushtiriladi»<sup>37</sup>. Turizmning bu turi tabiiy hududlarga mas’uliyat bilan sayohat qilishni hamda tabiatni muhofaza etishni ta’minlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi.

## **XULOSA**

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, turizm bugungi kunga kelib dunyo davlatlarining iqtisodiy o’sish sur’atlarini ta’minlovchi ijtimoiy faoliyat turiga aylanib bormoqda. Ko’plab turistik kompaniyalar vujudga kelmoqda, ular ko’plab mamlakatlarda o’z mehmonxonalarini qurib «mehmonxonalar zanjiri»ni hosil qilishmoqda. Turizm biznesi global rivojlanib borishi uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ekologik, diniy jarayonlarni tartibga solish borasida turizm madaniyatini yuksaltirish mamlakatimiz qonunchiligida aks etdi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. БМТ Жаҳон сайёҳлик ташкилоти Ижроия Кенгашининг 99-сессияси. – Тошкент, «Ўзбекистон», 2014. –Б. 14

<sup>36</sup> Мирзаев М.А., Алиева М.Т., Туризм асослари., Тошкент -2011. – Б. 231.

<sup>37</sup> Хақимов Н.Х., Жумаев Т.Ж., Икрамова Н.И. Иқтисодий экология. - Т.: ТДИУ, 2005. – Б. 347.

2. Мирзаев М.А., Алиева М.Т., Туризм асослари., Тошкент -2011. – Б. 231.
3. Нуртазина Н.Д. Религиозный туризм в Казахстане: история и современные проблемы // Современные проблемы сервиса и туризма. 2009. № 4.- С. 25-37.
4. Ҳақимов Н.Ҳ., Жумаев Т.Ж., Икрамова Н.И. Иқтисодий экология. - Т.: ТДИУ, 2005. – Б. 347.

**VIRUSGA QARSHI IMMUNOPROFILAKTIK VOSITALARNING  
RIVOJLANISHI: KLASSIK VAKSINALARDAN ZAMONAVIY MRNA  
TEXNOLOGIYALARIGACHA  
РАЗВИТИЕ СРЕДСТВ ИММУНОПРОФИЛАКТИКИ ПРОТИВ  
ВИРУСОВ: ОТ КЛАССИЧЕСКИХ ВАКЦИН ДО СОВРЕМЕННЫХ  
MRNA-ТЕХНОЛОГИЙ**

**Toshtemirova Muazzam Akmaljonovna**

Fargʻona davlat universiteti, Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasida dotsenti

Biologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)

toshtemirovamuazzam3@gmail

**Moʻminova Shodiyonabonu**

Fargʻona davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti biologiya yoʻnalishi

2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada virusli infeksiyalarga qarshi immunoprofilaktika vositalarining rivojlanish bosqichlari — klassik vaksinalardan boshlab zamonaviy mRNA texnologiyalarigacha boʻlgan yoʻl tahlil qilinadi. Tarixiy yondashuv asosida inaktivatsiyalangan va jonli zaiflashtirilgan vaksinalarning insoniyat salomatligini saqlashdagi oʻrni, ularning samaradorligi va chechak, poliomyelit, qizamiq kabi kasalliklarning oldini olishdagi ahamiyati koʻrib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy biotexnologik yutuqlar natijasida yuzaga kelgan rekombinant, vektorli va mRNA vaksinalarning paydo boʻlishi va ular orqali vaksinalar ishlab chiqarishdagi yondashuvlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida mRNA vaksinalarining tezkor ishlab chiqilishi, klinik samaradorligi va xavfsizligi yuzasidan berilgan baholar maqolada markaziy oʻrinni egallaydi. 2020–2023 yillar davomida mRNA vaksinalarning global ulushidagi oʻsish diagrammalar orqali yoritiladi. Ushbu ish biologiya, tibbiyot, virusologiya, immunologiya va epidemiyologiya sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, talaba va tadqiqotchilar uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega boʻlib, zamonaviy vaksina strategiyalarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

**Аннотация:** В данной научной статье анализируются этапы развития средств иммунопрофилактики против вирусных инфекций — от классических вакцин до современных mRNA-технологий. С исторической точки зрения рассматривается роль и эффективность инактивированных и живых аттенуированных вакцин в сохранении здоровья человечества и предотвращении таких заболеваний, как оспа, полиомиелит и корь. Также рассматривается появление рекомбинантных, векторных и mRNA-вакцин как результат достижений современной биотехнологии, а также подходы к их

производству. Особое внимание уделяется быстрому разработке mRNA-вакцин во время пандемии COVID-19, их клинической эффективности и безопасности. Рост глобального применения mRNA-вакцин в 2020–2023 годах представлен в виде диаграмм. Работа представляет как теоретическую, так и практическую ценность для ученых, студентов и исследователей в областях биологии, медицины, вирусологии, иммунологии и эпидемиологии, и способствует более глубокому пониманию современных стратегий вакцинации.

**Kalit so‘zlar:** Vaksina, virusologiya, immunoprofilaktika, klassik vaksinalar, mRNA texnologiyalari, pandemiya, vaksina samaradorligi, vaksina xavfsizligi, biotexnologiya, antigen, immunitet, profilaktik choralar, klinika sinovlari, COVID-19, genetik muhandislik.

**Ключевые слова:** Вакцина, вирусология, иммунопрофилактика, классические вакцины, mRNA-технологии, пандемия, эффективность вакцины, безопасность вакцины, биотехнология, антиген, иммунитет, профилактические меры, клинические испытания, COVID-19, генная инженерия.

### Kirish

Immunoprofilaktika inson salomatligini saqlashda 9eng muhim strategiyalardan biri hisoblanadi. Yuqumli kasalliklarning oldini olishda vaksinalar hal qiluvchi vosita bo‘lib, ularning tibbiyot tarixidagi o‘rni beqiyosdir. Tarixan birinchi vaksina 1796-yilda Edvard Jenner tomonidan chechak kasalligiga qarshi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu insoniyatda sun‘iy immunitet shakllantirish imkoniyatining boshlanishi edi. Keyinchalik Lui Paster tomonidan ishlab chiqilgan quturishga qarshi vaksina, undan so‘ng esa difteriya, poliomyelit va qizamiq kabi kasalliklarga qarshi vaksinalar paydo bo‘ldi. Mazkur maqolada aynan klassik vaksinalardan zamonaviy mRNA texnologiyalarigacha bo‘lgan evolyutsion jarayon tahlil qilinadi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, u nafaqat vaksinologiya tarixini yoritadi, balki zamonaviy yondashuvlarning afzallik va muammolarini ham chuqur tahlil qiladi. Shu bilan birga, bu mavzu virusologiya, immunologiya, epidemiologiya va sog‘liqni saqlash tizimi uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Virusga qarshi vaksinalarning rivojlanishini o‘rganish uchun bir nechta asosiy ilmiy manbalar, monografiyalar, tibbiyot va biologiya sohasidagi maqolalar tahlil qilindi. Xususan, Plotkin, Orenstein va Offit tomonidan yozilgan “Vaccines” nomli fundamental asar vaksinologiya bo‘yicha asosiy nazariy bilimlarni beradi. Shuningdek, Nature, The Lancet, NEJM (New England Journal of Medicine) va WHO (JSST) nashrlarida e‘lon qilingan statistik ma‘lumotlar, klinik sinovlar natijalari hamda vaksinalarning samaradorligi va xavfsizligi haqidagi hisobotlar asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

Klassik vaksinalar — jonli zaiflashtirilgan (masalan, qizamiq, poliomiyelet) va inaktivatsiyalangan (masalan, gripp, gepatit A) vaksinalar — uzoq yillar davomida ishlatib kelingan va yuqori xavfsizlik darajasi hamda barqaror immunitet bilan ajralib turadi. Ammo ular ishlab chiqarishda ko‘p vaqt talab qilishi va ba‘zan nojo‘ya ta’sirlar chaqirishi mumkin. Zamonaviy rekombinant va vektorli vaksinalar esa ma’lum antigenlarni maxsus tashuvchilar orqali inson organizmiga yetkazadi. Bu texnologiyalar xavfsizlikni oshirgan bo‘lsa-da, ba’zi holatlarda immun javob sust bo‘lishi mumkin. mRNA vaksinalar esa genetik material orqali organizmga ma’lumot yetkazadi va u orqali organizmning o‘zi virusga qarshi antigen ishlab chiqaradi. Pfizer-BioNTech va Moderna kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan mRNA vaksinalar 2020-yilda qisqa muddat ichida ishlab chiqildi va ommaviy ravishda qo‘llanila boshlandi. Bu jarayon klinik sinovlarning uch bosqichidan o‘tgan holda, xavfsizlik va samaradorlikni isbotladi. Masalan, Pfizer vaksinasining klinik samaradorligi 94–95% deb baholangan.

**Metodologik yondashuv quyidagilardan iborat bo‘ldi:**

- Vaksinalarning tasnifi va evolyutsiyasini taqqoslov tahlil qilish;
- Ilmiy maqolalar, klinik sinov natijalari va global statistik ma’lumotlar asosida kontent tahlil qilish;
- mRNA vaksinalarning tarqalishi va samaradorligiga oid statistik ko‘rsatkichlarni matematik tahlil qilish (trendlarga asoslangan eksponential o‘shish modeli qo‘llanilgan);
- Diagrama, jadval va grafiklar yordamida vizual tahlil qilish.

Virusga qarshi immunoprofilaktika vositalari turlari bo‘yicha o‘tkazilgan solishtirma tahlil shuni ko‘rsatdiki, klassik inaktivatsiyalangan va jonli zaiflashtirilgan vaksinalar uzoq muddatli va kuchli immunitet hosil qilishda samarali hisoblanadi, biroq ularning ishlab chiqarish jarayoni vaqt va resurs jihatidan murakkab hamda xavfsizlik talablarini yuqori darajada ta’minlashni talab qiladi.

Vaksina turi	Immun javob darajasi	Xavfsizlik	Ishlab chiqarish tezligi
Jonli zaiflashtirilgan	Yuqori	O‘rtacha	Sekin
Inaktivatsiyalangan	O‘rtacha	Yuqori	Sekin
Rekombinant	Yuqori	Yuqori	O‘rtacha
Vektorli	Yuqori	O‘rtacha	O‘rtacha
mRNA	Yuqori	Yuqori	Juda tez

**Jadval-1. Vaksina turlari bo‘yicha immunologik javob va xavfsizlik darajasi (shartli baholash)**

COVID-19 pandemiyasi davrida mRNA asosidagi vaksinatiya texnologiyalarining ahamiyati ortdi. Ular qisqa vaqt ichida ishlab chiqilishi, laboratoriyada tez moslashtirilishi, klinik sinovlarga tez jalb etilishi bilan boshqa vaksinatiya usullaridan ajralib turdi.

## XULOSA

Olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, virusli infeksiyalarga qarshi kurashishda vaksinalar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, ular orqali kasalliklarning oldini olish va pandemiyalarni jilovlash imkoniyati mavjud. Klassik vaksinalar uzoq yillik tajriba asosida shakllangan bo‘lsa-da, ularning ba’zi kamchiliklari — ishlab chiqarish murakkabligi va xavf-xatar darajasi — zamonaviy texnologiyalar, xususan mRNA asosidagi vaksinalar bilan bartaraf etilmoqda.

mRNA vaksinalari nafaqat samaradorligi va xavfsizligi, balki qisqa vaqt ichida ishlab chiqilishi bilan zamonaviy immunoprofilaktikaning asosiy yo‘nalishiga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, istiqbolda mRNA va boshqa genetik texnologiyalarga asoslangan vaksinalarning rivojlanishi insoniyat salomatligini himoyalashda muhim o‘rin tutadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi (2021). *Koronavirus infeksiyasiga qarshi vaksinalar haqida qo‘llanma*.Toshkent: O‘quv-metodik markaz.
- 2.Bobojonov S., Toshqulov A. (2019). *Immunologiya va vaktsinoprofilaktika asoslari*. Samarqand: SamDMI.
- 3.Salimova M.N. (2018). *Biologiyada zamonaviy yutuqlar: Genetik va molekulyar tibbiyot asoslari*. Toshkent: Fan.
- 4.M.Toshtemirova.Nitrification and denitrification: microbiological processes in the nitrogen cycle. *Academic research in modern science*
- 5.M.Toshtemirova. Air microorganisms: significance, sources, and research methods. *Gurrent approaches and new research in modern sciences*.
6. M. Toshtemirova, M. Sobirjonova. Virus structure and the hypotheses regarding their origin. *International journal of scientific trends- (ijst) issn: 2980-4299*

## ERGONIMLARNING TRANSONIMIZATSIYA YO‘LI BILAN YASALISHI

**Usmonova Umidaxon Abdulkarimovna**

Qarshi davlat texnika universiteti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

Turli xil onimlarning o‘zaro bog‘liqligi ma‘lum lingvistik faktdir. Bu bog‘lanish, xususan, transonimizatsiya jarayonlarida, ya‘ni atoqli otlarning bir turkumdan ikkinchisiga o‘tishida namoyon bo‘ladi. Transonimizatsiya hosil qiluvchi onomatemada (semantik) rasmiy o‘zgarishlarsiz, affiksatsiya yoki so‘z qo‘shilishi (grammatik) bilan birga sodir bo‘lishi mumkin<sup>38</sup>. Bundan tashqari, murakkab nominativ birliklar shakllanishi ham mumkin, ularning tarkibiy qismlaridan biri onimdir. Semantik transonimizatsiya omonimiyaning paydo bo‘lishiga olib keladi, chunki hosil qiluvchi va hosilaviy onimlar turli onomastik sohalarning faktlaridir<sup>39</sup>.

Transonimizatsiya grammatik tabiatiga ko‘ra o‘ziga xos onimlashtirishdir. Bu onimning atoqli otning bir turidan boshqasiga o‘tishidan iborat. Transonimizatsiya oddiy va allyuziv (ishorali) turlarga bo‘linadi. Oddiy transonimizatsiya metonimik ko‘chishga asoslanadi: “Navro‘z” to‘yxonasi, “Gulnora” oziq-ovqat do‘koni, “Feruza” go‘zallik saloni va b.

Allyuziv transonimizatsiya ham metonimik, ham metaforik ko‘chishga tayanadi. Masalan, “Kleopatra” go‘zallik salonining nomidan shunday ma‘noni uqish mumkin: Siz Misr malikasi kabi go‘zal bo‘lasiz. Bavariya va Myunxen pivo zavodlarining nomlari pivoning sifatini ko‘rsatadi, chunki Germaniya bu ichimlikning vatani hisoblanadi.

Atoqli otlar bilan motivlashgan ergonimlar majmuini motivatsiya beruvchi onimlar kategoriyalariga ko‘ra antroponimlar, toponimlar, ergonimlar, boshqa turkumlarning onimlari bilan motivlashgan ergonimlar kabi guruhlariga bo‘lish mumkin.

Tilshunos olim E.Begmatov ta‘kidlaganidek, “onomastik birliklar guruhi orasida muayyan aloqalar, bir-birining vazifasiga o‘tishlar yuz berib turadi, bu jarayon transonimizatsiya deb yuritiladi<sup>40</sup>”.

O‘zbek onomastikasida ham aynan transonimizatsiya asosida yuzaga kelgan nomlar katta miqdorni tashkil etadi. Transonimizatsiya hodisasi antroponimika, toponimika doirasida qilingan monografik tadqiqotlarda nom yasilishining bir usuli sifatida tadqiqqa tortilgan. Jumladan, E.Begmatov antroponimlar misolida,

<sup>38</sup> Подольская Н.В. Проблемы ономастического словообразования (к постановке вопроса) // Вопр. языкознания. 1990. № 3. –С. 43.

<sup>39</sup> Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: Вопросы теории. М.: Наука, 1989. –С. 46 – 47.

<sup>40</sup> Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. –B. 37.

T.Nafasov, Z. Do‘simovlar toponimlar, N. Uluqov gidronimlar, O.Begimov, Sh. Temirovlar oronimlar misolida transonimizatsiya masalasini ko‘rib chiqqanlar.

E.Begmatov transonimizatsiya hodisasini nomlarning leksik-semantik usulda yasalishi sifatida qaraydi. Ismlarning ushbu usulda yasalishi tub, sodda negiz, yasama negiz, qo‘shma negiz apellyativlariing ism vazifasiga tayer holda transnomlanish usulida ko‘chishidir. Bu usulda apellyativ ismga ko‘char ekan, onomastik sathda u hech qanday o‘zgarishga uchramaydi, to‘gridan-to‘g‘ri ism sifatida qo‘llanadi: jasur (apellyativ) va Jasur (ism), muqaddas (apellyativ) va Muqaddas (ism) kabi<sup>41</sup>.

N.M. Uluqovning o‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqiga bag‘ishlangan monografik ishida ham gidronimlarning hosil bo‘lishi va transonimizatsiya xususiyatlari nazariy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan asosli misollar yordamida ko‘rsatib berilgan<sup>42</sup>. Ma‘lumki, atoqli otdan atoqli hosil bo‘lish hodisasi onomastik terminologiyaga oid lug‘atlarda konversiya va transonimizatsiya deyiladi<sup>43</sup>. O‘.Oripov o‘z ishida konversiya va transonimizatsiya hodisasini ichki konversiya va tashqi konversiya sifatida farqlaydi<sup>44</sup>. A.S. Aslonov ham onomastik konversiyani ikki guruhga ajratib tahlil etadi: ichki konversiya va tashqi konversiya. U ichki konversiya usulida yasalishga onomastik tizimning o‘z ichidagi nomlarning toponim vazifasiga o‘tishi, ya‘ni onomastik birliklar (atoqli otdan)dan toponim (atoqli ot) yasalishini kiritadi<sup>45</sup>.

N.M. Uluqov konversiya va transonimizatsiyani alohida hodisa sifatida farqlshni ma‘qul ko‘radi. Uning fikricha, turdosh otlardan hech qanday o‘zgarishsiz atoqli otlar: toponimlar, jumladan, gidronimlar, antroponimlar, zoonimlar, fitoonimlar hosil bo‘lishiga nisbatan konversiya, bir atoqli otdan boshqa atoqli ot, ya‘ni antroponimdan toponim, oykonimdan gidronim hosil bo‘lish hodisasiga nisbatan transonimizatsiya terminini qo‘llash maqsadga muvofiq<sup>46</sup>.

T.Nafasovning ta‘kidlashicha, transonimizatsiya – onomastikada unversalizmni yaratuvchi va ta‘minlovchi nutqiy-lisoniy, sotsial-ijtimoiy, tarixiy-ma‘naviy hodisa. Transonimizatsiya yondosh obyektlar orasida yuz beradi. Yangi obyekt uchun nom uzoqdan qidirilmaydi, yonidagi obyekt nomi nomlanayotgan obyektga nom qilib tanlanadi. Bu hodisa xalqimiz yuksak ma‘naviyatining lisoniy ifodasi<sup>4</sup>.

<sup>41</sup> Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. –B. 222.

<sup>42</sup> Улуқов Н.М. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. Докторлик дисс. автореферати, Тошкент, 2010. –45 б.

<sup>43</sup> Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1978. – С. 152-153.

<sup>44</sup> Орипов Ў.А. Нурота тумани макро- ва микротопонимиясининг лисоний таҳлили: Филол. фан. ... диссер. автореф. – Тошкент, 2003. – Б.15.

<sup>45</sup> Аслонов А. С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили. Номз. дис. автореферати, Тошкент, 2005. –Б. 20.

<sup>46</sup> Улуқов Н.М. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. Докторлик дисс. автореферати, Тошкент, 2010. –Б. 39.

<sup>4</sup> Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Мухаррир, 2009. – Б. 32.

Ergonimiya sohasida transonimizatsiya ikki yoʻnalishda boradi: har qanday sinf onimi > ergonim, ergonim > urbanonim yoki ergonim. Doʻkon nomlari kamdan-kam hollarda boshqa onimlar uchun ishlab chiqarish bazasiga aylanadi. Aksincha, teskari jarayon faol boʻlganlar qatoriga kiradi: doʻkon nomlarining beshdan bir qismi transonimizatsiya natijasida paydo boʻlgan<sup>47</sup>.

Transonimizatsiya natijasida hosil boʻlgan ergonimlar orasida atoqli otning turiga koʻra ular uchun asos boʻlgan koʻplab guruhlarini ajratish mumkin:

1) antroponim asos boʻlgan ergonimlar: "Guzal", "Dilorom", "Sabrina", "Yelina" goʻzallik salonlari, "Marat" erkaklar kiyimi doʻkoni, "Sardorbek" oziq-ovqat doʻkoni, "Abdukaim Restaurant", "Hafizaxon" toʻyxonasi;

2) toponimlar asos boʻlgan ergonimlar: "Moskou" restorani, "Aziya" kafesi, "Shanxay Lounge Bar", "Hotel Naxshab" ;

3) astronomlar (samoviy jismlarning atoqli oti) asos boʻlgan ergonimlar: "Merkury" kafesi, "Orion" maishiy texnika doʻkoni;

4) pragmatonym (brend nomi)lar asos boʻlgan ergonimlar: "Sharmel" qandolat mahsulotlari, "Adidas" sport kiyimlari doʻkoni, "Salamandr" poyapzal doʻkoni, D&G kiyim doʻkoni, "Nestle" oziq-ovqat doʻkoni, "Nokia" mobil telefonlar doʻkoni, "Reebok" sport kiyimlari doʻkoni, "Jetour" avtosaloni.

Maʼlumki, antropotsentrizm XX asr oxiridan boshlab tilshunoslikda yetakchi oʻrinni egalladi. Shu davrlardan boshlab "Tilshunoslikda antropotsentrik tamoyil" degan tushuncha yuzaga keldi. "Tilshunoslikdagi antropotsentrik burilish tadqiqotchilarning diqqatini "til qanday qurilgan" degan savoldan "til qanday ishlaydi" degan savolga qaratganligi bilan izohlanadi<sup>48</sup>. Natijada lingvistik materialni tahlil qilish va izohlashda yangicha yondashuvni shakllantirish va rivojlantirish zarurati tugʻiladi. "Asrning oxiriga kelib, sezgi va introspektsiya huquqlarining tiklanishi sezilarli boʻlib, bu, albatta, tilshunoslikda inson omiliga, subyektivlikka eʼtiborning kuchayishi bilan izohlanadi"<sup>49</sup>. Tilshunoslikning ustuvor yoʻnalishlarining oʻzgarishi, lingvistik izlanishning yangi strategiyalarini ishlab chiqish tilga oid mavjud qarashlar tizimi va lingvistik tadqiqotlar tamoyillarining oʻzgarishiga va tilshunoslikda yangi ilmiy paradigmaning shakllanishiga olib keldi. Shunday ekan, hozirgi zamon tilshunosligi quyidagi tezisdan kelib chiqadi, degan fikrni aytish mumkin: "Insonning nazariy va amaliy faoliyatining boshlangʻich nuqtasi antropotsentrizmdir. Inson subyekt sifatida birinchi navbatda uni oʻrab turgan tabiiy

<sup>47</sup> Долганова А. Ю. процессы трансонимизации в эргонимии (на материале названий магазинов Ижевска)// Вестник Удмуртского университета: филологические науки 2006. № 5 (2). –С. 25.

<sup>48</sup> Дорофеев Ю. Антропоцентризм в лингвистике и предмет когнитивной грамматики // ЛІНГВІСТИЧНІ СТУДІЇ. Випуск 17. - Донецьк: ДонНУ, 2008. – С. 302.

<sup>49</sup> Макаров М.Л. Основы теории дискурса. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. – С. 83.

dunyoga, so'ngra tevarak-atrofdagi ijtimoiy olamga, so'ngra har bir individga va nihoyat, o'ziga (o'zini o'zi bilishga) tegishlidir"<sup>50</sup>.

E.N. Yudina "shaxsiylashtirilgan" ergonimlarni alohida guruhda ajratadi, ular egalarining ismlariga asoslanadi<sup>51</sup>. Tashkilot egasining ismini ergonim sifatida tanlashga o'zini namoyon qiladigan quyidagi subyektiv motivatsion munosabatlar ta'sir qiladi:

- o'zini bevosita taqdim etish: "Sherbek shashliklari" choyxonasi, "Abdukarim Restaurant", "Mahmudov Kamoliddin choyxonasi", "Abu Salom" choyxonasi;

- o'zini bilvosita taqdim etish: B & K ichki kiyimlar do'koni, "Sasha uz kofeynya, Z & M kafesi, iZyumin&ka mebel do'koni.

Antroponim asosida shakllangan ergonimlar ikki xil tipdagi ergonim sifatida namoyon b'lishi mumkin:

1. Haqiqiy tipdagi: "Hafizaxon" to'yxonasi, "Azizbek" kafesi, "Safarov va o'g'li" reklama agentligi, "Guli Dizayn" tikuvchilik sexi, "Nargis" attorlik mollari, va b. Ayniqsa, bunday rag'batlantirish tibbiyot muassasalarida keng qo'llaniladi: Murod Med Star tibbiyot markazi, Doktor Karimovmarkazi, professor Azizov klinikasi, Jamolmed tibbiyot markazi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ergonimga familiya, asosan, nominatorning vakolati nomlangan muassasani shahar aholisi tomonidan tanlashda hal qiluvchi bo'lgan hollarda kiritiladi.

2. Ramziy (assotsiativ) tip. Qulay assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradigan nomlarni yaratish uchun turli xil motivatsion xususiyatlarga ega bo'lgan antroponimlar faol qo'llaniladi:

- ayol ismlari asosida hosil bo'lgan ergonimlar: "Jasmin –Sitara" supermarketi, "Farangiz" do'koni; "Guli Dizayn" tikuvchilik sexi; "Shahribonu Lady Cook" pishiriqlar do'koni; «Илдора» go'zallik saloni; "Diana" kafesi; "Liza" mebellar saloni; "Amelie" bolalar kiyimlari do'koni; "Yeva", "Yevgeniya", "Jaklin", "Katrin" go'zallik salonlari; "Monika", "Diana" kiyim do'konlari;

- erkak ismlari asosida hosil bo'lgan ergonimlar: "Azamat" Supermarket, "Shoxjaxon" Supermarket, "Shohruh" Supermarket, "Aziz Bar", "Qurbon Bobo" to'yxonasi va b.

Ergonimlarning hosil bo'lishida nomlanayotgan obyekt egalarining ismlari har doim ham asos bo'lmasligi mumkin. Agar ergonim mulk egasining ismi bo'lmagan taqdirda nominatorlar antroponimni erkin tanlashda nomning go'zalligi, jarangdorligi yoki uning etimologik ma'nosini hisobga oladilar. Ayol ismlari bilan motivlashgan ergonimlar erkaklar ismlari bilan motivlashgan ergonimlardan ko'ra ko'proq, chunki

<sup>50</sup> Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и языке. - М.: КомКнига, 2006. – С. 86-87.

<sup>51</sup> Юдина Е.Н. Креативное мышление в PR. - М., 2005. -С. 110.

ayol ismlari ko‘proq jarangdor, jozibali va savdo mahsuloti yoki xizmatining asosiy iste‘molchisi ayol bo‘lsa, ayniqsa, potentsial mijozga yanada ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi;

- tarixiy shaxslar yoki joylar nomi asosida yaratilgan ergonimlar: “Kesh” restorani, “Kesh” minimarketi, “Mustang xon” Osiyo kuxniyasi, “Toj Mahal” restorani, “Sardoba” kafesi, “Hotel Nasaf Travel”, “Hotel Naxshab”, “Kleopatra” go‘zallik saloni, “Ibn-Sino” dorixonasi, “Sezar” erkaklar saloni;

- yozuvchi yoki shoirlarning ismlari asosida yaratilgan ergonimlar: “Agata Kristi” kafesi, “Abdulla Oripov” maktabi, “Nodirabegim” maktabi va b.;

- mashhur san‘atkorlar (aktyorlar, qo‘shiqchilar) ismlari bilan motivlashgan ergonimlar: “Luciano” kafesi, “Merilin” go‘zallik saloni, “Charli” erkaklar kiyimlari do‘koni;

- mifoantroponimlardan kelib chiqqan ergonimlar: “Afina” ayollar kiyimlari do‘koni, “Venera” go‘zallik saloni, “Hermes” erkaklar kiyimlari do‘koni, “Gefest” maishiy texnika do‘koni, “Neptun” elektronika, “Poseidon” santexnika do‘koni va b.;

- adabiyot va kinodagi qahramonlarning nomlari bilan motivlashgan ergonimlar: “Avgustin” advokatlari uyushmasi, “Yojik” bolalar kiyimlari do‘koni, Vini Pux” o‘yin maydonchasi, “Zolushka” pishiriqlari.

"Biroq, mashhur kishilarning ismlari har doim assotsiativ bo‘lsa ham, savdo korxonasining ixtisoslashuvini ko‘rsatmaydi. Nominatorlar ko‘pincha nomning emotsiya uyg‘otish qobiliyatiga tayanadilar" <sup>52</sup>. Masalan: “Gamlet” restorani, “Rasputin” kafesi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abelin A. Phonaesthemes and sound symbolism in Swedish brand names // *Ampersand*. Vol. 2. 2015. P. 19–29.
2. Абрамова Е. И. Аллюзия и языковая игра в англоязычных эргонимах / Е. И. Абрамова // *Современные лингвистические и методико-дидактические исследования* – 2018 – № 4. – С. 171–181.
3. Аристова В.М. О лексических заимствованиях из английского языка в русский язык в XVII-XVIII вв. Москва:Высшая школа. – 1978. –113 с.
4. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi (bibliografik ko‘rsatkich). –Namangan, 2008. -168 b.
5. Begmatov E. Ozbek tili antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 2013. – 264 b.
6. Березович Е.Л. Язык и традиционная культура: этнолингвистические исследования. М.: Индрик, 2007. - 599 с.

<sup>52</sup> Долганова А.Ю. Процессы трансимизации в эргонимии (на материале названий магазинов Ижевска) // *Вестник Удмуртского университета. Филологические науки*. – Ижевск, 2006. – С. 26.

7. Bobojonov F. O‘zbek tilida nomlash tizimi va neyning xizmati.// Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar. Respublika 2-ilmiy-amalliy anjuman materiallari. –Toshkent, 2022. –B. 229 - 232.
8. Bughesiu A. English names of Pubs, Clubs and Cafes in Romania // British and American Studies. January 1. 2013. URL: <http://www.questia.com/read/1P3-32776>
9. Букчина Б.З. Слово на вывеске // Русская речь. – 1968. – № 3. – С.49-56.
10. Бутакова Е. С. Лингвистическая креативность в томской эргонимии // Вестник Томского государственного педагогического университета. 2013. № 3 (131). - С. 146-151.

## ТАБИАТ-ЖАМИЯТ-ИНСОН МУНОСАБАТЛАРИДА ЭКОЛОГИК АХЛОҚНИНГ ТАРИХИ, МАЗМУНИ ВА ЗАМОНАВИЙ АҲАМИЯТИ

Дадабоева Мадина

Қўқон университети БТ йўналиши талабаси

**Аннотация:** Ушбу мақолада жараёнларда экологик ахлоқий нормаларнинг шаклланиши, уларнинг ижтимоий ва маънавий асослари, шунингдек замонавий глобал экологик муаммоларни ҳал қилишдаги аҳамияти таҳлил қилинди. Мақолада экологик ахлоқнинг умуминсоний қадриятлар билан боғлиқлиги ва маънавий-ахлоқий нормаларнинг сиёсийлашув тенденциялари муҳокама қилинди. Экологик гуманизм ва инсонпарварлик ғоялари асосида табиатни муҳофаза қилишнинг замонавий концепциялари илгари сурилди.

**Калит сўзлар:** экологик ахлоқ, табиат-жамият-инсон муносабатлари, маънавий-ахлоқий нормалар, экологик гуманизм, инсонпарварлик, тарихий мерос, биосфера мувозанати, экологик маданият, глобал экологик муаммолар, табиатни муҳофаза қилиш

### КИРИШ

XVI-XIX асрларда яшаб ижод қилган алломаларнинг экологик ахлоқ соҳасидаги илмий меросларини ўрганиш, турли тарихий даврлар ўртасида маънавий маданиятдаги ворислик муносабатларини аниқлаш имконини беради. Бу таълимотларнинг энг муҳим аҳамияти, экологик танглик сабабларини ва унинг оқибатларини жамиятдаги маърифатсизлик, маънавий-ахлоқий қашшоқлик билан боғлаб кўрсатилишидир.

Дарҳақиқат, Мовароуннаҳрда шаклланган этикологик илмий таълимотлар, ҳеч шубҳасиз, дунё маънавий-ахлоқий меросининг таркибий қисми бўлиб, жаҳонда экологик ахлоқ ривожланишининг муҳим назарий-методологик асоси бўлган. Бу таълимотлар экологик муаммолар глобаллашиб, кескинлашиб кетаётган ҳозирги даврда тарихнинг объектив ривожланиш қонуниятларидан келиб чиққан ҳолда, унинг тараққиётини белгилайдиган ахлоқий омилларнинг ролини кўрсатиб бериши билан ўз долзарблигини, аҳамиятини яққол кўрсатмоқда. Шу маънода, мазкур таълимотларга “табиат-жамият” муносабатларини бошқариш ҳақидаги маънавий-ахлоқий детерминизмнинг тизимлашган шакли сифатида қараш мумкин.

### МЕТОДЛАР

Тадқиқотни амалга оширишда фалсафанинг ижтимоий ҳодисаларни тадқиқ қилишдаги: анализ ва синтез, тарихийлик ва мантикийлик, умумлаштириш, конкретлаштириш каби усулларидан фойдаланилди.

## НАТИЖАЛАР

Тадқиқот натижаларини умумлаштириб, қўйидаги хулосаларни чиқариш мумкин:

**Биринчидан**, “табиат-жамият-инсон” тизими муносабатларини бошқариш заруриятига доир муқобил экологик ахлоқий таълимотлар умумий ахлоқ назариясининг таркибий қисми ҳисобланади ва жамият ривожланиш даражасига мос келади.

**Иккинчидан**, биосфера экологик мувозанати, умуман табиатни муҳофаза қилиш маданияти тараққиётини, хусусан экологик маънавий-ахлоқий қадрият нормалари фаолияти учун объектив шарт-шароитларни ва субъектив омиллар тизимини тақозо қилади.<sup>1</sup>

**Учинчидан**, “табиат-жамият-инсон” муносабатлари ҳақидаги тарихий меросга ворислик муносабати, уларни ижодий ривожлантириш ва амалга оширишнинг самарали усул-воситаларига боғлиқдир.

## МУНОЗАРАЛАР

Ҳозирга келиб, “табиат-жамият-инсон” тизими муносабатларини бошқаришда экологик ахлоқ функциясининг устуворлашуви ҳақида муқобил қарашлар шаклланган, уларни шартли равишда оптимистик, пессимистик ва скептик йўналишларга ажратиш мумкин. Масалан, Россиялик академик А.А.Бабаев “Инсон геноми”: ҳозир ва келажакнинг ахлоқий-ҳуқуқий муаммолари” номли мақоласида бу қарашларни индустриал ривожланган мамлакатлар мисолида таҳлил қилиб, инсон генини ўзгартиришнинг ахлоқий масалаларини шахс ҳуқуқи ва расмий ҳуқуқ ўртасидаги муносабатларни ахлоқий нормалар билан регуляция қилишдан бошқа муқобил йўл йўқ, деган умумий хулосага келади<sup>53</sup>. Бу ўринда немис олими Ганс Йонасининг “Инсон фаолиятининг ўзгариш характери” мақоласида А.А.Бабаевнинг мазкур фикрига ҳамоҳангликни кўрамиз<sup>54</sup>.

Айни пайтда, экологик ахлоқнинг табиат-жамият муносабатларини бошқаришдаги функционал мақсади, вазифалари, усуллари, воситалари ва институционал тизими ҳам такомиллашиб, уларнинг динамик ривожланиш қонуниятларини ўрганиш долзарб муаммо бўлиб қолмоқда. Бу хусусда турли қарашлар юзага келмоқда. “Табиат-жамият-инсон” муносабатларини оқилона ташкил қилиш ва бошқаришнинг учта воситаси мавжуд, - дейди Т.Қўйлиев. – Биринчиси, экологик назарий ва амалий билимлар; иккинчиси, ижтимоий-ҳуқуқий экологик нормалар мажмуаси; учинчиси, маънавий-ахлоқий қадриятлардир. Бу воситаларнинг ўзаро бирлиги шахснинг ички таркибига

<sup>53</sup> Бабаев А.А. “Геном человека”: некоторые этические-правовые проблемы настоящего и будущего. // Человек. № 2. 1995. –С. 5-13.

<sup>54</sup> Ганс Йонас. Изменившийся характер человеческой деятельности. // Человек. № 3. 1999. –С. 5-18.

ўзига хос йўналишларда таъсир қилиб, унинг “экологик сифатлари”ни белгиловчи аксиологик мезонлар мажмуасини вужудга келтиради. Бунда экологик бошқаришнинг хусусиятлари ва самарадорлиги конкрет вазифалардан келиб чиқиб, субъектнинг айнан қандай воситани муҳим деб танлай билишига боғлиқ бўлади”<sup>55</sup>.

Бугунги кунда инсоннинг табиатга муносабатида икки жиҳат кўзга ташланмоқда, яъни: биринчиси – табиатни муҳофаза қилишнинг ахлоқийлашиши (инсонпарварлашиши); иккинчиси - экологик ахлоқий нормаларнинг сиёсийлашиши (ҳуқуқий қонун мақомига эга бўлиши) устуворлашмоқда. “Ҳозирги даврда планетамиздаги сиёсий вазият кескинлашиб кетиши билан экологларнинг умумий қарашларида сиёсатлашиш тенденцияси намоён бўлмоқда”<sup>56</sup>, - деб ёзади Д.Расилов. Бундай шароитда экологик ахлоқий нормаларнинг “табиат-жамият-инсон” муносабатларига, экологик борлиқнинг эса, ахлоқий қадриятлар шаклланишига таъсир услубларини, воситаларини такомиллаштириш имкониятлари муҳим аҳамиятга эга. Ҳозирги пайтда экологиянинг барча ижтимоий-сиёсий муносабатлар характери баҳоловчи муҳим мезонга айланиши билан, уларнинг назарий-методологик асосларига эҳтиёжни кучайтирмоқда. Шу нуқтаи назардан, “табиат-жамият-инсон” муносабатларини бошқаришда ахлоқнинг ролини комплекс-системали ўрганиш мавзу доирасида тушунча ва категориялар мазмунини конкретлаштиришни тақозо қилади. Хусусан, шарқона ахлоқий манбаларни объектив, холис ўрганиш, уларнинг умуминсоний манфаатларга мос келишининг назарий-методологик масалаларига алоҳида эътибор берилиши керак.

Христиан бўлган Толстой ва Ҳинд Гандини улар учун миллий ёки диний фарқлардан кўра муҳимроқ бўлган ахлоқ инвариантлари бирлаштириб туради. Янги экологик тафаккур асосида зўровонлик бўлмаган анъанавий инсонпарварлик билан уйғунлашиши зарур... Экологик гуманизм Шарқ ва Ғарб анъаналари кесишган жойда туради”<sup>57</sup>.

Дарҳақиқат, ҳозирги давр инсоният ҳаётидаги барча ижтимоий-маънавий муносабатларда инсонпарварлашув жараёнлари муҳим аҳамият касб этмоқда. У.Саидов ёзганидек: “Аслида, маданият инсон фаолиятининг ички мазмунини ташкил этади. Шу нуқтаи назардан қараганда, инсон фаолиятининг асосий маъно-мазмуни ўзини эркин ижод шахс сифатида рўёбга чиқариш, заррама-зарра тўплаб инсонийлик дунёсини яратиш ва шу асосда оламни ҳам

<sup>55</sup> Қўйлиев Т. Экологик маданиятнинг шаклланиш ва ривожланиш хусусиятлари. –Т.:ТАЙИ, 2007. –Б. 53-54.

<sup>56</sup> Расилов Д. Урбанизациялашган муҳитнинг экологик маданиятни ривожлантиришдаги роли. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация Автореферати. –Тошкент: 2000. –Б. 19.

<sup>57</sup> Экологическая этика. [www.ronl.ru/putiresheniyaekologicheskikhproblem/15847.htm](http://www.ronl.ru/putiresheniyaekologicheskikhproblem/15847.htm)

инсонийлаштиришдан иборат”<sup>58</sup>. Бу ўринда шуни айтиш жоизки, дастлабки даврларда (ХУ асрларда) асосан, инсонларнинг инсонга бўлган ўзига хос муносабатини, моҳиятан барча инсонларнинг тенглигини эътироф этишга асосланган инсонпарварлик ғоялари эндиликда янги ва долзарб ахлоқий мазмун касб этмоқда. Унинг ҳозирги мазмуни ғоят кенгайиб, фақатгина инсонларга ғамхўрлик эмас, балки бутун оламга, атроф-муҳитга, барча тирик ва нотирик жонзотларга нисбатан эзгу маънавий-ахлоқий муносабатлар устуворлашмоқда. “Ҳозирги замондаги экологик дунёқарашда инсонпарварлик ахлоқининг навбатдаги босқичи намоён бўлмоқда, - дейди бу масалани чуқур тадқиқ қилар экан профессор Н.Н.Марфенин. Эндиликда гап фақат замондошлар ўртасидаги ўзаро ҳурмат ҳақида эмас, балки шу билан бирга, келгуси авлодларнинг фаровон яшашлари учун ғамхўрлик, биз билан бирга яшаётган барча тирик мавжудотлар учун “умумий уй” бўлган биосферани сақлаш ҳақида бормоқда... Тобора мустаҳкамланиб бораётган инсонпарварликнинг глобал экологик муаммоларни ҳал қилишдаги роли ортиб бормоқда. Эндиликда экология фан сифатидаги дастлабки чегараларидан чиқиб, “атроф-муҳит муҳофазаси”, аниқроғи экомаданият мақомини олган бўлса, гуманизм ҳам ғоят жиддий эволюцион ўзгаришларга учрамоқда. Бугун дунёнинг инсонпарварлик эволюциясига, унинг ноосфера босқичидаги ривожланиш жараёнларига мувофиқ янгича тартиблар асосида яшашни ўрганадиган вақт келди”<sup>59</sup>.

Мустабид тузим шароитида кишилар онгида табиий бойликларга маъхум умумхалқ мулки, табиатни моддий бойликларнинг битмас-туганмас омборхонаси, деган стереотипларнинг шакллантирилиши, шарқона экологик маънавий меросни, тарихий анъаналарни менсимаслик кайфияти тизим манфаатларига мос эди. Бугунги кунга келиб, экологик муаммоларнинг глобаллашиб кетиши, табиий атроф муҳитни муҳофаза қилишга доир миллий тарихий меросимизни қайта тиклаш ва ижодий ривожлантиришни кун тартибига қўймоқда. Қисқа вақт ичида халқимизнинг узоқ тарихга эга бўлган маънавий-маданий меросни тиклаш, ўрганиш борасидаги катта ишлар амалга оширилди.

### **ХУЛОСА**

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, ҳар қандай тарихий даврда миллий экологик ахлоқий нормаларнинг умуминсоний манфаатларга мос келиши, уларнинг гуманистик мезонларини намоён қилади. Зеро, “ижтимоий-экологик кризислар амалий инсонпарварликни тақозо қилади, бироқ, айти пайтда улар инсониятни бу борадаги янги назарий босқичларга кўтарилишга ҳам мажбур

<sup>58</sup> Саидов У. Шарқ ва Ғарб: маданиятлар туташган манзиллар. –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2008. –Б. 193-194.

<sup>59</sup> Марфенин Н.Н. Гуманизм и экология. Журнал “Экология и жизнь” (избранные статьи). Стр. 6. <http://www.ecolife.ru/journal/echo/2000-5-1.shtml>

этади. Ҳақиқий глобал онг ва умумжаҳон маданиятига эришиш йўли бир маданиятнинг бошқа маданиятни йўқ қилиши ёки аллақандай янги рационал тизимларни яратиш билан эмас, балки барча инсонлар ва миллатларнинг умуминсоний ахлоқ нормаларига асосланиш орқалидир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Бабаев А.А. “Геном человека”: некоторые этико-правовые проблемы настоящего и будущего. // Человек. № 2. 1995. –С. 5-13.
2. Ганс Йонас. Изменившийся характер человеческой деятельности. // Человек. № 3. 1999. –С. 5-18.
3. Қўйлиев Т. Экологик маданиятнинг шаклланиш ва ривожланиш хусусиятлари. –Т.:ТАЙИ, 2007. –Б. 53-54.
4. Марфенин Н.Н. Гуманизм и экология. Журнал “Экология и жизнь” (избранные статьи). Стр. 6. <http://www.ecolife.ru/jornal/echo/2000-5-1.shtml>
5. Расилов Д. Урбанизациялашган муҳитнинг экологик маданиятни ривожлантиришдаги роли. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация Автореферати. –Тошкент: 2000. –Б. 19.
6. Саидов У. Шарқ ва Ғарб: маданиятлар туташган манзиллар. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2008. –Б. 193-194.
7. Экологическая этика. [www.ronl.ru/puti\\_resheniya\\_ekologicheskikh\\_problem/15847.htm](http://www.ronl.ru/puti_resheniya_ekologicheskikh_problem/15847.htm)

## COLLABORATIVE LEARNING APPROACHES IN LANGUAGE CLASSROOMS

**Kimsanova Nozima Maxfuzullo kizi**

2<sup>nd</sup> course student of the English language nad literature faculty

Fergana State University [nozimakimsanova711@gmail.com](mailto:nozimakimsanova711@gmail.com)

**Abstract:** This study explores the effectiveness of collaborative learning approaches in secondary language classrooms. Recognizing the social nature of language acquisition, collaborative learning emphasizes student interaction through structured group activities such as think-pair-share, jigsaw reading, and project-based tasks. This research involved a quasi-experimental design with 60 English as a Foreign Language (EFL) students in Uzbekistan, divided into experimental and control groups. Over eight weeks, the experimental group participated in collaborative activities, while the control group received traditional instruction. Quantitative and qualitative data showed significant improvement in academic performance, particularly in speaking and reading comprehension, and revealed heightened student motivation and engagement. Despite challenges like unequal participation and assessment complexity, the findings support the integration of collaborative learning in language pedagogy. This paper recommends teacher training and further research on long-term impacts and technique refinement.

**Keywords:** Collaborative learning, language education, student-centered instruction, EFL, group work, language acquisition, speaking skills, motivation.

### Introduction

In recent years, a significant pedagogical shift has occurred from teacher-centered instruction to student-centered methodologies, particularly in the field of language education. Among these, **collaborative learning** has gained considerable attention for its potential to foster meaningful communication, critical thinking, and learner autonomy [1][2].

Language, by its nature, is a social construct that flourishes in interactive environments. Collaborative learning leverages this by engaging students in group-based activities where they are required to communicate, negotiate, and construct knowledge collectively [3]. This method contrasts with traditional approaches, which often emphasize rote memorization and passive learning. Numerous studies highlight the advantages of collaborative learning in language acquisition. These include improved speaking and listening proficiency, enhanced cognitive engagement, and greater retention of language structures [1][4]. However, successful implementation requires careful planning to avoid issues such as dominant group members, unequal

participation, and difficulties in assessment [5]. This paper investigates the impact of collaborative learning approaches on student performance and engagement in secondary language classrooms. It aims to provide empirical evidence supporting their integration and to offer practical insights for educators seeking to enhance their teaching strategies.

### Materials and Methods

The study was conducted in a public secondary school in Tashkent, Uzbekistan. Participants included 60 students, aged 14–16, enrolled in three intermediate-level EFL classes. Based on a standardized English proficiency test, they were divided into two groups: an experimental group (n = 30) that engaged in collaborative learning tasks, and a control group (n = 30) that received traditional instruction. A quasi-experimental design was used, employing both pre- and post-tests to measure academic gains. The intervention spanned **eight weeks**, with the experimental group participating in collaborative learning activities during each English lesson.

The following strategies were implemented:

**Think-Pair-Share:** Students first reflect individually, then discuss with a partner, and finally share with the class.

**Jigsaw Reading:** Each student becomes an “expert” on one part of a text and teaches it to peers.

**Role Play:** Students practice dialogues and simulate real-life scenarios.

**Peer Feedback:** Students provide feedback on each other’s speaking or writing.

**Project-Based Learning:** Students collaborate on presentations, posters, or creative writing projects.

These activities were selected to encourage maximum participation, accountability, and meaningful use of English [3][6].

Collaborative learning approaches have gained significant attention in language classrooms as effective pedagogical strategies that promote engagement and support language acquisition. This educational methodology emphasizes the importance of group work, communication, and shared responsibility among students, fostering an environment conducive to learning. At its core, collaborative learning involves students working together to achieve a common objective. This approach is particularly beneficial in language learning contexts, where interaction is crucial for developing speaking and listening skills. By engaging in dialogue and discussions, students not only practice their language abilities but also gain confidence in using the language in real-life scenarios. One of the primary benefits of collaborative learning is the opportunity for social interaction. Language learning can often be intimidating, especially for learners who fear making mistakes. However, in a collaborative setting, students are more likely to feel supported by their peers, which encourages them to take risks and express themselves. This peer support is

invaluable, as learners can explain concepts and vocabulary to one another, reinforcing their understanding while promoting a sense of community.

Collaborative learning can take many forms within the language classroom. Group projects, for instance, require students to work together to research a topic or prepare a presentation. This activity not only allows them to use the language in context but also helps them develop essential teamwork skills. Similarly, peer teaching, where more proficient learners assist their classmates, can enhance mastery of the material as both parties engage in meaningful dialogue. Role plays and simulations add an element of fun while giving students the chance to practice language use in various situations, from casual conversations to formal interviews. The role of the teacher in a collaborative environment is pivotal. Rather than simply delivering information, the teacher becomes a facilitator, guiding discussions, providing resources, and ensuring all students have an opportunity to contribute. By assessing group dynamics and intervening when necessary, educators can keep collaboration productive and focused. Implementing collaborative learning requires careful planning. Teachers must consider how to form groups effectively, aiming for diversity in skills and experiences. Setting clear objectives and providing structured guidelines can help maintain focus and ensure that all students understand their roles and responsibilities. However, challenges may arise, such as unequal participation or varying language proficiency levels within groups. To address these issues, strategies like assigning specific roles or pairing stronger students with those needing additional support can help create a more balanced learning experience.

Assessment in collaborative learning environments can be complex, as it is important to evaluate both individual contributions and overall group success. Incorporating peer feedback can be an effective way to assess teamwork and language use, allowing students to reflect on their collaboration and learn from one another.

The study utilized both quantitative and qualitative instruments:

1. **Pre- and Post-Tests:** Assessments focused on grammar, vocabulary, reading comprehension, and speaking fluency.
2. **Student Surveys:** Designed to measure motivation, engagement, and perceived learning.
3. **Classroom Observations:** Conducted using structured checklists to monitor student interaction and behavior.
4. **Teacher Interviews:** Aimed at gathering insights on implementation and instructional challenges.

Quantitative data were analyzed using SPSS. Paired t-tests assessed differences in performance. Survey data were examined using descriptive statistics, while observation and interview data were thematically analyzed [5].

**Results and Discussion**

The experimental group showed statistically significant improvements in all areas, particularly in speaking and reading comprehension. Average test scores increased by **25%** in the experimental group compared to **10%** in the control group.

<b>Component</b>	<b>Experimental Pre-Test</b>	<b>Experimental Post-Test</b>	<b>% Gain</b>
Grammar & Vocabulary	56.2	72.4	28.8%
Reading	61.0	76.0	24.6%
Speaking Fluency	5.8/10	7.4/10	27.6%

These results confirm findings from prior studies that collaborative learning enhances language skills more effectively than traditional methods [1][4][6]. Survey responses indicated a notable increase in motivation. In the experimental group:

- 87%** of students felt more engaged.
- 78%** believed they learned better in groups.
- 90%** reported enjoying the lessons more.

Students appreciated the social aspect of learning and the opportunity to speak more English [2.4].

Sample student comments included:

- “I like working in groups because I feel less nervous.”
- “My friends helped me understand better.”
- “It is fun and we do real speaking, not just reading the book.”

These comments align with Krashen’s Affective Filter Hypothesis, which emphasizes the importance of reducing learner anxiety to facilitate language acquisition [7].

Despite the benefits, several challenges were noted:

- Unequal participation:** Some students dominated group activities, while others were passive.
- Time management:** Group work sometimes extended beyond scheduled periods.
- Assessment difficulty:** Teachers struggled to evaluate individual performance fairly in group settings [5.8].

To mitigate these issues, role assignments (e.g., speaker, writer, timer) and rubrics for self and peer assessment were introduced in later lessons.

The results support **Vygotsky’s sociocultural theory**, which highlights the role of social interaction in cognitive development. Collaborative learning fosters a zone

of proximal development (ZPD) where learners can achieve more with peer support than independently [2]. Furthermore, **Slavin’s theory of cooperative learning** asserts that positive interdependence and individual accountability are key to effective group work—elements that were consciously built into the activities [1].

### **Conclusion**

Collaborative learning has demonstrated substantial benefits in the context of secondary language education. Students engaged in collaborative tasks showed higher academic performance, greater motivation, and improved interpersonal communication. While challenges remain, particularly in classroom management and assessment, the overall outcomes strongly advocate for its broader adoption.

Recommendations for educators include:

Careful **group formation** and rotation.

Clearly defined **roles and responsibilities**.

Ongoing **professional development** in collaborative pedagogy.

Future research might focus on long-term language retention, cross-cultural applications, and the integration of digital tools into collaborative learning strategies.

### **References:**

1. Slavin, R. E. (1995). *Cooperative learning: Theory, research, and practice*. Allyn & Bacon.
2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press.
3. Oxford, R. (1997). Cooperative learning, collaborative learning, and interaction: Three communicative strands in the language classroom. *The Modern Language Journal*, 81(4), 443-456.
4. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). An educational psychology success story: Social interdependence theory and cooperative learning. *Educational Researcher*, 38(5), 365-379.
5. Gillies, R. M. (2016). Cooperative learning: Review of research and practice. *Australian Journal of Teacher Education*, 41(3), 39–54.
6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching*. Cambridge University Press.
7. Krashen, S. D. (1982). *Principles and practice in second language acquisition*. Pergamon Press.
8. Dörnyei, Z. (2001). *Teaching and researching motivation*. Pearson Education.

**ARABCHA O‘ZLASHMALARNING LEKSIK- SEMANTIK TADQIQI**  
**LEXICAL-SEMANTIC STUDY OF ARABIC LOANWORDS**

**Sharifa Iskandarova**

Farg‘ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrası professori

Filologiya fanlari doktori (DSc)

**Axmadaliyeva Odina Solijon qizi**

Farg‘ona davlat universiteti lingvistikasi: o‘zbek tili Mutaxassisligi 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zlashma so‘zlar, asosan, arabcha o‘zlashmalar haqida mulohazalar yuritiladi. Ibrat ijodida uchraydiga ayrim arabcha leksemalar semantik va leksik tomondan tahlilga tortiladi.

**Kalit so‘zlar:** leksik-semantik, o‘zlashma so‘zlar.

**Abstract:** This article focuses on loanwords, primarily those of Arabic origin. Some Arabic lexemes found in the work Ibrat will be analyzed lexically and semantically.

**Key words:** lexical-semantic, loanwords.

**Kirish.**

Dunyodagi barcha tillar o‘zga tildan so‘zlarni qabul qilish jarayonida kengayadi. Shuning uchun ham dunyoda bironta ham sof til mavjud emas. Amaldagi til ikki xil usulda lug‘at tarkibini kengaytiradi. Bulardan birinchisi, o‘z qatlam, ya‘ni o‘z ichki imkoniyatlaridan: masalan, shevalardan so‘z olish natijasida kengayishi mumkin. Ikkinchisi esa, tashqi manba hisoblanib, chetdan kirgan so‘zlar hisobiga lug‘at boyligini oshirishi mumkin.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.**

Xalqaro munosabatlar, iqtisodiy-siyosiy va madaniy aloqalar natijasida bir tildan ikkinchi tilga so‘zlar olinadi va lug‘at tarkibiga joylashib, ana shu tilning qonun-qoidalariga moslashadi. Bunday jarayonlarning ahamiyati haqida atriflicha bahs-munozaralar olib borilmoqda. Bunday hodisalar bir necha yuz yillardan beri tilshunoslarning diqqat markazida e‘tirof etilmoqda. O‘zbek tili taraqqiyotida o‘zga millatlarning lisoniy ta‘siri, xususan, lug‘at qatlamida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek tiliga tashqi manbalardan, asosan, arabcha, forsha-tojikcha va Ruscha-international so‘zlar kirib, o‘zlashib qolgan. Professor Fattoh Abdullayevning “Til qanday rivojlanadi?” risolasida ko‘rsatilishicha, o‘tgan asrning yigirmanchi yillarida tuzilgan bir lug‘atdagi so‘zlarning 28,6% arabcha, 16,9% tojikcha, 4,7% ruscha-internatsional, 50,3% asli o‘zbek so‘zlaridan iborat bo‘lgan.

R.A.Budagov lugʻaviy oʻzlashmalarning oʻz tildagi shakli bilan soʻz qabul qilgan tildagi shakli 8 funksional qiymat bilan munosabatga kirishi haqida fikr bildiradi. Bu fikrni oʻzbek tilidagi arabcha soʻzlar tabiati ham toʻla tasdiqlaydi:

1. Arab tilida konkret maʼnoda ishlatiladigan lugʻaviy birlik oʻzbek tilida mavhum maʼno bildiradi, sohib-ega, ayyom-kunlar, mavj-toʻlqin;

2. Arab tilida jins maʼnosida ishlatiluvchi soʻz oʻzbek tilida tur maʼnosida qoʻllanadi, muarbbo- marmalad, ayol- bola-chaqa, oila;

3. Arab tilida bir maʼnoda ishlatilgan soʻz oʻzbek tilida polisemantik xarakter kasb etadi, masalan, bisot;

4. Arab tilidagi otdan oʻzlashgan baʼzi soʻzlar oʻzbek tilida uslubiy muqobiliga ega boʻlmaydi. Masalan, anhor, anqo, ariza, aruz;

5. Arab tilida noarxaik tavsifdagi lugʻaviy birlik oʻzbek tilida arxaiklashgan boʻladi. Masalan, qozi, firqa, xikmat;

6. Arab tilida lugʻaviy mustaqillikka ega boʻlgan soʻz oʻzbek tilida lugʻaviy mustaqilligini inkor etadi. Masalan, almisoqdan beri;

7. Arab tilida lugʻaviy birlik baʼzan oʻzbek tilida soʻz tavsifida boʻladi. Masalan, lisoniy, lugʻaviy, sifat, feʼl, taqriz;

8. Arab tilida soʻz holda ishlatiluvchi birlik oʻzbek tilida soʻz birikmasi tarkibida qoʻllaniladi. Masalan, nazar solmoq, avf etmoq, xayol surmoq, bahridan oʻtmoq.

Arab tilidan soʻz oʻzlashtirish VIII asrdan boshlab, IX-X asrlargacha faollashgan. Arab tilidan soʻz oʻzlashtirilishiga olib kelgan sabablar ichida quyidagilari muhim ahamiyat kasb etadi:

- a) Arablar istilosi;
- b) Islom dinining keng tarqalishi;
- c) Arab yozuvining qoʻllanila boshlanganligi;
- d) Madrasalarda arab tilining oʻqitilishi;
- e) Turkiy arab tilining tarkib topganligi;
- f) Olimlarning arab tilida ijod qilganligi.

Arab tili deyarli 300 yil davomida oʻzbek, tojik va boshqa bir qator xalqlar uchun umumadabiy tillik vazifasini bajargan[1.165].

### **Natija va muhokama.**

Arab tili va adabiyotining sharq xalqlari, jumladan, oʻzbek xalqi orasida keng yoyilishining oʻzi muhim omillardan biridir. Islom mazhabi, arab tili va adabiyoti oʻsha paytda arab soʻzlarining oʻzbek tiliga kirib kelishi xilma-xil boʻlganligi kabi, uning semantik tuzilishidagi oʻzgarishlar ham turlicha hisoblanadi. T.I.Rahmonov oʻzining ilmiy ishida oʻzlashma soʻz semantik tuzilishi 3 xil ekanligini aytib oʻtgan:

1. Soʻz maʼnolarining kengayishi.
2. Soʻz maʼnolarining torayishi.

3. So ‘z ma’nolarining ko ‘chishi.

Etib ko ‘b xalqni majruhu ma’dum,

Qo ‘lida **tasbehu** oqi hamoyil.

(Ibrat.

Ushbu baytda bir nechta arabcha so ‘zlar ishtirok etgan. Masalan, majruh- bu arabcha macruh(un) shakliga ega; o ‘zbek tiliga cho ‘ziq u unlisi y unlisiga, xoyu xutti undoshini x undoshiga almashtirib qabul qilingan; Macruh-majruh, asli “jismoniy shikast yetkazdi” ma’nosini anglatuvchi caraha fe’lining I bob majhul nisbat sifatdoshi bo ‘lib, “jarohatlangan”, “nogiron”, “mayib” ma’nolarini anglatadi. Hozirgi zamon o ‘zbek tilida ham bu so ‘z xuddi mana shu semalari bilan ifodalanib kelinmoqda. Tasbeh- bu arabcha so ‘z tasbih(un) shakliga ega; o ‘zbek tiliga cho ‘ziq I unlisi e unlisiga, xoyi xutti undoshi x undoshiga almashtirib qabul qilingan: tasbix-tasbeh; ko ‘pma’noli sabaha fe’lining “maqtadi” ma’nosi bilan hosil qilingan II mastari bo ‘lib, asli “maqtov” ma’nosini anglatadi. Subxon ollo! Maqtov so ‘zlari maxsus miqdorda ipga tizilgan munchoqlarni birma-bir ayirib aytilagni uchun bu so ‘z keyinchalik “maxsus miqdorda ipga tizilgan munchoqlar” ma’nosini anglatish uchun ishlatiladigan bo ‘lgan[2.426]. O ‘zbek tilida ham tasbeh so ‘zi duolar va ibodat so ‘zlarini hisoblab borish maqsadida ishlatiladigan munchoqlar shodasi hisoblanadi. Tasbeh so ‘zining kelib chiqish tarixi uzoqqa borib taqaladi. “Rasululloh solallallohu alayhi vasallam bir ayolning oldiga kirdilar, u paytda ayol danak yoki mayda toshlarni sifatida ishlatib ollohu duo, zikr keltirayotgan ekan, shunda U zot “Men senga undan oson yoki Afzal narsaning xabarini beraman deb, zikrni ko ‘p takrorlash va uni qo ‘ldan boshqa narsa bilan ham sanash mumkinligini aytganlar”. Mana shu ma’noni anglatish maqsadida mashhur muhaddis imom Abu Dovud o ‘z kitobida “mayda tosh bilan tasbeh aytish” bobini yaratgan. Mana shu voqealardan keyin bizda “tasbeh” nomini olgan, arabcha “subha” deb nomlanadigan danak yoki dumaloq narsalarni ipga tizib yaratiladigan narsa paydo bo ‘lgan. Boshqa bir hadis kitoblarida, tasbeh namozdan tashqari holatlarda ollohga ko ‘p martalab zikr aytish jarayonida ishlatilishi kerakligi haqida ham ma’lumotlar uchraydi, shunday qilib musulmon xalqi mana shunday tasbehlarni yasab foydalanganlar.

Bizdan odob usul etmang umid,

**Odami** qishloqidurmiz uch kishi.

(Ibrat. Hikoyati uch kishi)

Ushbu parchadagi odam so ‘ziga diqqat qarataylik. Odam so ‘zi lug‘atimizga arabchada kirib kelgan. O ‘TILda ushbu so ‘zga shunday ta’rif beriladi: ar-Odamato;inson. Fikrlash, so ‘zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo ‘lgan, shu tufayli boshqa hamma maxluqotdan ustun turuvchi jonli zot; kishi, inson. Odam leksemasini semalarga ajratamiz: 1. Kishilik jamiyatining bir vakili. 2. Tarbiya ko

‘rgan, yaxshi xislatlarga ega insonga el orasida ‘odam bo ‘lgan’ iborasi qo ‘llaniladi.  
3. Oila a’zolarining har biriga nisbatan. Masalan: Odam boshiga uch so ‘mdan.

**Xulosa.**

Xulosa o ‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, olib borilgan kichik tadqiqotimiz shuni ko ‘rsatadiki, o ‘zlashma so‘zlar o ‘zbek tili lug‘at tarkibining ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Tilimizda ishlatilayotgan faol so ‘zlarning kelib chiqishini o ‘rganish va tadqiq etish jarayoni o ‘tgan asrdan buyon tilshunos olimlarning diqqatini tortib kelmoqda. Bu mavzu yuzasidan ko ‘plab ilmiy ishlar yaratilgan. Shunday ekan, millatimizning ulkan va bebaho boyligi hisoblangan ona tilimizning so ‘z boyligini oshirishda qaysi tillar o ‘z ta’sirini o ‘tkazganligini aniqlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Hojiyev A. O ‘zbek tili leksikologiyasi.-Toshkent,1981.
- 2.Rahmatullayev Sh. O ‘zbek tilining etimologik lug‘ati.-Toshkent,2003.
- 3.Kaye, A.S.(Ed).Semantic Studies in Honor of Wolf Leslau.-Wiesbaden:OttoHarrassowitz,1987.
- 4.Qayumov A. Lug‘aviy so‘zlar tarixi.-Toshkent:O‘qituvchi,1983.
- 5.Abdurahmonov G‘. O‘zbek tilida arabcha so‘zlar.-Toshkent:Fan,1995.

1.	RAQAMLI TA'LIM VOSITALARINING ZAMONAVIY PEDAGOGIK JARAYONDAGI O'RNI VA SAMARADORLIGI Delov To'liqin Erkinovich Norboyev Shuhrat Salohiddinovich	4
2.	ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ АКТИВНОСТЬ ЖЕНЩИН В МАХАЛЛЯХ: ВОЗМОЖНОСТИ СИНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ Оразалиева Барно Рустемовна	10
3.	МАЪМУРИЙ СУДЛАРДА СУД ХУЖЖАТЛАРИНИ ҚАЙТА КЎРИШ АСОСЛАРИ Абдуллаев Исломидин Муқимжонович	14
4.	ИНСТРУМЕНТАЛЬНЫЙ ФАКТОР В СОВРЕМЕННОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ (ФОРТЕПИАННАЯ МУЗЫКА ВЕНСКИХ КЛАССИКОВ) Иванов Олег Николаевич	17
5.	SHOHRUX MIRZONING TEMURIYLAR DAVLATI TARIXIDA TUTGAN O'RNI Dilnoza Mamadaliyeva	23
6.	QOZOG'ISTONDA DAVLAT AXBOROT TIZIMLARING DAVLAT VA JAMOAT INSTITUTLARI BILAN MUNOSABATLARI Ro'zimova Rayhon Hamidovna	30
7.	TURKISTONDA JADID YANGI USUL MAKTABLARI VA HOJI MUIN SHUKRULLO O'G'LINING MAORIF SOHASIDAGI ISHLARI Temirov Rahmatulla Ismatulla o'g'li	44
8.	DINIY E'TIQOD TUSHUNCHASINI ILMIY TAHLILI Tuycheyiva NiginaUlug'bek qizi Egamnazarova Navro'za Olladustov Ollanazar qizi	48
9.	MEZON UZ-ZAMON" ASARIDAGI MERZONLAR BAYONI Robiyaxon Sobitova Salohiddin qizi	58
10.	MEHNAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA OID QARASHLAR Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna	67
11.	O'ZBEK VA FRANSUZ IRIM SIRIMLARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI Navruzova Mutabar Erkinbayevna	69
12.	BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA TARBIYAVIY ISHLARNI BOSHQARISHGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI Temirov Abdumalik Ikromovich	74
13.	SURUNKALI ODONTOGEN GAYMORITLARNI KOLDVELL-LYUK VA FESS JARROHLIK USULLARI BILAN DAVOLASHNI SAMARADORLIGI Abdullayeva Nigora Nusratovna Ergashev Ulug'bek Muradovich Jumanov Davlat Azatbekovich Qobulxo'jayev Yorqin Erkin o'g'li	79
14.	KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA FAOLIYATNI AMALGA OSHIRUVCHI VA UNDA ISHTIROK ETUVCHI ORGANLAR HAMDA SUBYEKTLAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH MASALALARI Raxmonov Asadbek Abdulaxat o'g'li	84
15.	GAP LINGVISTIK BELGI SIFATIDA Abduraxmonova Irodaxon Shuhratjon qizi	95
16.	INGLIZ TILIDA FRAZELOGIYANING O'RNI VA AHAMIYATI Qodirova Xurshida Baxodirovna Iskandarov Farrux Yodgor o'g'li	98

17.	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA "BOLA HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENSIYA"DAN FOYDALANISH Islamova Gulzamon Madiyevna Shonazarova Setora	102
18.	BOSHLANG'ICH SINFLARDA GEOMETRIK MASALALARNI ISHLASHNI O'RGATISH Nosirova Mashxura Husniddin qizi	107
19.	FARG'ONA VODIYSIDA TEMIR YO'LLAR QURILISHINI O'LKA XALQLARINING SIYOSIY, IQTISODIY VA IJTIMOYIY XAYOTIDAGI O'ZGARISHLAR Mashxura Burxanova	113
20.	EKSTREMIZM VA TERRORIZM: MOHIYATI, SABABLARI VA OLDINI OLIISH CHORALARI Zaripova Gulnoza Zaxriddin qizi Nurullayeva Shirin Akbar qizi	117
21.	MAKTABDA TARBIYA DARSLARINI O'QITILISHIDA JADIDLAR TA'LIMOTINING O'ZIGA XOS AHAMIYATI Begmatova Nasiba Safarbayevna	122
22.	ARAB TILSHUNOSLIGIDA JOMIYNING METODIK YONDASHUVI Uxtamov Bexruz	128
23.	ABU NASR FOROBIYNING 'FOZIL ODAMLAR SHAHRI' ASARIDA FUQAROLIK JAMIYATI TAMOYILLARI: NAZARIY TAHLIL VA ZAMONAVIY TALQIN To'ramurodov Jo'rabek Normurod o'g'li	131
24.	STAGES, PROBLEMS, AND SOLUTIONS OF CODIFICATION OF LEGISLATION: AN ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF FRANCE, GERMANY, AND THE USA Ashuraxunova Shahnoza Toxir qizi	142
25.	QO'QON XONLIGIDA QOG'OZ ISHLAB CHIQARILISHI TARIXIDAN Abdullayev Ravshanjon Inomjon o'g'li	150
26.	KATTA QONCHO'P O'SIMLIGINING BIOEKOLOGIK VA FARMAKOLOGIK XUSISIYATLARI Nurmetova Farida Ortiq qizi To'xtayev Boboqul Yorqutovich	154
27.	CHALLENGES AND STRATEGIES IN INCLUSIVE EDUCATION FOR STUDENTS WITH SENSORY IMPAIRMENTS Ochilova Zarina Xayrullo qizi Jalolova Shakhnoza Mukhammedjanova	158
28.	ОСОБЕННОСТИ СИМВОЛИКИ ЦВЕТА Имамова Х.Э.	164
29.	INNOVATIVE METHODS IN PRODUCT QUALITY MANAGEMENT Mirkhamidova Dilorom Nigmatillaevna	169
30.	INNOVATIVE DEVELOPMENT AS A FACTOR IN INCREASING AND ENSURING THE COMPETITIVENESS OF AN ENTERPRISE Yusupxodjayeva Gulchekhira Bahadirxodjayevna	174
31.	КЛАССИФИКАЦИЯ ВЕРБОВ И ЕГО ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ В ПРЕДИКАТИВНОМ ПРЕДЛОЖЕНИИ Имамова Х.Э.	181
32.	TURIZM MADANIYATINI SHAKLLANISHIDA EKOTURIZM VA EKOLOGIK MADANIYATNING AHAMIYATI Dadaboyeva Madina	188
33.	VIRUSGA QARSHI IMMUNOPROFILAKTIK VOSITALARNING	192

---

	RIVOJLANISHI: KLASSIK VAKSINALARDAN ZAMONAVIY MRNA TEKNOLOGIYALARIGACHA Toshtemirova Muazzam Akmaljonovna Mo`minova Shodiyonabonu	
34.	ERGONIMLARNING TRANSONIMIZATSIYA YO‘LI BILAN YASALISHI Usmonova Umidaxon Abdulkarimovna	196
35.	ТАБИАТ-ЖАМИЯТ-ИНСОҢ МУНОСАБАТЛАРИДА ЭКОЛОГИК АХЛОҚНИНГ ТАРИХИ, МАЗМУНИ ВА ЗАМОНАВИЙ АҲАМИЯТИ Дадабоева Мадина	202
36.	COLLABORATIVE LEARNING APPROACHES IN LANGUAGE CLASSROOMS Kimsanova Nozima Maxfuzullo kizi	207
37.	ARABCHA O‘ZLASHMALARNING LEKSIK- SEMANTIK TADQIQI Sharifa Iskandarova Axmadaliyeva Odina Solijon qizi	212

---

Eslatma! **“Interpretation and researches”** xalqaro ilmiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniylikiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

International scientific journal  
**“Interpretation and researches”**  
xalqaro ilmiy jurnal  
2025-yil 10(56)-son

© Mualliflar jamoasi, 10.06.2025. 219 bet.  
© O‘zbekiston Respublikasi, Farg‘ona viloyati  
© [interpretationandresearches.uz](http://interpretationandresearches.uz)